

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG'ALLIKNI  
QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI**

**BAND BO'L MAGAN AHOLIGA**

**XIZMAT KO'RSATUVCHI «ISHGA MARHAMAT»  
MONOMARKAZI**



# **Tikuvchilik**

**YO'NALISHI UCHUN O'QUV QO'LLANMA**



# Jizzax 2023

## KIRISH

Mustaqil mamlakatimiz xalqining o'sib borayotgan moddiy ehtiyojlarini har tomonlama qondirish masalasini hal qilishda tikuvchlik ishlab chiqarish korxonalar zimmasiga ham muhim vazifalar yuklanadi. Bu vazifalarni bajarish uchun kiyimlarni modellashni mukammallashtirish, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy qilish, tikuvchilik korxonalarini eng yangi jihozlar bilan ta'minlash talab qilinadi. Hozirgi vaqtida tikuvchilik ishlab chiqarishi juda keng tarmoq bo'lib, unda avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirishning ilg'or vositalaridan, kompyuter texnikasidan, fan va texnika yutuqlaridan keng foydalaniladi. Bularning hammasi tikuvchi mutaxassislardan yuqori bilimli bo'lishni, mahorat va malaka orttirishni talab qiladi. Xususiy mulkchilikka keng yo'l berilishi natijasida kichik va o'rta korxonalar, xususan tikuvchilik korxonalar rivoj topayotganligi bu talabni yanada oshirib yuboradi. Kiyimlarni ko'plab ishlab chiqarish uchun buyumlarning modellarini yaratish va loyihalash bilan modalar uyi, texnika, tajriba lobaratoriyalari, ayrim korxonalarda esa , yuqori malakali rassom - modelerlar va konstruktorlari bo'lgan eksperimental sexlar modalar uyi rahbarligida shug'ullanadi. Buyumlarni konstruksiyalash ular konstruksiyasini yaratish jarayonidan iborat. Konstruksiya buyumning haqiqiy kattalikdagi chizmasi bo'lib, unda qirqimlar bo'yicha detallarning tutashish joylari va tikish usullari ko'rsatiladi. Andazalar, texnik hujjatlar va modellarning namunalari tikuvchilik fabrikasiga keltiriladi. Har bir tikuvchilik korxonasida tikish jarayonida kiyim uchta asosiy bo'limdan; tajriba o'tkaziladigan bo'lim, tayyorlov-bichish bo'limi va tikuv bo'limidan o'tadi. Fabrika tajriba o'tkaziladigan bo'lim xodimlarining vazifalari: modalar uyidan modellar namunalarini, kiyim andazalarini va texnik hujjatlarini olish; andazalarni tekshirish; ko'paytirish va tayyorlash; andazalarni aralash joylashtirish uchun o'lcham va bo'ylarini birlashtirish; andazalarni tajribaviy yo'l bilan joylashtirish va gazlama sarfi normasini aniqlash; trafaretlar tayyorlash; ishlab chiqarishda gazlamalardan to'g'ri foydalanishni nazorat qilishdan iborat. Tayyorlash bo'limida gazlamalar qabul qilinadi va saqlanadi, sifati tekshiriladi, gazlama to'plari uzunligi o'lchanadi va saralanadi, to'shamalarga gazlama tanlanadi, to'shamalarning ustki qavatlari bo'rلانadi. Bichish bo'limida gazlamalar to'shaladi, to'shama bo'laklarga qirqiladi, buyum detallarini qirqib olinadi, bichish sifati tekshirilib, bichilgan detallar to'plab qo'yiladi. Tikuvchilik bo'limida choklaydigan va maxsus mashinalar, shuningdek namlab – isitib ishlov beradigan uskunalar bilan jihozlangan texnologik oqimlarda kiyim tikiladi. Buyumlarga pardozlash sexida namlab - isitib ishlash operatsiyalari bajariladi, natijada tayyor kiyim tovar ko'rinishini oladi. Pardozlash bo'limidan kiyim tayyor mahsulotlar omboriga jo'natiladi.

**1. Mavzu. Tikuv bo‘limlarida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari. Tikuv mashinalari bilan ishlayotganda xavfsizlik qoidalariiga rioya qilish.**

Reja:


1. Xavfsizlik texnikasi qoidalari.
2. Qo‘l va mashinada bajariladigan tikuv ishlari qoidalari.
3. Dazmol bilan ishlaganda xavfsizlik qoidalari.



Xavfsizlik koydalari mehnat jarayonida xavfsiz sharoit yaratishga qaratilgan chora tadbirlar sistemasidan iborat. Tikuvchilik darslarida mashinalarda, dazmollar va qo‘l asboblarida ishlatayotganda qo‘lga igna kirib ketishi, qo‘lni nimadir kesib olishi, mashinalarning aylanib turadigan qismlari kiyim yoki sochni o‘rab ketishi, dazmolda biror joy kuyib qolishi, tugma yoki igna parchalari uchib yuzga tegishi va hokazo natijasida o‘quvchilardan birontasi jarohatlanib qolishi mumkin. Texnik xavfsizlik qoidalari shunday noxushliklar yoki baxtsiz hodisalarining oldini olishga xizmat qiladi. Tikuvchilikni o‘rganuvchilar uchun bu qoidalalar asosan ikki guruhga bo‘linadi:

1. Qo‘l va mashina ishlarida ishlovchilar quyidagilarga ryoja qilishi kerak:
  - mashinalar, asbob va moslamalarning ishga yaroqliligi tekshirib turiladi. Ish boshlashdan oldin ish o‘rni saranjomlanib olinadi, mashinada barmoqqa igna kirib ketishini oldini oladigan saqlagich, yuritgich tasma to‘sig‘i, mashinani ishga tushirish joylarida izolyatsiya g‘iloflari bor - yo‘qligi tekshiriladi va hokazo;
  - elektr simlariga ip, latta, simchalar osmaslik lozim, aks holda qisqa tutashuv yuz berishi mumkin. Elektr o‘tkazuvchi simlarda nuqson sezilsa, darhol elektromontyorga xabar berish lozim, ochilib qolgan elektr o‘tkazgich simlarga qo‘l tekkizmaslik kerak;
  - narsalarni ishlayotgan tikuv mashinasi ustidan uzatish mumkin emas;
  - elektr dvigatelni o‘chirmasdan mashinaga moy surish, uni tozalash, mashina shkiviga tasma kiydirish man etiladi.
  - ish o‘rnida asboblar sochilib yotmasligi, qaychi va iplar mashinaning aylanayotgan qismlari yoniga qo‘yilmasligi kerak;
  - ish o‘rinlari orasidagi yo‘lni to‘sib qo‘ymaslik lozim.
2. Dazmol bilan ishlaganda quyidagilarga ryoja qilish kerak.
  - elektr dazmolda ish boshlashdan oldin elektr o‘tkazgich simning izolyatsiyasi tekshirib ko‘rilishi lozim;
  - dazmol, shtepsel rozetkasi, vilkaning tok o‘tkazuvchi qismlariga qo‘l tekkizish mumkin emas;

- dazmolning sozligiga ahamiyat berish zarur (korpusda qisqa tutashuv bo'lsa, ishlayotganda qo'lga salgina igna sanchilgandek bo'ladi);
- ishlayotganda tok o'tkazuvchi sim dazmolga tegib turmasligi kerak;
- dazmolning o'ta qizib ketishiga yo'l qo'ymaslik lozim;
- dazmol, shtepsel rezetkasi, vilka buzuq bo'lsa, ishni to'xtatib, elektromontyorni chaqirish kerak.



Mokiga ip o'rab bo'lingach, uni mashinaga o'rnatiladi va quyidagi amallar bajariladi: Igna yuqoriga ko'tariladi; Moki qopqog'i ustiga ip chiqariladi; Moki qopqog'i ichiga moki naychasi kiydiriladi. Agarda moki o'z joyiga tushmasa mashina bosh vali aylantirilganda moki tushib qoladi. Ustki ipni o'rnatish ko'rsatib beriladi va yo'llanma berib boriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Tikuv mashinalari bilan ishlayotganda qanday qoidalarga rioya qilish zarur?
2. Tikuv mashinalaridan qanday maqsadlarda foydalilanadi?

## **2. Mavzu. Moda olami bilan tanishtirish. O'rta Osiyo xalqlarining milliy kiyimi.**

Reja:

1. Moda haqida tushuncha.
2. Moda sanoati.
3. O'rta Osiyo halklarning milliy kiyimi.

Moda (frans., mode — me'yor, tarz, usul) paydo bo'lishi anchagina murakkab jarayon. Moda — turmushning tashqi ko'rinishida, asosan kiyimda namoyon bo'ladigan biron didning muayyan ijtimoiy muhitda ozroq vakt hukmron bo'lib turishidir (V. Dal). Moda bilan uslub o'rtasidagi farq zaminida ularnnng ijtimoiy vazifalari yotadi. Uslubda jamiyatining o'tmishga va tevarak-atrofdagi dunyoga munosabati umuman ifoda topsa, modada ana shu jamiyat ichidagi zamondoshlarning o'zaro bog'liqligi aks etadi. Dastavval jamiyat bir qismining didi o'zgarishi natijasida kelib chiqqan moda keyinchalik uslub yaratilishining dastlabki momenti bo'lib qolishi mumkin. Uslub yaxlit bir sistema bo'lib shakllangandan keyin modani tartibga solib, cheklab va yo'naltirib turadi. «Umuman modaga hayratlanib va xayrixohlik bilan qaramaydilar. Undan zavqlanadilar, unga ergashadilar. Lekin hamma emas. Modani yoqtirmaydiganlar ham bor bo'lib, ular o'zining yetuk bo'limgan yoki ochiqdan ochiq konservativ didlarini boshqalarga o'tkazish mumkin deb hisoblaydilar. Modelrlarning har bir taklifiga ular ashaddiy qarshilik ko'rsatadilar. Ular to'ng'illab zarda qilib yuradilar, redaksiyalarni jahldor xatlarga ko'mib tashlaydilar, zamonaviy kiyangan kishi ortidan hayqirib kulgi ko'taradilar. Biroq hali hech kim vaqt ni to'xtata olgan emas!» (V. Zaysev. Takaya izmenchevaya moda. M., 1980, 11-bet). Al mashib turish modaning eng muhim xususiyati. Yangi moda paydo bo'lganda kostyum o'zining estetik qadrini yo'qotadi. Bu esa modaning harakteridagi ziddiyatni ko'rsatadi. Moda vaqtinchalik va o'tib ketadigan tushuncha-ku, lekin unda go'zallik sifatida saqlanib qoladigan estetik topilmalar ham bo'ladi.



Moda—zamonaviy degani, estetik qiymat esa hamma vaqt o'zgarmas bo'lib qoladi. Biroq modaning ziddiyatligi uning progressivlilagini inkor etmaydi. Moda insonning yangilanib turishdek tabiiy intilishiga mos bo'ladi. Moda turmush madaniyati va estetikasini oldinga tomon etaklab boradi. U zamonaviylik nuqtai nazaridan eng ma'qul yechimlarni tanlab oladi. «Moda — bu yangilanish! Bu tabiat rioya qiladigan prinsip! Daraxt eski bargini, odam esa jonga tekkan kiyimini tashlaydi. Narsalar haddan tashqari o'rganish bo'lib ketsa, odam ulardan tez charchaydigai bo'lib qoladi. Moda zerikarli bir xillikdan halos kiladi. Odamlar bir-biriga yoqishni hohlaydi: chiroyli kiyinsam, yaxshi ko'rinsam deydi — bu tabiiy extiyoj» (Per Karden. «Nedelya», 1975, 38-son). Moda—bu taqlid va yangilik. Lekin bunda hamma vaqt yangilikka yoki g'ayritabiiylikka taqlid qilinavermaydi. Shaxs bilan jamiyatning o'zaro munosabatida taqlid bilan bir qatorda buning aksi bo'lgan hodisa—o'ziga xoslik ham namoyon etiladi. Moda qaerda paydo bo'ladi? Ko'pchilik Modelerlar uyida deb hisoblaydi. Xo'sh, Modelerlar uyi bo'limganda moda qanday paydo bo'lgan? Hamma vaqt modaning muallifi bo'lganmi?



Moda tarixchisi Beyonning ta'kidlashicha, modaning asosiy chizig'inini hech kim yaratmaydi. Moda jamiyat bilan birligida o'sa boradi va taraqqiy topadi, u zamona farzandi-yu, lekin o'zining qat'iy harakteri bor. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, iqlim, tevarak-atrofdagi tabiat, xalq an'analari, turmush tarzi, yirik ijtimoiy-siyosiy voqealar, fan, texnika, sportga ommaviy qiziqish, yangi materiallar paydo bo'lishi, kosmik davr kabi turli-tuman omillar modaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.



Мода саноати - бу хизмат кўрсатиши соҳасининг сектори бўлиб, у ҳаридорларда “мода” маҳсулоти образини шакллантириш, маҳсулотни ишлаб чиқариш ва истеъмолчиларга етказиб бериш билан шуғулланади.

Moda ijtimoiy fenomendir. Modadagi mahsulotlarning bosh vazifasi – ularga ega bo‘lgan insonlarning estetik talablarini qondirish, hamda ular egasining ijtimoiy maqomi haqida axborot berishdir. Bugungi yoshlarimizning g‘arb modasiga mukkasidan ketayotgani, ular milliy kiyinish an'analarini unutdilar degani emas. O‘zbegimizning milliy iftixori bo‘lgan atlasga hamisha e’tibor katta. U hech urfdan tushmaydi. Shu bilan birga yaqin yaqingacha unutilgan adres, banoras, beqasam matolar yana urfga kiryapti. Bu quvончли hol, albatta.

O‘zbek xalqining ilk yoqasi - tik yoqa bo‘lib, yoqa o‘miziga ensiz, to‘g‘rito‘rtburchak gazlama bo‘lagi ulanadi. Bunday yoqalar xozirda xam xalatsimon kiyimlarda uchraydi. Bunday tik yoqa - rubaxalarda uchraydigan, ko‘krakkacha ulanadigan plankasimon yoqaga taqlid edi. Yoqali kiyimlar bilan birgalikda, yoqasiz burchak qirqimli xalat va ko‘ylaklar xam xozirda uchraydi. Kiyim uzunligi tizzadan yuqorida bo‘lib, ular ostidan keng ishton - lozim kiyilib, ularning pochalari etikka tikib qo‘yilardi. Ustki kiyim yon kirkimlarga ega bo‘lib, ularning yoqa atroflari, yeng va etak uchlari avralik gazlamadan rangi farqlanuvchi gazlama tasmasi bilan bezatildi. Ma’lumki, diniy marosimlarda kiyiladigan kiyimlarda qadimiy konstruksiya va bezak usullaridan foydaniladi. Masalan, mullocha - ko‘ylak, musulmon-ko‘ylak rangdagi tunikasimon, gorizontal yoqa o‘mizli ko‘ylak bo‘lib, barcha yoshdagilar kiyishadi. Oliy tabaqaga tegishli kishilar choponlari qimmatbaxo zar ip va tot, marvaridlar bezatilar edi. Qadimda erkaklar uchun xam ayollar uchun xam maxsus ichki kiyimlar bo‘lmagan. Ichki kiyim sifatida yupqarov ko‘ylak va lozimlar ishlatilgan. Natijada ikki, uch yoki undan xam ortiq ko‘ylaklar ustma - ust kiyilgan. Uzun ko‘ylak kiyish butun musulmon xotin - qizlariga xos xususiyatdir. Xotin-qizlar ko‘ylaklari ularning yoshlariga qarab turliche bo‘lgan. Xotin - qizlarning eng ommaviy ko‘ylaklaridan biri "elka yoqali" yoki "kiftaki" deb atalgan ko‘ylakdir. Bu xildagi ko‘ylakni ko‘proq qariyalar, qizlar xam kiyishgan. Qizlar turmushga chiqquncha ana shu ko‘ylaklarda yurishgan. Qadimgi odatga ko‘ra, qizlarga

turmushga chiqqanlarida nikox kunlari ok rangli "kurtai peshkusho" deyiladigan ko‘ylak kiydirilgan. Bunday ko‘ylakni kiyganda, u baxtli va hayotda xamma ishlari uchun "oldi ochik" deb ishonishgan. Bunday ko‘ylakning orka yoqa qirqimiga "paskafo" nomli detal tikilgani uchun yoqasi tik turgan. Asrimizning 30 - 40 yillariga kelib bu ko‘ylakni faqat ma’rakalarda, hayit kunlarida kiyiladigan bo‘ldi. Uni qimmatbaxo baxmal, parcha, pombarxat kabi gazlamalardan tikib, tagidan yupka ok ko‘ylakcha kiyib uzun yenglarini ustki ko‘ylakning yengi ustidan kayirib qo‘yilgan. Kundalik kiyim sifatida uni faqat qariyalar kiyishgan. XIX asr kiyimlarini urgangan tadqiqotchi olimlarning fikricha, xamma ko‘ylaklar: ayollar, bolalar va erkaklar ko‘ylaklari bir xilda bichilgan va tikilgan. Erkaklar, bolalar va yosh qizlar ko‘ylagining yoqasi gorizontal qirqilgan, ayollar ko‘ylagining yoqa o‘mizi esa vertikal qirqilgan. Yoqa o‘mizini adip bilan ishlab, ingichka ziy tikilgan, qizlar va ayollar ko‘ylagining yoqa o‘mizini "jonona", "qush jonona" nomli qo‘lda barmoqlarda to‘qilgan jiyaklar bilan bezab tikilgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Moda tushunchasi nimani ifodalaydi?
2. O‘rta Osiyo halklarning milliy kiyimi haqida aytib bering.
- 3. Mavzu: Kiyinish uslubining turlari.**

Kiyim kishilik jamiyatni rivojlanishining ilk bosqichlarida paydo bo‘lgan. Hayvonlar terisi, baliq ichaklari, o‘simgiliklar va hokazolar kiyim uchun material bo‘lgan. Kiyimning tarixiy rivojlanishiga, uning o‘zgarishiga uslub va moda sabab bo‘ladi. Uslub-bu jamiyat moddiy va ma’naviy madaniyatidagi muhim va harakterli belgililar obrazli sistemasi ijodiy prinsiplarning tarixan tarkib topgan bir qadar barqaror mushtarakligidir. **Uslub** - bu davrning badiiy tili, uning badiiy harakteristikasi. Qanday USLUB TURLARI mavjud? Ularning soni juda ko‘p. Ammo qancha bo‘lishidan kat’iy nazar, ularning barchasi uchta asosiy narsadan kelib chiqadi: klassik, romantik va sport.

Klassik uslub-bu avvalambor nafosat, chiziqlaridagi soddalik, lokanik kesma uyg‘unligidagi kiyim uslubi. Ushbu uslubdagi buyumlar materiallarning sifati bilan ajralib turadi. Klassik turdagilari kiyimlar ko‘pincha qora, jiigarrang, ko‘k, kulrang, oq bo‘ladi. Ingichka chiziqli katak shaklidagi uslub namunasi ko‘p tarqalgan. Tarkib va hajmlari ham doim o‘rtacha, ko‘zga tanish bo‘ladi.



Romantik uslubdagi kiyimlar-yengil matolardan tikeladi. Qomatni ta'kidlaydigan, lekin unga yopishmaydign ko'rinishda bo'ladi. Kiyim tasviri murakkab tarzda yaratiladi. Ushbu uslubdagi erkaklar nimcha, bo'yin ro'moli va keng engli ko'ylak kiyishadi. Romantik uslubda nozik rangli gulli matolar ko'llaniladi.



Sport uslubi-erkin va cheklovsiz harakatlanishda, jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishda, dam olishda, shuningdek sport uslubi sifatida bezatilgan kundalik kiyimlar namunalarini bilan ifodalanadi.



Casual uslubi (erkin uslub) juda mashhur va keng tarqalgan. Bu uslub namunalarini kundalik, amaliy va qulayligi bilan ajralib turadi. Ushbu uslub boshqa uslublarning elementlarini birlashtirishi mumkun. Uning asosiy prinsipi kiyimning qulayligi bilan ifodalanadi. Ushbu uslubning o'ziga xos turlari mavjud: *city casual* — ya'ni shahar kundalik uslubi, *smart casual* — kundalik nafis uslub, shuningdek «business casual» — va *sport casual* – bu sport elementlari bilan hamohang uslub.



Кийимдаги экстравагант услугу, бизнинг шахсий хусусиятларимизни акс эттиради, нозик дид ва дизайн маҳоратини талаб қиласи. Ушбу услуга ижодий одамлар орасида айникса долзарбдири, уларнинг ёрдами билан улар бошқаларга ўхшамасликлари ва оломондан ажралиб турмасликлари учун ўзларини ифода этадилар. Улар ассиметриал, ёрқин, ностандарт тафсилотлар, ёрқин ранг комбинациялари билан ажралиб туради.



Biznes uslubidagi kiyimlar. Ushbu uslubda urg‘u xodimning ishbilarmonlik fazilatlariga qaratilgan bo‘lib, kiyim buni ta’kidlashi kerak. Bu aniq siluetlar bilan cheklangan uslub. Klassik uslubdan farqli, biznes uslubi moda tendensiyasi bilan ajralib turadi.



Jokey uslubi — chavandozlar kiyimini takrorlaydi. Bu muloyimlik va nafislik bilan uyg‘unlashadi. Bu uslub yuqori etiklar, pidjaklar bilan boshqalaridan farqlanadi. Bu uslub namunalari ko‘k, kulrang, qora ranglar bilan ifodalanadi. Bir vaktning o‘zida ham qat’iylik, ham romantik ko‘rinishni aks ettiradi.



Etnik kiyim uslubi. Ushbu uslub turli xil milliy kiyimlarning elementlarini o‘z ichiga olgan. Dunyoda qancha madaniyat bo‘lsa, shuncha etno-uslub tendensiyalarini ajratib ko‘rsatish mumkun. Shu bilan birga, milliy libosni to‘liq nusxalash kerak emas. Bu asos sifatida qabul qilinishi mumkin va sizning xohishingizga qarab o‘zgarishi mumkin.



Minimalizm. Ushbu uslubda kiyimda ortikcha elementlar bo‘lmaydi. U yosh chekloviga ega emas va hech qachon uslubdan tashqariga chiqmaydi. Bu kiyimning oddiy kesimi, ranglarning monoxrom tasviri, matolarning to‘qimasi bilan izohlanadi.



Militari uslubi (Harbiy uslub). Harbiy uslubdagi kiyimlar yamoq cho‘ntaklar, pagonlar, bog‘ichlar bilan izohlanadi. Ushbu uslub asosan yashil, zaytun rangli kiyimlar bilan farqlanadi.



Dengizchi uslubidagi kiyimlar. Ushbu uslub dengiz xususiyatlarining mavjudligi bilan bir katorda ko‘k, oq, qizil rangdagi kiyimlarni aks ettiradi.



Vamp uslubi. Ushbu uslub namunalari o‘ziga ishongan va xotirjam bo‘lish uchun jasur ko‘rinishni aks ettiradi. Asosan qora va qizil ranglar bilan ifodalanadi. Bu uslubdagilardan har doim yorqin bo‘yanish, q izil lab bo‘yog‘i va poshnalar talab etiladi.



Disko uslubi. 70-yillarda paydo bo‘lgan bu uslub yorkin ko‘rinishdagi ko‘ngilochar kiyimlar bilan izohlanadi.



Oversize uslubi. Bu uslubda kiyimlar kerakli miqdordan kattaroq bo‘ladi. Bunday kiyimlar juda qulay va shaklning kamchiliklarini yashirishi hamda shu bilan birga uning nozikligini ta’kidlashi bilan boshqalaridan ajralib turadi.



«Nyu-luk» uslubi (yangi ko‘rinish). Uslubni Kristian Dior Ikkinchiji Jahon Urushidan so‘ng, modaga olib kirdi, o‘sha paytda hamma harbiy uslubni tavsiflovchi to‘rtburchak yelkalardan charchagan edi. Dior tomonidan taklif qildi, ko‘proq ayollarga fikrini bildirishni xohlardi. Uslub uzun bo‘yli yubkalar, aks ettirilgan bel va qomatga yopishib turishi bilan ajralib turadi. O‘sha paytlar bu mutlaqo yangi narsa edi, shuning uchun bu uslubning nomi «Nyu-luk» deb nomlandi.



Nazorat uchun savollar:

1. Uslub turlarini aytib bering.
2. Uslublar qanday jihatlari bilan boshqalaridan farqlanadi.

#### **4. Mavzu: Materialshunoslik fani. To‘qimachilik materiallarining tavsifi.**

Reja:

1. Materialshunoslik haqida tushuncha.
2. Tikuv buyumlarini tayyorlash uchun materiallarning turlari.

Respublikamiz iqtisodiyotining rivojlanishidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri to‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlarini yetarli darajada sifatli ishlab chiqarish va uni eksport qilishdan iboratdir. Bu ma’suliyatli vazifani bajarishda materialshunoslik fanining ahamiyati katta. Materialshunoslik - to‘qimachilik materiallarining, ya’ni tola, ip, eshilgan mahsulot, gazlama, trikotaj va noto‘qima matolarining olinishi, tuzilish xossalari va shu xossalari o‘rganishda ishlatiladigan uslub va asbob-uskunalardan foydalanishni o‘rgatadigan fandir. Tikuv buyumlari materialshunosligi fani fizika, kimyo, matematika, mexanika fanlariga asoslangan holda taraqqiy etadi. To‘qimachilik mahsulotlari ishlatilmaydigan birorta sanoat tarmoqlari yo‘q. Asosiy to‘qimachilik mahsulotlari kiyim-kechak va xo‘jalikda ishlatiladi. Masalan, rivojlangan davlatlarda kiyim- kechak uchun 35-40 %, xo‘jalik maqsadlari uchun 20-25 %, texnikada 30-35 % va boshqa maqsadlar uchun 10 % gacha ishlatiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, texnikada ham to‘qimachilik mahsulotlari ko‘p ishlatilar ekan. Hozirgi yo‘nalish texnikada ishlatiladigan mahsulotlarni asosan kimyoviy tolalardan ishlab chiqarishni talab etmoqda. Tabiiy tolalar asosan kiyim-kechak uchun ishlatilmog‘i lozim. To‘qimachilik sanoatida ishlatiladigan barcha tolalar kelib chiqishi bo‘yicha ularni olish usuli va kimyoviy tarkibi bo‘yicha ikkita sinfga - tabiiy va kimyoviy tolalarga bo‘linadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida hukumatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri axolini sifatli, hamda bejirim tikuvchilik buyumlari bilan ta’minlashdir. Chunki u insonlarni atrof-muhitning turli ta’sirlaridan himoya qilishga hamda ularning go‘zalligini ta’minlashga qaratilgan. Tikuv buyumlarini tayyorlashda turli xil materiallardan foydalaniлади:

1. Asosiy materiallar - mahsulotning yuzasi va asosiy qismlari uchun. Bularga gazlama, trikotaj, noto‘qima matolar, to‘da (kompleks), sun’iy va tabiiy poyabzal, mo‘yna kabi gazlamalar kiradi.



2. Astarlik materiallar miyona (qotirma) materiallar - bortovka, tukli gazlama, kolenkor, flizelin va hokazolardan iborat.



3. Issiq tutuvchi materiallar sirasiga momiq paxta, vatin, vatinil, porolon, mo‘yna kabilar kiradi.



4. Kiyim qismlarini biriktirish materiallariga tikuv g‘altak iplari va yelim kiradi.



5. Kiyim furniturasiga tugma, picton, ilgak va hokazolar kiradi.
6. Pardoz materiallari uqa, shnur, to‘r va hokazolar bilan izohlanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Tikuvchilik materiallari nima uchun ishlab chiqariladi.
2. Tikuvchilik materiallariga qo‘yiladigan talablar.


### **5. Mavzu: To‘kimachilik tolalarining turlari.**

Reja:

1. Tolalar haqida ma’lumot.
2. Tabiiy tolalar.
3. Kimyoviy tolalar.

Tola deb, uzunligi ko‘ndalang kesimi o‘lchamidan katta bo‘lgan, ma’lum darajada egiluvchan, cho‘zilish va pishiqlik xossasiga hamda ingichkalikka ega bo‘lgan jism tushuniladi. Tolalar to‘qimachilik tarmog‘ining xomashyosi bo‘lgani uchun, ko‘p hollarda to‘qimachilik tolalari deb yuritiladi.

Jadvalda to‘qimachilik tolalarining tasniflanishi keltirilgan.



1-расм. Тўқимачилик толаларининг синтезланishi

Активация Windows

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tolalar ikki sinfga bo‘linadi - tabiiy va kimyoviy tolalar. Har ikki sinf ham ikkitadan kichik sinflarga bo‘linadi, - organik va anorganik tolalar kichik sinflarga. Tabiiy tolalarning organik kichik sinfiga kiruvchi tolalar ikkita guruxga - o‘simliklardan va jonivorlardan olinuvchi tolalarga, anorganik kichik sinfiga kiruvchisi faqatgina bitta guruxga bo‘linadi. O‘simliklardan olinuvchi tolalar uchta guruhchaga bo‘linadi - urug‘idan, poyasidan va bargidan olinuvchi. Jonivorlardan olinuvchi tolalar ikkita guruhchaga bo‘linadi - teri ustidagi jun qatlamidan olinuvchi va tola ajratuvchi bezlardan ishlab chiqariladi. Tabiiy tolalarning urug‘idan olinuvchi guruhchasiga paxta tolesi, poyasidan olinuvchi guruhchasiga - kanop, zig‘ir, kunjut va penka tolalari, bargidan olinuvchi guruhchasiga - sizal, manilla, geneken tolalari kiradi. Teri ustidagi jun qatlami guruhchasiga kiruvchi tolalarga tuya, echki, qo‘y junlari, tola ishlab chiqaruvchi guruxchasiga kiruvchi tolalarga tut, eman ipak qurti ipagi kiradi. Tabiiy tolalarning anorganik kichik sinfi, ma’danlardan olinadigan tola guruxi, togbirimalaridan ishlab chikariladigan guruxchasiga kiruvchi tola bu toshpaxtadir (asbest).

Kimyoviy tolalar xam xuddi tabiiy tolalar kabi organik va anorganik kichik sinfiga, sun’iy va sintetik guruxlarga tasniflanadi. Sun’iy tolalar guruxi gidrotsellyulozali, asetilsellyulozali va oksilli kibi guruxchaga xamda viskoza, asetat, kazein va zein kabi turlarga tasniflanadi. Sintetik tolalar guruxi ham o‘z navbatida getrozanjirli va karbozananjirli guruxchaga, undan poliamid (kapron), poliefir (lavsan), poliuretan (spandeks), poliakrilonitril (nitron), polivinilklorid (xlorin), polivinilspirt (vinilon), poliolefinli (polietilen) kabi tola turlariga tasniflanadi. Kimyoviy tolalarning anorganik kichik sinfiga kiruvchi tolalar tosh va metall birikmali guruxiga, silikatli va metalli guruxchaga va shishasimon va zarsimon tola kabi turlariga tasniflanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Tola nima?
2. Tabiiy tola tushunchasi.
3. Kimyoviy tolalarning guruhi.

## **6. Mavzu: Tabiiy tolalar va ularning xossalari.**

Reja:

1. Tabiy tola tushunchasi.
2. Tabiiy tolalarning xossalari.

**Tabiiy** tolalarga tabiatdagi organik va noorganik mayjudotlardan olinuvchi to‘qimachilik tolalari kiradi. Tabiiy organik tolalar o‘simliklarning chigiti va mevasidan (paxta, koyr, kapok), poyasidan (zig‘ir, jut, kanop va hakozalar), barglaridan (yukka, abaka, manilla) olinadi. Tabiiy organik tolalar jumlasiga qo‘y, echki, tuya va boshqa hayvonlarning terisi ustidagi tuk qoplamasidan olinuvchi jun tolalari hamda, tut va eman qurtlarining bezlari ishlab chiqaradigan tabiiy ipak kiradi.



Пахта толаси



Зинир толаси ва мато



Жут



Каноп

Havo o'tkazuvchanlik - tolaning havo o'tkazish xususiyati. Organizmning hayot faoliyatida teri sirtidan karbonat angidrid gazi, teri va turli zararli moddalar ajraladi. Shu sababli kiyim-kechak va ayniqsa ichki kiyimlar uchun ishlatiladigan tolalarning shimuvchanligi va havo o'tkazuvchanligi yaxshi bo'lishi lozim. Qishki kiyimlar uchun ishlatiladigan tolalarning issiqlikdan saqlash xossalari yaxshi bo'lishi kerak. Tolalarning gigienik xossalari, ularning kimyoviy tarkibi va tuzilishiga bog'liq. Tabiiy tolalarning gigienik xossalari sintetik tolalarnikiga qaraganda yaxshi bo'ladi. Tolalarning tashqi muhit ta'siriga qarshilik ko'rsata olishi, ya'ni yorug'lik, namlik, ter, shuningdek, ishqalanish, yuvish, kimyoviy tozalash, ho'llab dazmollah va hokazolar ta'siriga chidamliligi to'qimachilik buyumlarining to'zishga chidamliligi deyiladi.



Кўй



Туя



Эчки



Пилла курти

Актии

Nazorat uchun savollar:

1. Tabiiy tola tushunchasini izohlang.
2. Tabiiy tola nimalardan olinadi?
3. Tabiiy tolalar necha guruhga bo‘linadi?

## **7. Mavzu: Kimyoviy tolalar va ularning xossalari.**

Xuddi tabiiy tolalardek kimyoviy tolalar ham organik va noorganik moddalardan iborat bo‘ladi. Organik kimyoviy tolalar sun’iy va sintetik tolalarga bo‘linadi. Agar tola tabiatda mavjud bo‘lgan yuqori molekulali birikmalardan olinsa, u sun’iy tola deb ataladi. Agar tola olish uchun ishlatiluvchi yuqori molekulali birikmalarni oddiy moddalarni sintezlash yo‘li bilan olinsa, bunday tolalar sintetik tola deb ataladi. Sun’iy kimyoviy tolalarga sellyuloza va uning efirlaridan olinuvchi viskoza, misammiak va asetat tolalari hamda oqsil moddalardan olinuvchi kazein, zein va hokazolar kiradi. Sintetik kimyoviy tolalarning assortimenti juda keng bo‘lib, ularga poliamidlardan olinuvchi kapron, anid, enant; poliefirdan - lavsan; poliakrilonitriddan - nitron; polivinilxloriddan - xlorin; polivinil spiritidan - vinilon; poliuretandan - spandeks; poliefirdan - polipropilen, polietilen tolalari va shularga o‘xshash bir qator tolalar kiradi. Noorganik kimyoviy tolalarga metall va shishadan olinuvchi tolalar kiradi. Sun’iy tola olish mumkinligi haqidagi dastlabki fikrni XVII asrda ingliz olimi R. Guk aytgan. Lekin faqat XIX asrdagina sanoatda sun’iy ipak olishgan. Sellyuloza tolalar ichida oldin (1890 yilda) nitrat ipak, so‘ngra misammiak va viskoza ipak olingan. Birinchi jahon urushi oxirida asetat ipak olingan. Hozirgi vaqtida kimyoviy tolalar ishlab chiqarish kimyo sanoatining yiriklaridan hisoblanadi. Kimyoviy tolalar junga qaraganda ikki marta, tabiiy ipakka qaraganda 80 marta ko‘p iste’mol qilinadi. Kimyoviy tolalar sun’iy va sintetik xillarga bo‘linadi. Sun’iy tolalar ishlab chiqarishda

xom ashyo sifatida yog‘och, paxta chiqindilari, shisha, metallar va x. k., sintetik tolalar ishlab chiqarishda esa gazlar hamda toshko‘mir va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlatiladi. Sun’iy tolalarning ximiyaviy tarkibi ular olinadigan dastlabki tabiiy xom ashyoning ximiyaviy tarkibidan farq qilmaydi. Sintetik tolalar ximiyaviy sintez reaksiyalari natijasida, ya’ni past molekulyar moddalar molekulalarini yiriklashtirish va yuqori molekulyar birikmalarga aylantirish natijasida olinadi. Sun’iy tolalarni ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida paxtadan yoki daraxtlardan ajratilgan sellyuloza, hamda ba’zi bir oqsil moddalar ishlatiladi.

**Viskoza** tolalar ho‘l usulda olinadi. Bunda xom ashyo sifatida archa yog‘ochidan olinadigan yog‘och sellyulozasi ishlatiladi. Viskoza tolalardan tayyorlangan buyumlar ancha g‘ijimlanuvchan bo‘ladi.



**Polinoz** tolalar. Polinoz tola viskoza shtapel tolaning bir turi bo‘lib, xossalari jihatidan uzun tolali paxta tolalarining xossalariga yaqin turadi. Polinoz tolalarni ishlab chiqarish jarayoni oddiy viskoza tolalarni olish jarayoniga o‘xshaydi.



Ko‘ylaklik va plashlik gazlamalar, mayin trikotaj zich qalin, g‘altak iplar ishlab chiqarishda polinoz tolalardan sof holda ham, paxta bilan aralashtirib ham foydalanish mumkin. Kirishmaydigan va kam kirishadigan gazlamalar ishlab chiqarishda uzun tolali paxta o‘rniga polinoz tolalarni ishlatish mumkin. Bunday tolalardan tayyorlangan buyumlar kirishmaydi, ko‘rkam, shoyiga o‘xshab tovlanib turadi.

**Poli amid** tolalar. Eng keng tarqalgan poliamid tola — kapron. Bu tipdag‘i tolalar Germaniyada dederon, perlon, Chexoslovakiyada silon, Polshada stilon, AQIII da neylon, Italiyada lilion deb ataladi. Neylon tola MDH da anid deb yuritiladi. Kapron olishdagi dastlabki xom ashyo — benzol va fenol (tosh-ko‘mirni qayta ishlab olinadigan mahsulotlar) ni kimyo zavodlarida qayta ishlab, kaprolaktamga aylantiriladi. Anid (neylon) va enant ishlab chiqarish jarayonlari kapron ishlab chiqarishdagidan uncha farq qilmaydi.



**Poliefir tolalar.** Lavsan neftni qayta ishlash mahsulotlaridan ishlab chiqariladi. Lavsan tuzilishi va fizik-mekanikaviy xossalari jihatidan kapronga o‘xshaydi.

Lavsanning gigroskopikligi juda past. Shuning uchun gazlamalar to‘qishda lavsanni shtapel tola tarzida tabiiy va viskoza shtapel tolalarga aralashtirib ishlatiladi. Ayniqsa, uni junga aralashtirib ishlatish kengroq rasm bo‘lgan. Sof lavsan g‘altak iplar, to‘r, texnikaviy gazlamalar, sun’iy mo‘yna, gilam tuklari va x. k. uchun ishlatiladi.



Nazorat uchun savollar:

1. Kimyoviy tolalarni ishlab chiqarishda nimalardan foydalilanildi?
2. Sun’iy tolali mato-materiallar assortimentini to‘plang.

3. Kimyoviy tola nimalardan olinadi?

## 8. Mavzu: Gazlamalarning xossalari.

Reja:

1. Gazlamalarning texnologik xossalari.
2. Gazlamalarning fizik (gigienik) xossalari.
3. Gazlamaning qalinligi.
4. Gazlamaning eni.

Gazlamalarning texnologik xossalari deganda ularni bichish, tikish va ho'llash-dazmollah jarayonida ta'sir qiladigan xossalari tushuniladi.

Gazlamalarning texnologik xossalari: qirqishga qarshiligi, sirpanuvchanligi, sitiluvchanligi, o'yiluvchanligi, kirishishi, ho'llash-dazmollah jarayonida shakllanuvchanligi, choklarda iplarning suriluvchanligi kabi sifatlari tushuniladi.

Ko'pgina gazlamalarning nomi o'tgan asrlarda paydo bo'lgan, ularning ko'pchiligi chet tillardan olingan va gazlamalar ishlab chiqarilgan joy nomlaridan, atoqli otlardan, gazlama xossalari aks ettiruvchi tushunchalardan kelib chiqqan. Ba'zi nomlar ruschaga yoki

o'zbekchaga moslashgan. Ayrim nomlar hozir qo'llanilmaydi va faqat tarixiy ahamiyat kasb etadi. Ba'zi gazlamalar nomining kelib chiqishi va ma'nosi haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.



Atlas - arabchadan kelib chiqqan bo'lib, «silliq» ma'nosini bildiradi. Brokat - ko'p miqdorda zar ip qo'shib to'qilgan rangdor qalin parcha, to'qilish naqshi kashtani eslatadi (italyancha brocure- kashta tikmoq)



Velvet - inglizcha velvet - duxoba so'zidan kelib chiqqan.

Gobelen aka-uka Gobelenlarning Parijdagi manufakturasida ishlab chiqarilgan tuksiz gilam.





Damast - Damashk shahri nomidan olingan. Yirik gulli gazlama. Yevropaga Damashqdan keltirilgan. Gazlama guli va asosiy iplari yopilish joylaridan nuring har xil qaytishi tufayli naqshi bilinadi. Bunday gazlamalarning boshqa nomi - Kamchatka gazlamasi, kamka. Kamka so‘zi forschadan kelib chiqqan.



Zatrapeza - Ko‘k va oq yo‘lli zig‘ir tolali gazlama (Zatrapeznom fabrikasida ishlab chiqarilgani uchun shunday ataladi.)



Kastor - atlas yoki satin o‘rilishli, kalta quyuk tukli movut gazlama («bobr» ma’nosini bildiruvchi yunon so‘zidan olingan).



Kashemir - ko‘ylaklik jun yoki yarim jun sidirg‘a gazlama. Dastlab Kashmirda to‘kilganligi uchun shunday atalgan.




Madapolam - ich kiyimlik ip gazlama (Hindistondagi shahar nomidan olingan)



Adras - Guldor ip gazlama (Hindistondagi shahar nomidan olingan).

Makentosh (плащевка) - suv yuqmaydigan rezinalangan gazlama. Ixtirochining familiyasi bilan atalgan.



Mitkal yupqa ip gazlama (arab og'irlik birligi nomidan olingan).




Marengo - kulrang tusli qora gazlama (mebel uchun). (Italiya shimolidagi Marengo qishlog'ining nomidan olingan).



Moleskin - kuchaytirilgan satin o'rilibshli ip gazlama. Rossiyaga Angliyadan keltirilgan. Inglizcha nomi saqlanib qolgan.



Muslin - yupqa ip gazlama (Mesopotamiyadagi Mosul shahri nomidan olingan).



Nanka - sarja o'rilibshli sidirg'a ip gazlama (Xitoydagи Nankin shahri nomidan

olingan. Bu yerda u Sarg‘ish yoki sariq paxta tolasidan to‘qilgan).



Parcha - oltin yoki kumush rangli zar iplar qo‘sib to‘qilgan qalin guldor shoyi gazlama (forscha «bo‘lak» ma’nosini bildiradi).

Pike - bo‘rtma naqshli, ko‘p o‘rilib shoyi gazlama yoki shoyi gazlamaning fransuzcha nomi. Dastlab Angliyada 1768 yilda ishlab chiqarilgan.



Plis - paxta tolasidan to‘qilgan o‘rtacha uzunlikdagi tukli duxobanining nemischa nomi.



Pozument - kumush yoki oltinrang to‘qima tesmanining nemischa nomi.



Raventux - zig'ir tolali siyrak polotno.  
Nomi gollandchadan olingan. Ilgari jut  
tolasidan to'qilgan qalin gazlama shunday  
atalgan.

Reps - har xil kalava iplardan bo'rtma  
yo'lli qilib to'qilgan pishiq qalin gazlamaning  
golandcha nomi.



Sarja - shoyi, jun yoki ip  
gazlama ( fransuzcha sarge, lotincha  
serium - shoyi so'zining buzilgani.)



Satin - yupqa qalin zich gazlama  
(Xitoy porti Tsetung nomidan olingan).



Chit - Bosma guli mitkal, guldor ip gazlama. Sanskrit tilidan kelib chiqqan



Tafta - bosma gulli mitkal, guldor ip gazlama. Sanskrit tilidan kelib chiqqan.

Tvid - sarja o‘rilishli yengil zich to‘qilgan kiyimlik jun gazlamaning inglizcha nomi.



Triko — dioganal o‘rilishli jun gazlama. Fransuzchadan kelib chiqqan.



Flanel - tarash yo‘li bilan sirtiga tuklar chiqarilgan yengil jun yoki ip gazlamaning fransuzcha nomi.



Nazorat uchun savollar:

1. Qaysi gazlamalar eng ko‘p ishlataladi?
2. Gazlamalarning nomlanishini tushuntirib bering.

## **9. Mavzu: Kiyim kompozitsiyasi to‘g‘risida tushuncha. Kostyum.**

Reja:

1. Kiyimning asosiy tushunchalari.
2. Kostym kompozitsiyasi asoslari.

«Kostyum» va «kiyim» tushunchalarini odamga, uning gavdasiga va qiyofasiga nisbatan ko‘rib chiqish kerak. Bu ikkala tushuncha odatda bir-biriga juda o‘xshash bo‘lsa ham, aslida ular boshqa-boshqa ma’noni bildiradi. Kiyim - bu materiallarning odam tanasidagi qobiq sistemasi bo‘lib, tanani iqlimning salbiy ta’siridan saqlaydi va odamning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi. Kostyum - bu kiyim qismlarining muayyan obrazli-badiiy sistemasi va bu qismlarni insonning individual obrazini yoki ijtimoiy gruppasini harakterlovchi, karor topgan yoki tashkil topgan prinsiplarga asosan yaratilgan, muayyan tarixiy bosqichda erishilgan ma’lum texnik, ilmiy va madaniy yutuqlarni aks ettiruvchi kiyib yurish tarzi. Kiyim, bosh kiyim, poyabzal predmetlarining, qo‘srimchalar va bezaklarning yig‘indisi, shuningdek soch turmagi va grim—bularning hammasi birgalikda kostyumi tashkil etadi. Odatda, erkaklar va ayollar kiyimining pidjak va shimdan yoki jaket va yubkadan iborat ma’lum bir turi ham kostyum deb ataladi. Qo‘srimchalar kostyumga tugal ko‘rinishini beradi. Bularga sharf, sumka, zont, hassa, perchatkalar kiradi.

«Ko‘ylak» terminining ikkita ma’nosи bor. Birinchidan, bu bevosita badan ustidan kiyiladigan ich kiyimni (ich kiyim va poyafzaldan tashqari) bildirsа, ikkinchidan, ich kiyim ustidan kiyiladigan yengil kiyim. Bundan tashqari ayollarning eng keng tarqalgan kiyim turi ham ko‘ylak deyiladi. Kiyim-kechak — bu ma’lum vazifaga mo‘ljallanganlikni ifoda etuvchi detallar harakteriga binoan sinchiklab tanlangan, kosmetika va prichyoska bilan qo‘silib, kostyumi to‘ldiruvchi va bezovchi predmetlar bilan birlashgan kiyim. Nimaga mo‘ljallanganiga qarab kiyim-kechak kishilik, kechalik, yo‘l-bop va hokazo bo‘lishi mumkin.

Garnitur — bu odatda aynan bir tur materialdan tayyorlanib, ma’lum bir nimaga mo‘ljallangan bir sidra predmetlar yig‘indisi (ich kiyim garnituri, zargarlik buyumlari garnituri va hokazo).

Garderob — bu bir kator hollarda zarur bo‘lgan bir sidra kiyim komplektlari va kostyumi to‘ldiruvchi boshqa qo‘srimcha predmetlar, ya’ni bir kishining va butun oila a’zolari hamma kiyimlarining yig‘indisi. Birga kiyiladigan buyumlarga qarab, garderob, odatda, bahorgi-kuzgi, yozgi va qishki bo‘ladi. Mohirlik bilan sinchiklab tanlangan shaxsiy garderob turli hollarga mo‘ljallangan komplektlar va ansamblarning butun bir qator chiroyli, uyg‘unlashgan mujassamligini tuzish imkonini beradi. Komplekt — bir xil, yoki har xil materialdan tayyorlangan, nimaga mo‘ljallangani va uslub hal etilish umumiyo bo‘lgan to‘la bir sidra buyumlar to‘plami; komplektdagi ayrim buyumlarni mo‘ljallanganligi va uslub hal etilishi o‘xshash boshqa buyumlarga almashtirish mumkin. Komplekt — bu ochiq sistema bo‘lib, ayrim buyumlarni unga qo‘sish va undan olish mumkin.

Ansambl — kostyuming muayyan badiiy uslub birligiga ega bo‘lgan hamma qismlarining yig‘indisidir. Ansambl o‘zaro mustahkam birlikni bo‘linmaslikni bildiradi. Ansambl qismlarining o‘zaro qat’iyan bo‘ysunganligi sababli inson ob-razini va davrni eng to‘liq ifoda etishdek maxsus xususiyatga ega bo‘ladi. Ansambl yagona kompozitsion mo‘ljalga binoan; yaratilib, undagi hamma qismlar o‘zaro moslangan va yagona maqsadga itoat etgan bo‘ladi. Ko‘p qismlilik va ko‘p qavatlilik, o‘zaro bog‘liqlikning qat’iy sistemasi va hamma qismlarini kiyish shart ekanligi ansambl uchun harakterlidir. Ansambl — bu biron qismini olib tashlab bo‘lmaydigan va biron boshqa qism qo‘sib bo‘lmaydigan yopiq sistema.

Nabor — umumiy vazifa ado etuvchi bir qancha buyumlar; unda material bilan uslub birligi bo‘lishi shart emas (bolalarining ich kiyim nabori).

« Model » so‘zi, kiyimga nisbatan ko‘rinishi, shakli, materiali, bezagi yoki boshqa sifatlari yangicha bo‘lgan kiyim namunasini bildirib, keyinchalik tikuvchilik fabrikalarida, ateda yoki uyda shunga qarab kiyimlar tikilgan. Bir nomli kiyim gruppasiagi shakl, bichim va boshqa xususiyatlar farqini fason deyiladi. Fason kiyim modelining o‘ziga xos xususiyatlari yig‘indisini bildiradi.

Kolleksiya - obrazli yechimi, uslubi, konstruksiyasi, shakli va materiallar strukturasining yagonaligi asosida qurilgan, vazifasi turlicha bo‘lgan modellar seriyasi. Kolleksiya faqat bir mavsumning barcha assortimentini yoki hamma buyumlarini qamrab olgan bo‘lishi mumkin.

**Kostyum kompozitsiyasi asoslari.** Kiyimning modellarini loyihalashdan uni badiiy hal etish masalalari «Kostyumin maxsus kompozitsiyasi» darslarida o‘tiladi.



Kompozitsiya — badiiy asar shaklining barcha elementlarini mazkur asarning obrazli ‘oyaviy-badiiy mazmunini ifoda etuvchi uzviy bir butunlikka birlashtirish.

Xalqning tarixiy o‘tmishi va hozirgi jamiyat hayoti, atrof-tabiatning xilma xilligi, tarixiy kostyumlar va xalq kostyumlarining boyligi, badiiy adabiyot, muzika, kino, teatr va xokazolar hozirgi zamon rassomi ijodining manbalari bo‘lib xizmat qiladi. Rassom o‘ylarini yetishtirishga va konkretlashtirishga yordam beradigan ayrim motivlardai foydalanib, ana shu manbalardan o‘z ‘oyalari va obrazlarini to‘plab boradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Kompozitsyaning asosiy tushunchalariga nimalar kiradi?
2. Kiyimning vazifalari nimalardan iborat?
3. Kompozitsiya tushunchasi nimani anglatadi?

## 10. Mavzu: Siluet.

Reja:

1. Siluet haqida tushuncha.
2. Siluetning tasnifi.

Kostyum yaratayotganda uning nimaga mo‘ljallanganligini va qanday sharoitda ishlatalishini bilish kerak. Kostyum qulay, ishbop va chiroqli bo‘lishi kerak. Shuning uchun

kastyumning shakli konstruktiv hal etilishi, materiallarning tanlanishi, bezaklari va rangi uning asosiy vazifalariga, ya’ni estetik va amaliy vazifalariga itoat etgan bo‘ladi. Kiyim shaklining tekislikka tushirilgan eng ifodali proeksiyasini kostyumning silueti deb ataladigan bo‘lgan. Odatda kostyum shaklini asosan frontal siluetlar va kamroq paytlarda profil siluetlar harakterlaydi. Siluet ma’lum davr moboynida modada yuz bergan harakterli o‘zgarishlarini umumiylar tarizda aniqlash imkonini beradi. Siluetlarni quyidagicha sinflash mumkin: gavdaga yopishib turish darajasiga binoan: yopishib turadigan,



yopishib turadigan,



sal yopishib turadigan,



bemalol turadigan;



bel chizig‘ining xolatiga binoan –bel chizig‘i tabiiy joyda;



bel chizig‘i yuqoriroqda ko‘tarilgan;



bel chizig‘i pastroq tushgan;



bel chizig‘i sezilmaydigan;



kiyim uzunligi tizzagacha;




«mini» -tizzadan yuqori turadigan; «midi» boldirlar yarmigacha tushadigan



«maksi»-to‘piqqacha tushadigan uzun ko‘rinishlarda bo‘ladi.

Aniqroq tasavvur etish uchun siluetni geometrik shakllarga (to‘g‘ri to‘rtburchak, tropesiya, ovalga) nisbatan qaraladi, uni alohida predmetlarga: bo‘chkachaga, urchuqqa va hokazo; o‘simliklarga: X –simon, A, D, T va hokazolarga taqqoslanadi.



Nazorat uchun savollar:


1. Siluetni nima ifodalaydi?
2. Siluetlarning turlari qanday?

## 11. Mavzu: Kiyimning proporsiyalari.

Reja:

1. Proporsiyalar haqida ma’lumot.
2. “Oltin kesim” tushunchasi haqida.

Kiyimda proporsiya juda katta rol o‘ynaydi. Proporsiyalar — bu kostyum qismlarining o‘lchamlariga binoan bir-biriga va odam gavdasiga taqqoslangan nisbatlari. Kiyimning bo‘yi, eni ko‘krak qismi bilan yubkasining, yenglarining, yoqasining, bosh kiyimining, detallarining hajmi, uzunligi, kostyum kiyilgan qad-qomatni ko‘rib idrok etishga, uning o‘lchamlari monandligini fikran baholashga ta’sir ko‘rsatadi. Inson gavdasining tabiiy proporsiyalariga yaqin bo‘lgan nisbatlar eng chiroyli, mukammal, «to‘g‘ri» ko‘rinadi. Ma’lumki, boshning uzunligi kishi bo‘yining uzunligiga 8 martacha joylashadi, bel chizig‘i esa tanani taxminan 3:5 nisbatda ikkiga bo‘ladi.



Turli yo'llar bilan tabiatdagi, san'atdagi monandlikni izlagan qadimgi rassomlar, arxitektorlar, olimlarning tadqiqot, chizma, hisoblashlarida «oltin kesim» tushunchasini uchratamiz; bu tushuncha matematik yo'lida  $3:5$ ,  $5:8$ ,  $8:13$ ,  $13:21$  va hokazo sonlar nisbati tarzida ifoda etiladi. Bunda kichik qism katta qismga xuddi katta qism butun qismga nisbati kabi bo'ladi. «Oltin kesim» proporsiyalari eng yaxshi arxitektura asarlarida takrorlanadi, jonli tabiatde ko'p marta uchraydi — ya'ni qonuniy, doimiy hisoblanadi. Odam figurasi orasida ham mana shu proporsiyalar (alohida qismlar nisbati) takrorlangani eng proporsional hisoblanadi. Kostyumda ham xuddi shunday (rasm).



Kostyumda tabiiy proporsiyalar ham, ataylab buzilgan proporsiyalar ham ishlatish mumkin. Bu yerda turli variantlarni bat afsil ko'rib chiqishning iloji yo'q, chunki buning uchun kompozitsiya qonunlarini jiddiy o'r ganish kerak. Tabiiy proporsiyalar, odatda, har qanday figura uchun «foydali» ekanini yodda saqlash kerak; ayni vaqtda kiydirib ko'rish vaqtida biron chiziqni sal nari-beri surib, «izlab ko'rib» (masalan, bel chizig'ini ozroq ko'tarish yoki tushirish, yelkalarni toraytirish yoki kengaytirish, ko'ylak, yeng uzunligini, yoqa, cho'ntaklar, bel bog' o'lchamini sal o'zgartirish mumkin) gavda tuzilishi kamchiliklarini «tuzatish» mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Kiyimda proporsiya qanday rol o'ynaydi?
2. «Oltin kesim» tushunchasi nimani anglatadi.

## **12. Mavzu: Kiyim va chiziqlar.**

Reja:

1. Siluet chiziqlar.
2. Konstruktiv chiziqlar.
3. Dekorativ chiziqlar.

Kostyum silueti siluet chiziqlari bilan chegaralangan bo'ladi. Siluet ichida turli vazifadagi chiziqlar o'tkaziladi: fason yoki model chiziqlari, albatta, siluet chiziqlar bilan bog'liq bo'lib, siluetga bo'ysunadi, uning xususiyatlari ko'zga tashlanib turadi (masalan, o'tkazma yoki «reglan» yeng chizig'i, yoqa yoki adip qaytarmasi chizig'i, qirqma bel chizig'i); konstruktiv chiziqlar yordamida kostyuming fazodagi hajmiy shakli yaratilib, bu mo'ljallangan siluetni yaratish, kostyuming gavdada yaxshi turishi uchun zarur; dekorativ chiziqlar bezash uchun, kostyuminni ko'rib idrok etish uchun eng muhim qismlarini alohida bo'rttirib ko'rsatish uchun xizmat qiladi (koketkalar, cho'ntaklar, taxlamalar, draplash, qo'yma burmalar va hokazo);

dekorativ chiziqlar konstruktiv chiziqlarga bog‘liq, ko‘pincha ular bilan qo‘silib ketadi. Ichki chiziqlar kostyum kiygan qad-qomatni ko‘rib idrok qilinishini o‘zgartirish xususiyatiga ega. Masalan, bo‘ylama tushgan choclar gavdaning ortiqcha kengligini o‘g‘irlab, «bo‘lib tashlab», uni «uzaytiradi».



Gorizontal qirqimlar, koketkalar, quyma burmalar massivroq, vazminroq ko‘rinish taassurotini beradi; ular bochkadagi gardish singari, o‘z turgan joyni «kengaytirganday» bo‘ladi.

Diagonal, qiya chiziqlar, ayniqsa assimetrik bo‘lsa, harakat hissini hosil qiladi.



Bunda odamning ko‘z qarashi chiziqlarning yaqinlashuvi va uzoqlashuviga ergashib, ularning yo‘nalishiga itoat eta borishi natijasida shunday bo‘lib chiqadi. XV — XIX asr tarixiy kostyumlarida ko‘plab bo‘ylama choklar bo‘lib, ular yelkalardan va yeng o‘mizidan boshlanib qisiq belga tushib, keyin esa krinolinlar yoki naysimon burmalar hosil qilib taralib ketgani bejiz emas. Shu yerga kelganda keng tarqalgan, lekin xato bir fikrni eslatib o‘tish kerak. Bu — yo‘l-yo‘l gazlamani to‘la gavdalilar uchun «uzunasiga», ozg‘in gavdalilar uchun esa «ko‘ndalangiga» bichish kerak degani. Gazlama yo‘llari bu kostyumdagi chiziqlar emas, bu haqda ko‘rinish illyuziyalarini gapirganimizda fikr yuritamiz. Chiziqlarga kelsak, ular kostyumda pala-partish emas, balki bir-biri bilan muvofiqlashib, odam gavdasining tabiiy tuzilishiga mos joylashishi kerak. Bunday «koordinatsiyalangan» chiziqlar yasash —butun bir ilm, to‘g‘rirog‘i, san’at.

Nazorat uchun savollar:

1. Siluetda joylashgan chiziqlar qanday vazifani bajaradi?
2. Asosiy chiziq guruhlari.

### **13. Mavzu: Kiyim modelini yaratishda illyuzaning o‘rni.**

Reja:

1. Kostyum kompozitsiyasida optik effektlarning o‘rni.
2. Kostyumdagi yirik yo‘llar.
3. Gavda shaklini idrok etishda illyuziyaning roli.

Kostyum kompozitsiyasini ifodalovchi vositalardan tashqari ko‘rish illyuziyalari, optik effektlar haqida ham tasavvurga ega bo‘lish kerak. Bulardan eng muhimlarini eslatib o‘tamiz. Kostyum chiziqlarining gavdaning uzunligiga va eniga, gazlama rangi va fakturasining «vazminlik» va «engillik»ka ta’siri haqida yuqorida gapirdik. Yana shuni takrorlaymizki, bo‘ylama ritmik joylashgan kamroq chiziqlar gavdani «cho‘zadi», ko‘ndalanglari — «er bag‘irlatib qo‘yadi». Lekin gazlamadagi nisbatan yirik parallel yo‘llar aksincha effekt beradi — gavdani yuqoriga (gorizontal yo‘llar) yoki eniga (vertikal yo‘llar) «cho‘zadi». Mayda zinch yo‘llar esa, odatda, bir tekis cho‘tir yuzadek ko‘rinib, chiziqqa o‘xshab ko‘rinmaydi.



Kostyumdagi yirik gorizontal yo‘llar:



Kostyumdagi yirik vertikal yo'llar:

Bo'ylama chiziqlar albatta gavda shakliga ergashgan bo'lishi kerak, ya'ni yelkalar kengligini takrorlashi, belga tomon yaqinlasha borishi, keyin yoki sal ajrala borishi (ayollar gavdasida), yoxud kengaymasa ham turg'un tayanch bo'lib turishi (erkaklarda) kerak. Chiziqlar, masalan, ruscha sarafandagi singari pastdan yuqori tomon to'plana borishi mumkin: shunda butun siluet, shuningdek chiziqlar o'rtasidagi chiziqlar bo'ylab mos keladigan «intilish» gavdani kelishgan, turg'un qilib ko'rsatadi. Agar kostyumda chiziqlar mutlaqo parallel bo'lsa, unda ular tabiiy shaklga zid keladi, ko'rinishda uni «buzadi», «shishirib yuboradi». Shuning uchun, aytaylik, cho'ntaklar qat'iy to'g'ri burchak emas, balki yuqoriga tomon (trapesiya yoki belga yopishgan siluethi pidjakda, ko'yakda) yoki pastga tomon (pastga tomon toraya borgan shimda) toraya borgan bo'lishi kerak. Lekin bichiq to'g'ri chiziqlarga yaqin bo'ladigan «safari» usulidagi erkaklar yoki ayollar ko'ylagida bunday qilishga hojat yo'q. T. V. Kozlova va boshqalarning «Kiyimni modellash va badiiy bezash» kitobida berilgan tavsiyalardan ba'zilarini keltiramiz. Bu maslahatlar asosan kattalar kiyimiga tegishli bo'lib, yuqori sinf o'quvchilariga, shuningdek onasini, opasini yangi kiyim kiydirib xursand qilmoqchi bo'lganlarga ham asqotib qolishi mumkin. Uchburchak shaklidagi elementlar gavdaning maqbul xususiyatlari va chiziqlarini bo'rttirib ko'rsatishga yordam beradi hamda nomaqbullarini yashiradi — masalan, bo'ksa kengroq bo'lsa, uni past tomonga kengaya boradigan yubka yoki keng yoyilgan yelka chiziqlari yordamida yashirsa bo'ladi. Qotmadan kelgan, bo'yi pastroq, yassi ko'krak, ingichka qo'l o'smir qiz chiroyli belbog'li, yubkasi hurpayganroq ko'ylak kiygani ma'qul. Kichkinagina yoqa va keng qisqa koketka hisobiga yelka chiziqlarini kengaytirish va ko'krakni kattalashtirish mumkin. Kostyum detallarida gavda o'lchamlari hisobga olingen bo'lishi, lekin ular juda maydalashib ketmasligi kerak, chunki mayda detallar o'smir qizni juda yosh qiz bolaga o'xshatib qo'yadi. Kichik figuraga uzun, beli yopishib turadigan jaket to'g'ri kelmaydi, unga ko'proq qisqa, beli ozroq yopishib turadigan jaket yarashadi. Ko'kraklar ezelgan yoki yassi bo'lganda hurpaygan bluzka, qisqa, yengsiz ko'ylak, palerina kiyish, qopqoqli cho'ntak ko'rinishidagi, qo'yma burma, aylanma burma turidagi bezaklardan foydalanish tavsiya etiladi.

To'la ayollar ularning xushko'rinish xususiyatlarini ko'zga tashlatadigan kostyum kiyishlari kerak. Uzun va diagonal chiziqlar to'lalikni yashiradi. Pastga tomon sal kengaya boradigan yubka ko'kraklar kattaligini muvozanatlaydi. To'la ayollarning kiyim yenglari, koketkalari, quyma burmalari, manjetlarning keng bo'lishidan qochishlari kerak. Hurpaygan yenglar, katta cho'ntaklar bo'ksalarni kengaytirib ko'rsatadi. Qattiq tortilgan keng belbog' to'lalikni bo'rttiradi; reglan yeng bunday figuraga to'g'ri kelmaydigan diagonallar hosil qiladi, juda kichik shlyapa va tashlanib turadigan uzun soch, yopishib turadigan yubka va qo'yma bezakli poyafzal yuzni, oyoqlarni kichraytirib ko'rsatadi. Daroz qotma figurali ayol qo'yma burmali va tasmali hurpaygan yubka, gofrirovka qilingan yoqali, bantli kiyim, pelerinalar, kostyumlar, keng ikki bortli palto kiygani, kontrast tuslardan (gorizontal bo'ylab), keng belbog', yoqa o'mizi «qayiqcha» qilib o'yilgan, koketkalardan foydalangani tuzuk. Yelka chizig'i kengaytirilgan, yeng o'mizi chuqur, yeng 3/4 uzunlikda yoki tirsakkacha yetmaydigan bo'lishi

kerak. Bo'y juda baland bo'lsa, kaltaroq yubka, past poshna tuqli va soyaboni keng shlyapa kiygan yaxshiroq. Yelka keng bo'lsa, tor yubka, yopishib turadigan yoqa, keng soyaboni shlyapa to'g'ri kelmaydi. Keng yubka kiyib va yoqa o'mizi U-simon o'yilgandan foydalanib, yelkalarni muvozanatlasa bo'ladi. E'tiborli joylar figuraning beo'xshavroq joylaridan chalg'itadigan qilib taqsimlanishi kerak. E'tiborli joylarning yoki ajralib turadigan yorqin detallarning figura chetlarida bo'lishi uni kengroq qilib, va, aksincha, qora qo'lqop, qora poyafzal, qora shlyapa uni uzaytirib ko'rsatadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Illyuziya tushunchasi.
2. Illyuziya guruhlari.
3. Vertikal yo'nalishni idrok qilishdagi aldanish.
4. To'ldirilgan oraliqni idrok qilishdagi aldanish.

#### **14. Mavzu: Kiyim modelini yaratishda ranglarning tutgan o'rni.**

Reja:

1. Rang xususiyatlari va birikmalari.
2. Rang qonunlari.
3. Ranglar uyg'unligi.

Rang — kostyumdagi eng ifodali vositalardan biri. U odamlarning kayfiyatiga, ahvoliga, hissiyotiga qattiq ta'sir qiladi. Odamning rangni idrok etishi atrof-tabiat sharoitida tabiiy yo'l bilan tarkib topgan bo'lib, har qanday individual xususiyatlar mavjudligiga qaramay, rangni idrok etishda ilmiy asoslangan umumiyligini qonuniyat bor. Masalan, qizil rang — Quyosh, olov, qon, hayot ramzi. Bu rang odatda quvonch, nafosat, yaxshilik, iliqlik bilan bog'liq: lekin yana tashvishni, xatarni, hayot uchun xavfni ham bildiradi. Oq rang ko'pincha yangilik, ozodalik, yoshlik ramzi, lekin sokinlikni, jonsizlik va hatto ba'zi xalqlarda motamni ham bildiradi. Qora rang fizika nuqtai nazaridan — bo'shliq, nur va rang yo'qligi; uning an'anaviy ma'nosi — hamma «tunlik», yomon, insonga dushman narsalar, g'am-g'ussa va o'lim. Boshqa ranglar ham «mazmun mohiyatiga» ega, lekin bu anchagina shartli va har xil. Kulrangning har xil tuslari, yorqin bo'limgan jigarrang-yashilroq tuslar neytral tuslar deyiladi. Agar rang tarkibiga qizil yoki sariq qo'shilgan bo'lsa — u iliq bo'lib tuyiladi, yashil va ayniqsa, ko'k «sovumlik» beradi. Ba'zi ranglar (ayniqsa, sariq rang) predmetni «turtib chiqayotganday», «yaqinroq kelayotganday» qilib, boshqalari (ayniqsa ko'k rang) esa predmetni "chechinayotganday", «uzoqlashayotganday» tarzda ko'rsatadi. Kostyum yaratilayotganda rang xususiyatlari albatta hisobga olinadi. Ochiq, sof, iliq ranglar predmetni yaqinlashtirganday va kattalashtirganday bo'lishi bilan bir vaqtida uni yengilroq qilib ko'rsatadi. To'q, sovuq ranglar uzoqlashtirish va kichiklashtirish bilan birga og'irlashtiradi ham. Kostyumda rang tanlashga oid amaliy, hayotiy masalalarni yechayotganda, ba'zi oddiy qoidalarni (rioya qilish hamma vaqt shart bo'lmasa ham) unutmaslik kerak. Har bir alohida holda amaliyot, tajriba, hatto yanglishishlar ham (bordi-yu to'g'ri saboq chiqarilsa) masalani hal qilishga yordam beradi.



Har qanday odamning tashqi ko‘rinishi, shu jumladan, badani, ko‘zi, soch tuslarining uyg‘unlashuvi bo‘ladi. Kiyimning rangi ana shu tuslarni kuchaytirganday ularni takrorlashi yoki, aksincha, ularga qarshi qo‘yilib, taqqoslanib, ularni bo‘rttirib ko‘rsatishi — lekin albatta monand qilib, ya’ni g‘ashga tegmaydigan, chiroli qilib ko‘rsatishi mumkin. Agar shaxsan o‘zingizga qandaydir rang ma’qul bo‘lsa, bu hali xuddi shu rang sizga yarashadi, degan so‘z emas. Agar do‘konlarda biron gazlama ta’bingizga yoqib qolgan bo‘lsa, uning kattakon qilib yoyilgan tarzida turganda emas, balki gavdaga tashlab ko‘rilganda, aynan o‘zingizning gavdangizga tashlab qo‘yilganda qanday ko‘rinishi hali ma’lum emas.



Hammaga to‘g‘ri kelaveradigan maslahat bo‘lmaydi. Lekin bir-biriga yaqin turgan, ya’ni o‘xshash ranglar va kontrast, qarama-qarshi ranglar mavjudlilagini hamma bilishi kerak. Masalan, sinovlardan o‘tgan quyidagi ranglar aralashmasi ko‘zga yaxshi ko‘rinadi: jigarrang — tillarang — sarg‘ish yashil; jigarrang — ochsariq — sarg‘ish oq; ko‘k — qizil — oq; qora — oq, bunga yorqin ranglar (zarg‘aldoqrang, feruza, tillarang, pushti rang) qo‘shilsa ham bo‘ladi; har xil kulranglarning oq bilan, rangdor tuslar bilan birga qo‘shilgani. Ifoda vositalarini, ayniqsa yangi modellarda izlaganda, hamma vaqt har mavsumga etakchi gamma tanlanadi. Bunda sizning kashfiyotchililingizga ham keng yo‘l ochiladi, sinab ko‘rish, fantaziya qilish imkoniyati ham, «kutilmaganlik» prinsipiga binoan ranglarni to‘q ko‘k — och yashil, bo‘tako‘zrang —

anorrang, «kolbasarang» — xantal rang kabi birga qo'shish imkoniyati ham bor! Ba'zi ranglar bir-biriga qo'shni bo'lishga «chidamaydi». Aytaylik, bir rangning iliq va sovuq tuslarini yonmayon qo'yishga — masalan, sarg'ish yashil bilan ko'kish yashilni, zarg'aldoq tusli qizil bilan to'q qizilni yonma-yon qo'yishga hojat yo'q. To'q qizil bilan sariq, zarg'aldoqrang bilan to'q qizil, sariq bilan ko'k, yashil, qizil yonma-yon turishi dag'al, g'ashga tegadigan tarzda ko'rinishi mumkin; kostyumga sariq rang umuman juda ehtiyyotlik bilan kiritilishi kerak. Ranglarning uyg'unligining mos yoki mos emasligini bilishga yordam beradigan jadvalni keltiramiz; to'g'ri, ko'p narsa har bir rangning konkret tusiga bog'liq — bunday tuslar esa juda ko'p.

### Ranglar uyg'unligi

Mutanosib ranglar	Nomutanosib ranglar
Red	Black
Blue	Green
White	Yellow
Yellow	Orange
Dark Brown	Light Blue
Light Green	Dark Brown
Light Blue	Black
Black	Red
Yellow	Grey

Yozda ayniqsa oq rang yaxshi, lekin uning «ko'rinishlari», ya'ni tuslari yana buning ustiga «yaqinlari» ham juda ko'p. Bular paxta, zig'ir toladan, jundan har xil ishlov berib olingen tabiiy tuslar. Bunday materiallar ko'proq xalq folklyor kiyim lariga da'vat etadi. Juda ko'zga tashlanadigan ola-bula, yorqin ranglarning hammasi nihoyatda ehtiyyot bo'lishni talab etadi. Birinchidan, yorqin tashqi ko'rinish, yorqin manzara, quyosh bilan birga qo'shilganda o'rinci chiqadi; ikkinchidan, kiyimdag'i, ayniqsa yirik naqsh, gul tarzidagi haddan tashqari yorqin ranglar gavdani shaklsiz qilib ko'rsatishi mumkin; uchinchidan, ular atrofdagilarni, ayniqsa ish sharoitida, ko'pincha g'ashiga tegadi. Aynan shunday yorqin ranglar ishlatayotganda me'yor hissi, nozik did talab etiladi. Bundan tashqari, yozilmagan bo'lsa ham, lekin hammaga ma'lum, yoshga qarab cheklashlar bor: yorqin, rangdor, goho sho'xchan va o'ynoqi kiyimlar yoshlarga yarashadi; katta yoshdagilar kiyimi vazminroq gammada bo'lgani ma'qul (ammo bunda qat'iy chegara yo'q).

Nazorat uchun savollar:

1. Qanday ranglar neytral hisoblanadi?
2. Rangni idrok etishni qonuniyat haqida ma'lumot bering.

### 15. Mavzu: Kiyim kompozitsiyasida bezakning ahamiyati.

Reja:

1. Kostyumda dekorativ bezak turlari.
2. Dekorativ bezaklarning ahamiyati.
3. Bezaklarni materiali va shakliga binoan guruhash.

Bezak kompozitsiyaning mustaqil elementi emas – bu qo'shimcha ziynat bo'lib, kiyimda u yo'q bo'lishi ham mumkin. Kiyim tarixining har qaysi bosqichiga o'z bezak turlari va ularni ishlatish usullari xos bo'ladi. Kiyimni modellash tajribasida ishlatiladigan bezak turlari xilma-xil bo'lib, ular kompozitsiyadagi asosiy g'oya bo'lishi yoki kostyumdagagi mo'ljallangan badiiy-obrazli niyatni kuchaytiradigan va boyitadigan bo'lishi mumkin. Bezakdan kiyim shaklini yoki uning bir qismini bo'rttirib, shaklni bo'laklarga ajratib ko'rsatish uchun foydalaniladi. Dekorativ bezakning dekorativ va konstruktiv ahamiyati (drapirovska, bo'rtma burma, mayda taxlama, gofre, plisse va hokazo), dekorativ va utilitar ahamiyati (belbog'lar, qoplama cho'ntaklar, tugmalar, furnitura va shu kabilar) va faqat dekorativ ahamiyati (kashtalar, quyma burmalar, applikatsiya va boshqalar) bo'lishi mumkin. Hozirgi son-sanoqsiz bezaklarni materiali va shakliga binoan quyidagi guruhlarga ajratsa bo'ladi:

1. Barcha turdag'i bo'rtma choklarni, taxlamalar, bo'rtma burmalar, drapirovska, plisse, gofre, bezak choc qatorlarni tikish natijasida hosil bo'ladigan bezaklar;



2. Kiyimni o'z materialidan yoki bezak gazlamadan yasalgan detallar yordamida bezash (quyma burmalar, ikki tomonlama qo'yma burmalar, volanlar, beykalar, mag'izlar, bantlar, galstuklar, xlyastiklar, patalar, pogonlar va hokazo);



3. Maxsus bezak materiallar (to‘r, tasma, popuk, lentalar, gullar va boshqalar) yordamida bezash.





4. Furnitura (tugmalar, to‘qilar, dekorativ pistonlar, blokcha pistonlar, molniyalar va boshqalar).



5. Kashta, applikatsiya, emblemalar, biser va hokazo bezaklar.

6. Boshqa materiallar (mo‘yna, charm, zamsha, trikotaj, to‘r polotno va hokazolar) yordamida bezash.



7. Kiyim detallariga bosma gul solib bezash.



Bezak turi uning joyini tanlash, kiyimning turi va nimaga mo‘ljallanganligiga, kiyim shakliga, materialning fakturasiga, jins, yosh omiliga, odam gavdasining turiga, gavdaning shaxsiy xususiyatlariga, insonning harakteriga bog‘liq holda tanlanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Kiyimda bezakning vazifasi.
2. Kiyimda bezakning ahamiyati.
3. Bezak elementlarining materiali va shakliga binoan guruhlarga bo‘linishi.

## **16. Mavzu: Kostyum kompozitsiyasida materialning xususiyatlari va fakturasi.**

Reja:

1. Materiallarning plastik, dekorativ, fizik-mexanik va gigienik xususiyatlari.
2. Materialning fakturasi.
3. Materiallarning naqsh-guli. Dekorativ motiv turlari.

#### 4. Kostyum kompozitsiyasida materialning naqsh gulidan foydalanish.

Kiyimni hajmli shakl deb qaralganda, uning qanday materialdan tikilganini bilish kerak (gazlamalar, trikotaj, mo'yna, charm, zamsha, noto'qima iateriallar, qavat gazlamalar, pylonka, yog'och, plastmassa, shisha va boshqalar). Bu materiallardan har birining o'z plastik xususiyatlari (mayinlik, osiluvchanlik, dag'allik va shu kabilar), dekorativ xususiyatlari (faktura, rang, naqsh-gul), fizik – mexanik xususiyatlari (zichlik, qayishqoqlik, cho'ziluvchanlik, kirishuvchanlik, titiluvchanlik va boshqalar) va gigienik xususiyatlari (havo o'tkazuvchanlik, nam o'tkazuvchanlik, issiq o'tkazuvchanlik va hokazo) bo'lib, shaklning harakteri va konstruktiv yechim qanday hal etilishini shu xususiyatlar belgilab beradi.



Masalan, harir, shifon gazlamalar mayin, osiluvchan, drapirovkabop bo'ladi, shuning uchun ulardan choklari minimal darajada kam, yumshoq, ovalsimon shakl yaratilishi kerak, bunda drapirovkalar, burmalar, mayin taxlamalar, klesh bichiq hisobiga shakl hosil qilinadi; yiltiroq, ko'zga tashlanib turadigan (krepsatin tipidagi) gazlamalarning drapirovkabop ekanligi yetarli darajada hajmli, gavda bo'ylab "sirpanib" osilib turadigan kiyim tikish imkonini berib, gazlamaning jimirashi uning yuqoridagi xususiyatlarini kuchaytirib ko'rsatadi; sintetika aralash jun gazlamalardan juda aniq, qat'iyan geometrik shakldagi buyumlar tikiladi.

Faktura tabiiy (mo'yna, teri, yog'och, zamsha va boshqalar) va mexanik yo'l bilan olingan hosila bo'ladi. Materiallar silliq, g'adir-budir, yaltiroq, xira, tukli va hokazo fakturali bo'lishi mumkin. Hosil bo'lgan fakturaning harakteri materialning qanday usulda (to'qimachilikda, to'r to'qish, trikotaj va hokazo) olinganiga, yuzasining bo'rtiq qismlarining baland-pastligini va iplarning material zichligini belgilaydigan chalishish harakteriga bog'liq. Sath birligiga to'g'ri keladigan faktura elementlarining katta-kichikligiga va miqdoriga qarab materiallarning yuzasi ifodaliligi jihatidan har xil bo'ladi. Har bir fakturada badiiy obraz belgilari bo'ladi. Faktura sovuqlik va iliqlik, yengillik va vazminlik va boshqa taassurotlar hosil qilishi mumkin. Faktura tanlashda mavsum, kiyimning nimaga mo'ljallanganligi, odamning jinsi, yoshi va gavda tuzilishi turi hisobga olinishi kerak. Kechqurungi bashang kiyimlarga yaltillaydigan qimmatbaho sidirg'a materiallar ishlatiladi, lekin ola-chipor materiallar bunday kiyimlarga ishlatilmaydi. Gazlamaning faktura xususiyatlari umuman shaklni va uning qismlarini idrok qilishda ko'z aldanishi paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, ko'rinishi vazmin, xira, tukli fakturalar shaklni kattalashtirib ko'rsatadi. Shaklning va umuman gavdaning idrok etilishida naqsh gulning muhim ahamiyati bor. Shaklni naqsh guldan ajratib bo'lmaydi. Hamonki shaklda naqsh gul bor ekan, demak naqsh gul shaklning zarur komponenti, bir qismi bo'lib turadi. Naqsh gulning ham kostyum singari ko'p asrli tarixi, xalqlarga, millatlarga mansubligi bor.

Materiallarning ko‘pdan-ko‘p turli gullarini o‘simlik, hayvonot olami, buyumlar, kalligrafik, fantastik, syujet, manzara, astral, abstrakt, aralash mavzulardagi dekorativ motivlar ko‘rinishida bo‘ladi. Kiyimni bichayotganda juft detallarda, vitachkalarda, choklarda rasmlar mos kelishini, detallar chokida rapport saqlanishini nazorat qilib borish kerak. Naqsh gulli materiallarda turli chiziqlar, bo‘rtma choklar, drapirovkalar, mayda detallar kam seziladigan bo‘lgani uchun, ular ifodali chiqmasligini yodda tutish kerak. Ularni ko‘rinarli qilish uchun sidirg‘a gazalamadan mag‘iz, tasma va hokazolar qo‘yib qo‘srimcha bezash kerak bo‘ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Gazlamalarning naqsh gullari turlari.
2. Kiyim kompozitsiyasida materiallar naqsh gulining roli.

## **17. Mavzu: Zamonaviy milliy liboslar.**

Reja:

1. O‘zbek milliy kiyimining tarixiy shakllanishi.
2. O‘zbek milliy kiyimining iqlim sharoiti va tabiatga monandligi.
3. Zamonaviy modaning milliy kiyimga ta’siri.

Kiyim-kechaklar o‘zbek xalqi tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, moddiy-madaniy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o‘ziga xosligini aks ettirib, etnik belgilari bilan ajralib turadi.



Kiyimlarda el-elat tarixiga borib taqaladigan an'analar, ijtimoiy munosabatlar, ma'rifiy, din va estetik shakllarning ayrim unsurlari ifodalanadi. Jamiyat turmushi, iqtisodiyoti va siyosatida bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan baravar kiyim shakllari ham o‘zgarib boradi, unda xalqning moddiy ahvoli, kishilarning didi, go‘zallik to‘g‘risidagi ideallari, xo‘jalik yuritishning o‘ziga xos jihatlari hamda oilaviy turmushning ba’zi tomonlari ham ko‘zga yaqqol tashlanadi. Xalqimizning xilma-xil, rang-barang va jozibali liboslari tarixini o‘rganishdan maqsad – yoshlarga milliy o‘zligini anglatish, o‘zbek xalqining qadimdan to hozirgi davrgacha bo‘lgan an'anaviy, betakror kiyimlarini ko‘rsatish, xalqimiz orasida saqlanib kelayotgan madaniy merosimizni aks ettirish va davomiyligini anglatishdan iboratdir.

Ayollar kiyimi. Ushbu libos XIX asr oxirlariga taluqli bo‘lib, ko‘ylak, lozim, nimcha va ro‘moldan iborat. Ko‘ylak qizil rangli guldor shoyi matodan tikilgan, to‘g‘ri bichimli, keng va uzun, etagi biroz kengaygan, yenglari to‘g‘ri va uzun. Ko‘ylakning oldi qirqimli, tik yoqali (bu yoqa «no‘g‘ay yoqa» yoki «it yoqa» deb ham atalgan), old qirqimining yuqorisida bog‘ich bilan bog‘lanadi. Ustidan nimcha (peshmat) kiyilgan. Nimchaning uzunligi tizzadan pastroqqacha tushib turadi, astarli, avrasi kimxob yoki parcha matodan, astari ip gazlamadan tikilgan. Ro‘mol ipak tolali, to‘rtburchak shaklida, chetlari popukli – «farang ro‘mol», dioganaliga buklab o‘ralgan va ustidan «tillaqosh» taqilgan. Tillaqosh – peshona bezagi bo‘lib, yupqa tilla hal yuritilgan kumush plastinkadan yasalib, pastki ziylari qosh shaklida bo‘lgan, pastida xuddi

bargakni singari osilchoqlari bo‘lgan, tillaqosh chiroyli naqshlar hamda feruza va boshqa ko‘plab rang-barang qimmatbaho toshlar («ko‘zlar») bilan bezatilgan.

Kelinchak libosi. XX asr boshlariga xos bo‘lgan bu libos ko‘ylak, lozim, kamzul va ro‘moldan tashkil topgan. Ko‘ylak to‘g‘ri bichimli, keng va uzun yengli to‘piqlarni yopib turadigan darajada uzun bo‘lib, atlas matodan tikilgan. Kamzul ko‘k guldor qalin shoyidan tikilgan, etagi tomonga kengaygan, yenglari to‘g‘ri va uzun, oldi qismida beligacha tushgan keng qaytarma yoqalari bor. Bosh kiyim – shoyi ro‘mol va ustidan «bargak» taqinchoq taqilgan.

«Bargak» (tojik.-barg, yaproq) eng qadimiy bezaklardan sanaladi, u kumushdan yasalgan va bir-biriga nozik kumush iplar bilan biriktirilgan mayda kvadrat shaklidagi yaproqchalardan iborat bo‘lib, feruza va marjonlar bilan bezatilgan, yaproqchalarining ustida besh yoki yetti rangli toshlar (yoki shishalar) o‘rnatalgan. Pastki tomonida kalta shokilalardan iborat popugi – «shingila» bo‘lib, ularning har birining uchiga kichkina tilla suvi yuritilan bargchalar osib qo‘yilgan. Bargakni peshonabog‘ ustidan taqib yurilgan. Kelinchak libosi yana «zebigardon» va sirg‘alar bilan to‘ldirilgan. Sirg‘alar kichkina qubbacha shaklida bo‘lib, 5-6 ta osilchoqlari bo‘lardi, «zebigardon» (fors. - ko‘krak bezagi) besh qator kumush zanjirlarga ilib qo‘yilgan 7 ta bezakdan iborat bo‘lib, markaziy bezagi katta bo‘lardi. Yupqa kumush tangachalar toshchalar bilan bezatilib, pastida shokilalari bo‘lgan. Oyoq kiyimi – maxsi-kavush.

Yangi tushgan kelinchak libosi. XX asr boshlarida Yangi kelinlar kiyigan ushbu libos atlasdan tikilgan ko‘ylak, lozim va ro‘moldan iborat bo‘lgan. Ko‘ylak to‘g‘ri bichimli uzun va keng qilib tikilgan, oldida tik qirqimi bo‘lib, tepasi tugmalangan. Boshida kashta bilan bezatilgan, chetlari popukli katta shoyi ro‘mol. Kelinchak uzuklar, sirg‘a va ko‘krak bezagi bo‘lgan «jevak» taqqan. Jevak besh qator marjondan iborat bo‘lib, orasida tangachalar va shokilalari bo‘lardi, shokilalari mayda marvaridlardan (arpa donalari kabi) iborat bo‘lgani uchun ham shunday atalgan ( fors. *jav* – arpa ).



Qizlar kiyimi. Bu libos XX asr boshlarida kiyilgan. Qiz bolalar ko‘ylagi «kipti» yoki «kiptakli» ko‘ylak deb atalgan. Atlas matodan tikilgan ko‘ylakning uzunligi boldirgacha tushgan va lozim bilan birga kiyilgan, yoqa o‘mizi ko‘ndalang kesilgan bo‘lib, ziyiga jiyak bilan ishlov berilgan, yenglari uzun. Qadimda qizlar 9 – 10 yoshga to‘lgunlaricha o‘g‘il bolalarniki kabi do‘ppi kiyib yurishgan, undan keyin esa ro‘mol o‘rash majburiy hisoblanagan. Ular uncha katta bo‘lmagan guldor ro‘mollar o‘rashgan, ro‘mol tagidan mayda o‘rilgan kokillari ko‘rinib turgan.

O‘rta yoshlardagi ayolning kishilik libosi. Bu libos XX asr boshlarida kiyilgan, ko‘ylak, lozim, kamzul, durra, paranji va chachvondan iborat. Ko‘ylak uzun, to‘g‘ri bichimli, keng bo‘lib guldor shoyi matodan tikilgan, tik yoqali, yenglari uzun. Ko‘ylak ustidan yo‘l-yo‘l beqasamdan tikilgan kamzul kiyilgan. Durra dioganaliga bir necha marta taxlab o‘ralgan. Taqinchoqlari sirg‘a, uzuklar va zebigardondan iborat. Ko‘chaga chiqilganda paranji va chachvon yopinish majburiy hisoblangan. Ushbu paranji muhayyar (toyvanuvchan) nimshoyi gazlama – banorasdan tikilgan, paranji va chachvonning chetlari naqshli jiyaklar bilan bezatilgan. Oyoq kiyimi maxsi-kavush bo‘lgan.

Xonpeshanabog‘. XIX – XX asrlarda Ayollar bosh kiyimi sifatida asosan ro‘mollar ishlatilgan. Qiz bolalarga 9-10 yoshidan boshlab ro‘mol o‘rathishgan. Ro‘mollar sifati, materiali, rangi va o‘ralish uslubiga qarab xilma-xil bo‘lgan. Eng ko‘p ishlatiladigan mato – doka bo‘lgan. Ayollar ro‘mollari burchaklariga kashtalar tikelgan. Kelinlar sepida 30-40 talab kashtali ro‘mollar bo‘lgan, ular bilan kelning uyini yasatishgan. Toshkentlik ayollar 2-3 nafar farzandlik bo‘lgunlaricha kashtaltalik ro‘mol o‘raganlar, undan keyin esa kashtasiz oq ro‘mol o‘rab yurishgan. Ayollar bosh kiyimlari 2ta ro‘moldan iborat edi. Katta ro‘mol dioganaliga ikki buklanib, boshga tashlangan, uchlarini old tomonga tashlab qo‘yilgan, yoshi kattaroq ayollar ro‘mol uchlarini chalishtirib yelkalariga tashlab qo‘yanlar. Katta ro‘mol ustidan kichik ro‘molni dioganaliga bir necha bor buklab o‘ralgan, bu ro‘mol «durra», «durracha», «peshonabog‘»deb atalgan.

Kuyov libosi. XX asr boshlariga xos bo‘lgan libos yaxtak, shim, «zarbof» chopon va salladan iborat. Yaxtak oq matodan tikilgan, oldi ochiq, yoqasiz, yoqa o‘mizi ikki buklangan planka bilan tikilgan va zinch qilib chok qator yuritilgan. Yaxtak ustidan belbog‘ boylangan. Chopon to‘g‘ri bichimli, etak tomonga qarab biroz kengaygan bo‘lib gul dor nimshoyi gazlamadan tikigan, chetlari qora rangli matodan mag‘iz qilingan. Do‘ppi ustidan yo‘l-yo‘l shoyi gazlamadan salsa o‘ralgan, salsa ukpar bilan bezatilgan. Oyoq kiyimi – amirkon etik bo‘lgan.

Nazorat uchun savollar:

1. O‘zbek milliy kiyimlarining tarixan shakllanishiga qanday omillar sabab bo‘lgan?
2. Bolalar kiyimlarining kattalar kiyimlariga o‘xshashligi va ulardan farqli tomonlari.

## **18. Mavzu: Yosh bolalar kiyimini ifodalaydigan omillar.**

Reja:

1. Bolalar kiyimi harakterini aniqlovchi omillar.
2. Bolalar kiyimlariga qo‘yiladigan talablar. Bolalar kiyimlari uchun ishlatiladigan materiallar.
3. Bolalar kiyimlarini yosh guruhlariga ko‘ra modellashtirish.

Yosh bolalar kiyimini harakterlaydigan omillar bir-biriga yaqin, mos keladigan omillardan iboratdir.



Bu yosh bolaning oilaviy kelib chiqish holati, ob havo sharoitlari, o'sish davrida bolalar tanasi tuzilishining o'zgarishi, modaning o'zgarishi, shuningdek ishlab chiqarish jarayoniga ham bog'liqdir. Bolalar dunyoning eng muhim asosiy qismini tashkil etganliklari sababli ularning kiyimlari ongiga juda katta ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu bilan o'sib borayotgan bolalarning tezkor, chaqqon, aqilli o'ziga ishongan, fahm-farosatlari bo'lishlariga, shuningdek kelajakda mehnatsevar bo'lishlariga ota-onalar ham katta ta'sir qiladilar. Shunday qilib yosh bolalar kiyimining to'g'ri tanlanganligi ta'lim-tarbiya ishlarida juda muhim rol uynaydi. Shuning uchun yosh bolalar kiyimini bichib-tikishda har qanday tashqi va ichki muhitlar yaxshilab o'rganib chiqishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, yosh bolalar kiyimining harakteri jamoatchilik tarbiyasiga ham bog'liq. Yosh bolalar kiyimi ayniqsa ob-havo sharoitidan kelib chiqib tikilishi kerak. Ob-havoning birdan isib yokisovub ketishi, bolalarning sog'lig'iga ta'sir qiladiki, buni nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Shimolda va sovuq o'lkalarda yashovchi yosh bolalar kiyimi vatin, sintepon va issiq mo'yna qo'yib tikilishi kerak. Bundan tashqari ustki kiyim bir necha qavatdan tikilgan issiq matodan bo'lib, uni taqilmasi va isituvchi qismlari (pelerina, bosh keyimi sovuqdan saqlashi uchun) tikilgan bo'lishi kerak. Issiq o'lkalarda yashovchi yosh bolalar kiyimi issiqlik va quyosh nurlarini tanaga o'tkazmaydigan, tanani bir me'yorda iliq yoki sovuqroq holda saqlab turadigan bo'lishi kerak. Shuningdek shaharda va qishloqda yashaydigan bolalarning kiyimlari ham ob-havosi va ijtimoiy kelib chiqilishiga qarab tikilishi kerak.

**Yosh bolalarning kiyimi va matolariga quyiladigan talablar.** Yosh bolalar kiyimlari turli xil matodan (trikotaj, sun'iy va tabiiy jundan, yupqa materiallardan, sun'iy va tabiiy zamsh va teridan tanlanadi). Ularga qo'yiladigan umumiy talablar: o'rtacha massa, badanga yoqimli bo'lishi, ochiq rangli, yengil, yumshoq, xushchaqchaqlik baxsh etuvchi, organizm uchun zarar qilmaydigan va hokazo. Gazlama va trikotaj materiallar yosh bolalar kiyimini ishlab chiqishda juda keng qo'llaniladi. Quyida gazlamaning muhim jihatlariga ko'ra tanlashni ko'rib chiqamiz: matoni loyihalashda asosiy ya'ni gigenik, estetik va fizikaviy, mexanik talablarga har jihatdan javob berishi kerak. Gazlamaning tashqi ko'rinishi, iqlim sharoitlariga javob berishiga qarab, materialga bo'lgan talablar turlichadir. Ichki kiyimli matolar (paxtali va ipakli) havoni yaxshi o'tkazadigan, yengil, yumshoq tanaga mayinlik baxsh etuvchi bo'lib, ularni och va pushti ranglarga bo'yashadi. Ustki kiyimlar matolari, qishda sovuq o'tkazmaydigan, tanaga yopishibroq turadigan, yengil va yumshoq bo'lishi kerak. Sintetik gazlamalar va boshqalar ochrang va ko'zga xush yoqadigan ranglarga bo'yaladi.



Ustki kiyim uchun issiqlik baxsh etuvchi gazlamalar (palto, kurtka) ham yengil, yumshoq tanaga yopishib turadigan, ko'pincha tuki ichiga qaratilgan mato ishlatiladi, bu bola tanasiga issiqlik beradi. Ustki kiyim matosining rangi asosan yengil va tinchlantiruvchi bo'ladi. Ko'ylak assortimenti uchun matolar xilma xil bo'ladi, mustahkam, lekin ingichka va yumshoq bo'ladi. Bu mato hujjatlashtirilganda rasmi, ranglari jihatidan turlicha bo'ladi. Kiyim gazlamasini universal

o'lchovlarda mayda va o'rtacha kattalikda oladi. Gulli gazlamalarga quyidagi talablar quyiladi: kompozitsiya sistemasi oddiy va tushunarli bo'lishi kerak, rasm kiyimga mos bo'lishi kerak, kiyim qiziqarli ishlangan bo'lishi kerak. Rasmlar asosan klassik uslubida bo'ladi (chiziqlar, kataklar) bolalar atrofidagi buyumlar rasmini bo'lishini istaydi. Ularga ashula, ertak, she'rler misoldir. Ular bolalarning fantaziyasini o'stiradi.

**Chaqaloq bolalar kiyimi.** Bunga bir yoshgacha bo'lgan bolalar kiradi. Ularning boshi katta bo'ladi, qo'llari uzun bo'ladi. Bolani bosh aylanasi, ko'krak aylanasiga teng. Yelka tengligi bo'lsa yarim aylanasiga teng bo'ladi. Tana markazi kindik qismida joylashadi. Bu yoshdag'i bolalar 6-8 oy vaqtini karavatda o'tkazadi, shuning uchun ularga oddiy, yengil, yaxshi yuviladigan, yaxshi dazmollanadigan, shu asosda o'zini xususiyatini yo'qotmaydigan kiyim kerak.



Chaqoloqning birinchi kiyimi yahtakcha, ustki kiyim, bosh kiyim va ishton bu kiyimlarning yaxshi tomoni shundaki, u erkin, oddiy bichimli, kam ishlov beriladigan va oson bezaladi. Rubashka qornini pastiga davom etadi, bola o'tirishni boshlaganida unga ishton keydiriladi. Chaqaloqning ustki kiyimi yengil, issiq, yengsiz, kapyushonli, etagi kengaygan, odatda erkin (harakat uchun) bosh kiyim ham bo'shroq bo'ladi (bolani boshi erkin harakatlanishi uchun) Gazlamalar chaqaloqqa yorug'lik, tozalik baxsh etadi. 70-yillar chaqaloqlar uchun tor kiyimlar bo'lgan. Shundan so'ng ozgina qo'shimchalar kiritila boshladи, reflar topildi. Shunday qilib chaqaloqlar kiyimi rivojlandi, uning rivojlanishi mantiqiy, utilitar va estetik zavq bera boshladи. Modellar uyida o'smirlar va bolalar kiyimlari loyihalana boshladи, kolleksiyalar tashkil etildi, unda modelerlar, konstruktorlar, muhandislar ishtirok etdi, shu qatorda vrach, o'qituvchi, turli xil tashkilotlar ham ishtirok etdi. Ular o'z malakalari bilan fikr almashdilar. Bolalar kiyimiga katta talab qo'yiladi. Ishlab chiqarish sanoatida kerakli va talab qilingan bolalar kiyimi ishlab chiqildi. Ishlab chiqarish paytida asosan estetika va modeli nazarda tutiladi. Bolalar kiyimi antrapologlarning ko'rsatmasi va chizgan konstruksiyasiga asosan ishlab chiqiladi. Sanoat usulida bolalar uchun chiroyli, har tomonlama bejirim, qulay, to'g'ri hisob-kitob qilingan, har tomonlama talabga javob beradigan qilib kiyimlar ishlab chiqiladi.

**Maktab yoshidagi bolalar kiyimlari.** Bolalar maktabga borishlari bilan ularda yangi majburiyatlar, mashg'ulotlar, yangi kun tartibi paydo bo'ladi. Bu yerda ular ongli ravishda va reja asosida bilim olishni o'zlashtirib, yangi kollektiv hayotiga moslashadilar. Jajji bolakaylar kitob, daftarlari va maktab formasini avaylash orqali maktab hayotini hurmat qilishni o'rganadilar.



Maktab o‘quvchisining garderobida maktab formasidan tashqari sport kostyumlari (stadion va sport zallaridagi mashg‘ulotlar uchun), mehnat darsi uchun ish fartuklari yoki xalatlar, uy yumushlari va o‘ynash uchun kiyimlar hamda bayramona liboslar bo‘ladi. Buyumlarning bu qadar ko‘pligidan bola bir to‘xtamga kelishi zarur. Bunda komplekt uslubida tikilgan kiyimlar unga yordam beradi. 8-10 yoshlarda bolaning qomati sekin-asta o‘zgarib, suyaklar qotib, muskullar mustahkamlanib, oyoqlar uzunlashishi qomatga o‘zgacha ko‘rk bag‘ishlaydi, qorinning chiqqani yo‘qolib, bel ko‘zga tashlanib qoladi. 10 yoshlarda qomat o‘zgarib, boshning balandligi tana uzunligiga ko‘ra 1:6 yoki 1:6,5 ga teng bo‘ladi. 7-8 yashar qizlarning kiyimlari to‘g‘ri siluetda yoki bel chizig‘idan pastga tomon kengaygan bo‘ladi, 9-10 yoshda esa qomatga nisbatan sal kengroq bo‘ladi. Qismlarning konstruksiyasi har xil. 7-8 yoshdagi qizlarning ko‘ylagi bel chizig‘ining teparov‘idan, biroq tabiiy holatiga yaqin qilib tikilgani ma’qul. 9-11 yoshli qizlarning kiyimi esa qomatga nisbatan sal kengroq bo‘lib, turli vositalar yordamida pastga qarab kengayib boradi. Ko‘ylak bel chizig‘i bo‘yicha kesmali bo‘lishi ham mumkin, bunday tipdagи ko‘ylakning old tomoni yaxlit bo‘lib, bel chizig‘i bo‘yicha ortidan yoki yonidan kesim bo‘ladi. Pastki qismi to‘g‘ri siluetda tikilgan jemper va bluzkalarning kesmasi esa bel chizig‘idan birmuncha pastroqqa tushiriladi. Ko‘ylaklarning bunday joyiga klapanlar, cho‘ntaklar, plankalar, xlyastiklar qo‘yiladi. 7-8 yoshdagi o‘g‘il bolalar kiyimlari asosan kengroq va badandan xoliroq bo‘ladi; shuningdek, 9-11 yoshdagi o‘g‘il bolalar kiyimlari uchun to‘g‘ri siluet harakterlidir, biroq yarmi tor, yarmi kenglik silueti o‘zgarmay qoladi. Bunday siluetda kurtkalar, paltolar tikiladi, to‘g‘ri siluetni esa kurtka va ko‘ylakchalarining pastki qismiga belbog‘lar, qisqichlar hamda vitochkalar qo‘yib, ko‘rimli holatga keltiriladi. Bu yoshdagi bolalar o‘zlarining bo‘sh vaqtlarida jon deb hovlida sport o‘yinlari bilan mashg‘ul bo‘ladilar, konkida, chanada, chang‘ida uchadilar va hk., shuning uchun kiyimning umumiyl shakli – holilikdir (bayramona liboslar va uy kiyimlarini ham shu tarkibga kiritish mumkin). Bu esa koketkalar, pogonlar, ustki cho‘ntaklar, klapanlar, xlyastiklardan keng miqyosda foydalanish imkonini beradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar o‘yin sifatida jamoatchilik uchun foydali ishlarni qiladilar. Shu bilan ular maktab hayotidagi katta ishlarga tayyorlanadilar. Bunda ular o‘zlarini noqulay sezmasliklari uchun ularga badanidan holi turadigan kiyimlar, ya’ni sport kiyimlari qulaydir. Bu ulardagи ruhiy toliqishni bartaraf etuvchi, ularga o‘ynash va dam olish imkonini beruvchi vositalarning biridir. Har kuni kiyiladigan kiyimlar asosan sport kiyimlari yoki shu fasondagi komplektlardan iborat bo‘lmog‘i, ularning rangi ochiq yoki rangli bo‘lishi lozim. Milliy kiyimlar bayramona uy liboslari yoki kundalik kiyimlarni tikishning manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Milliy kostyum uchun rangdor matodan foydalanish kiyimning chiroyli chiqishida muhim rol o‘ynaydi. Qizlar qo‘l mehnati bilan shug‘ullanganda, (ustozning boshchiligidagi) gulli rangdor sharfchalar, kichkina nimchalar to‘qishlari, bluzkalarga gulli kashtalar tikishlari va boshqa turli xildagi murakkab ishlarni bajarishlari mumkin. Buning uchun esa ularga rassom-modelerlarning maslahati kerak bo‘ladi.

**Yuqori sinf o‘quvchilarining kiyimlari.** Shunday qilib maktab o‘quvchilarining kiyimlari jamlanib, ahamiyatiga qarab asosiy turlarga ajratildi. Ammo bolalar turli xil tadbirlerda ishtirok etishlari munosabati bilan, ularning kiyimlari muayyan ko‘rinishga ega bo‘lishi va maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim. Endilikda (sport turi, maktab ustaxonalari, to‘garaklar va sh.k.dagi

mehnat turlari bo'yicha) maxsus kiyim-boshlarga zarurat tug'iladi. Komplekt kiyimlarni tashkillashtirish dolzARB masalaga aylanadi.



Bolalarning o'sish jarayonida harakter mujassamlanadi, ishonish qobiliyati shakllanib, o'zini jamoatning bir bo'lagiday his qila boshlaydi. Ongi o'sgan sayin aqli ham rivojlanadi. Maktab darsliklari, badiiy asarlar mutolaasi, har xil to'garaklar va sport o'yinlarida qatnashish jiddiy mashg'ulotga aylanadi. Bolaning qomati o'zgarib boradi. Tez o'sishning yangi etapi keladi: qizlarda 12-13 yoshda, o'g'il bolalarda 13-14 yoshda. Boshning balandligi gavdaning uzunligiga qarab 1:7 yoki 1:7,5 bo'ladi. Qizlarda ko'krak aylanasi paydo bo'lib, son va boldirlar kengaya boradi, bel qomati paydo bo'ladi. O'g'il bolalarda yelka kengayadi, shu sababli tos ingichkalashib, bel qomati yaqqol ko'zga tashlanadigan bo'ladi. Qo'l va oyoqlar uzunlashib, gavdaning umumiy ko'rinishi kattalarnikiga o'xshab ketadi. Qizlar uchun kiyimlar silueti to'rt qismidan iborat. Eng maqbul varianti yarmi tor, yarmi kengidir (uzunligi tizzagacha keladi), undan keyin to'g'ri siluet (sport kiyimlari kabi); qomatga mos va pastga qarab kengayib boruvchi trapesiyasimon siluetlar mavsumbop ustki kiyimlar uchun harakterlidir. O'g'il bolalar kiyimlari o'rtacha kenglikda to'g'ri siluetda tikiladi. Birinchi galda sport kiyimlariga ustki cho'ntaklar va boshqa detallar ko'yiladi. Qizlar qomati shakllanishining afzallikkleri shundaki, kompozitsiya markazini kiyimning yuqori qismida joylashtirish imkonini beradi, bu yerda turli xildagi koketkalardan sborkalar(yig'ish) va releflar yordamida zarur bo'lgan hajmni yaratish mumkin. Bo'yin kesmasi va yoqalarning shakli har xil bo'ladi. Ko'proq oddiy stoykalar va stoykali yoqalardan foydalaniladi. Yeng shakllari ham kiyimning bichimiga qarab har xil bo'ladi. Kompozitsiya markazi kiyimning bel qismida joylashishi ham mumkin. To'g'ri siluetdagi kiyimlarda, bel qismidan boshlab kengayib boruvchi yubkalarda u ozgina pastga tushgan belbog' vazifasini o'taydi. Qiz bolalar garderobiga maktab formasi, shim, yubka, bluzka, sarafan, sport kurtkasi, plash, palto va ko'yaklar kiradi. O'g'il bolalar kiyimlari o'zining sportivligi bilan kattalarning yoshlarbop kiyimlariga o'xshab ketadi. Reglan va vtach usulidagi yenglar - bunday kiyimlar bichimining asosidir. Detallarni dekorativ-konstruktiv usulda tikish keng qo'llaniladi. O'g'il bolalar garderobi maktab formasi, shim, yarimkombinezon, short, jemper, ustki ko'yak, sport kurtkasi, palto yoki yarim paltodan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'zining yuqori jamoatchilik faolligi bilan ajralib turadi. Sport musobaqalari, bayramlar, har xil kechalarning katta qismini asosan ular o'tkazadilar. Ular tayyorlagan kostyumlar zarur bo'lgan atmosferani yaratishda yordam beradi. O'quvchilar lagerlaridagi har xil tashkiliy ishlar katta qiziqish bilan o'tkaziladi. Bolalar korxona va qurilishlarda ekskursiyada bo'ladilar. Maktab ustaxonalarida turli xil ishlarni bajarishda ularga yarimkombinezonlar, ish fartuklari, chiroyli emblemali xalatlar juda qo'l keladi. Keyingi paytlarda yangi turdag'i matolar, otdelkalarning yangi xillari paydo bo'lishi

munosabati bilan bolalar kiyimlari assortimenti sezilarli darajada kengaydi: bolon mato va yupka jun matodan – kapyushonkali tikishsiz ustki nakidkalar; ikki qatli va ikki tomonlamali gazlamadan – astarsiz palto va kostyumlar; paxtadan qilingan plashbop gazlamadan, velvet, jinsi va tivitli matolardan – sport komplektlari va dam olish uchun kiyimlar; chidamli matolar va trikotajdan – sport komplektlari, charm va trikotaj bezakli shimplar, kombinezonlar, shortlar, yubkalar, gulli paypoqlar, trikotaj maykalar, sviter va jemperlar.

Nazorat uchun savollar:

1. Bolalar kiyimini ifodalovchi qanday omillar mavjud?
2. Bolalar kiyimlariga qanday talablar qo‘yiladi

## **19. Mavzu: Mulyaj metodi.**

Reja:

1. Mulyajlik metodning tarixi.
2. Mulyajlik metod tushunchasi haqida.
3. Mulyajlik metodning usullari.

XIX asrning eng oxiridan gavdaning o‘zida kiyimning, avval ko‘krak qismining shaklini yaratadigan bo‘lindi — gazlamadan taxlamalar, vitochkalar, choclar yordamida kiyim shakli «yopishtirib» chiqilar edi. Shu tarzda chiziqlarning optimal, eng yaxshi joylanishini, detallar formasi topilardi. Xatto eng o‘mizini dumaloq o‘yish ham birdan esga kelmagan, yeng o‘mizi oldin gazlamadan to‘ppa-to‘gri qilib o‘yilgan; yenglar esa kostyumning ba’zi boshqa qismlari singari, bog‘ichda bog‘lab qo‘yilar edi. Mulyaj metodi (fransuzcha moulage — qo‘yish, yopishtirish, qo‘yilma), aytaylik, murakkab bir biriga o‘xshamagan shakl draplanuvchi noyob model yaratish kerak bo‘lganda, yoki aniq individual andaza asosi tayyorlab olish uchun yoki ko‘plab ishlab chiqarish uchun tikishdan oldin yangi model maketini tekshirish uchun hozirgacha qo‘llanib keladi.



Nazorat uchun savollar:

1. Mulyajlik metod haqida tushuncha.
2. Mulyajlik metod imkoniyatlari haqida.

## 20. Mavzu: Texnik loyihalash.


Reja:

1. Hisoblash-koordinata metodining tarihi.
2. Texnik loyihalash haqida tushuncha.

Hisoblamasdan bichish metodidan toki sanoat yo‘li bilan kiyim tikishga, birinchi galda ishchilar va xizmatchilarga kerakli erkaklar kiyimi tikishga ehtiyoj paydo bo‘lguncha muvaffaqiyatli foydalanib kelindi.



Tikuvchilar ilgarilari ham odam gavdasini o‘lchab, keyin shu o‘lchamlarga binoan hisoblaganlar. Lekin hech qanday yagona sistema bo‘lmagan. Har bir tikuvchi ustozidan va o‘zining shaxsiy tajribasidan o‘rganib borgan. Odam gavdasi qismlarining o‘lchamlari bilan kiyim o‘lchamlari orasida muayyan bog‘liqlik borligi aniq bo‘lib qolgandan keyin, buning qonuniyatini topishga, formulasini chiqarishga harakat qildilar. Lekin amaliy tajribaga asoslangan «sistemalar» ilmiy asossiz bo‘lib, goho bir-biriga zid bo‘lib qolar va yarlaqasa kustar usulda yakka tartibda kiyim tikishga yarashi mumkin bo‘lib, sanoat ishlab chiqarishiga yaramas edi. Hisoblash-koordinata sistemasi bunday sistemalardan eng takomillashgani hisoblanadi. Har qanday buyumni tikishga, ya’ni uni bichishga, unga texnologik ishlov berishga kirishishdan oldin birinchidan, uning badiiy loyihasini, sodda qilib aytganda, eskizini yaratish kerak,— bu bosqichga badiiy modellash deyiladi: ikkinchidan, asosiy loyihani, soddarog‘i asosni hisoblash va chizish kerak, buni loyihalash deyiladi; uchinchidan, hisoblashlar va maket yasash yo‘li bilan taxlamalarni, burmalar, koketkalar, cho‘ntaklar, qirqmalarni va hokazo ishlab chiqish kerak,— bunga texnik modellash deyiladi. Bu ishlarning birinchi qismini odatda modeler-rassomlar, so‘nggi ikkitasini esa konstrukturlar bajaradilar (ularni ko‘pincha konstruktur-rassomlar deyishadi). Ular bir-birlarining ishini yaxshi bilishlari va tushunishlari kerak, chunki modelerlar, konstrukturlar va texnologlarning mehnati o‘zaro bog‘liq va umumiyligi shuning pirovard natijasi uchun birdek muhim.



Ateleda bichuvchining o‘zi modeler-rassom bilan loyihalashning ishini bajaraveradi, u texnologik jarayonning hammasini ham biladi, lekin texnologik operatsiyalarni ko‘klovchi, qo‘l ishlarni bajaruvchi, motorchi, dazmolchi degan maxsus ustalar bajaradilar. Uy sharoitida rassom ham, loyihalovchi ham, texnolog ham o‘zingizsiz. Shuning uchun ishning barcha bosqichlariga — model tanlash va yaratishga, hisoblashga, bichishga va ishlov berishga to‘la mas’uliyat bilan qarashingiz kerak.


Nazorat uchun savollar:

1. Texnik loyihalashning prinsiplari.
2. Texnik loyihalash imkoniyatlari.

## **21. Mavzu: Gavdadan o‘lcham olish.**

Reja:

1. Antropometrik tekshirishlar haqida.
2. Antropometrik nuqtalar.
3. O‘lchov gavdaning prinsiplari.



Ko‘plab ishlab chiqariladigan kiyimlarni loyihalash va asosiy bazalarni ishlab chiqish uchun maishiy xizmat tizimidagi loyihachiga standart jussalar, ya’ni mamlakatning jami

aholisiga xos jussalar o‘lchamining mukammal harakteristikasi kerak bo‘ladi. Bu ma’lumotlarni antropometrik tekshirish, ya’ni kishining gavdasini va uning qismlarini o‘lchash yo‘li bilan hosil qilish mumkin. Bu ish antropometriya deb ataladi. Antropometrik tekshirishlar vaqtida gavdaning muayyan nuqtalari – antropometrik nuqtalar oralig‘i yoki yumshoq gazlamada aniq bilinib, ko‘rinib turadigan chegaralar, teridagi o‘ziga xos nuqtalar bo‘yicha o‘lchanadi. O‘lchov belgilarini hosil qilish uchun quyidagi antropometrik nuqtalardan foydalaniladi:

- boshning eng yuqori baland nuqtasi;
- bo‘yindagi 7-bo‘yin umurtqasining holati;
- bo‘yin asosidagi nuqta;
- o‘mrov nuqtasi (bo‘yin asosidan o‘tgan chiziqdida old qismda bo‘yin chuqurchasi nuqtasi);
- yelka nuqtasi;
- qo‘ltiq chuqurligining ort burchagi nuqtasi;
- qo‘ltiq chuqurligining old burchagi nuqtasi;
- ko‘krakning yuqori nuqtasi (ko‘krak bezlarining uchi);
- kurak nuqtasi;
- bel nuqtasi (belning eng ingichka yeridan gorizontal o‘tganda umurtqa pog‘onasining kesishgan nuqtasi);
- qorinning turtib chiqqan nuqtasi;
- dumbaning turtib chiqqan nuqtasi;
- tizza nuqtasi (tizzaning eng yuqoriga ko‘tarilgan markaz nuqtasi);
- to‘piq nuqtasi; – tirsak nuqtasi (tirsak bukilganda chiqib turgan nuqtasi);
- bilak nuqtasi (bilakning eng ingichka yeridan o‘tgan chiziqdida ko‘tarilib turgan nuqtasi).

Hozirgi kunda kiyim ishlab chiqarish uchun aniq injenerlik hisobi asos bo‘lishi kerak. Bu faqat fabrikada tikiladigan kiyimlargagina emas, balki siz o‘zingiz, o‘z qo‘lingiz bilan tikadigan eng birinchi, eng oddiy kiyim-kechakka ham taluqli. Buning uchun santimetrlı lenta olib, o‘z gavdangizni yoki kiyim tikmoqchi bo‘lgan kishining gavdasini o‘lchashingiz kerak. Bu ishni bajarayotganda odam tovonlarini juftlab, ikkala oyog‘ida; gavdani tabiiy holatda bo‘sh qo‘yib; qo‘llarini tushirib, tinch turishi kerak. O‘lchayotganda tor futbolka ustidan emas, balki gavdaga yopishib turmaydigan ich kiyim, masalan kiyim ustidan o‘lchanadi. O‘lchashni boshlashdan oldin gavdada asosiy hisoblash nuqtalari — bel chizig‘i va boshqalar belgilab olinadi. Aylana o‘lchamlari to‘la o‘lchanadi, lekin bu o‘lchamning yarmi (elka, bilak, panja aylanasidan, yelka qiyamasining kengligidan tashqari) yoziladi. Uzunlik o‘lchamlari to‘la yoziladi. Razmer belgilari qisqartirib: aylana — A, yarim aylana — YaA, uzunlik — U, kenglik — K, balandlik — B deb yoziladi.

#### O‘lchov aylanasi

Nº	Razmer belgilari	Qisqartmasi
1	Bosh aylanasi	BoshA
2	Bilak aylanasi	BA
3	Son aylanasi	SA
4	Tizza aylanasi	TA
5	Qo‘l aylanasi	QA

Yarim aylana o‘lchovlari (o‘lchov yarmi yoziladi).

Nº	Razmer belgilari	Qisqartmasi
1	Bo‘yin yarim aylanasi	BnYaA
2	Ko‘krak yarim aylanasi	KYaAI
3	Ko‘krak yarim aylanasi	KYaAII

Kiyim yelka chokining bo‘yin asosi yonidagi nuqtasiga va qo‘l tanaga ulanadigan joydag‘i yelka nuqtasi vaziyatiga alohida ahamiyat berish kerak, chunki ko‘p o‘lchamlar shu nuqtalardan boshlanib, yana shu nuqtalarda tugallanadi. Bu nuqtalarning o‘rni o‘zgarmas bo‘lishi kerak, aks holda o‘lcham (razmer) kattaligi xato chiqib qoladi. Gavdani o‘lchashdan oldin hech narsani

esdan chiqarmay to‘gri o‘lchash uchun, o‘lcham belgilari ro‘yxati yozilgan qog‘oz tayyorlab olishni maslahat beramiz.


### Nazorat uchun savollar:

1. O‘lchov gavdaning qaysi tomonidan olinadi?
  2. Uzunlik va aylana o‘lchovlari qanday yoziladi?
  3. O‘lchov nima bilan amalga oshiriladi?

## **22. Mavzu: Odam qomatini o‘lchash usullari.**

Reja:

1. Odam gavdasini o'lchash.
  2. O'lchash usullari.



## Odam gavdasini o'Ichash

Razmerning shartli belgisi	Razmer belgisining nomi	O'lchash usuli
Sb	Bo'yin yarim aylanasi	Ettinchi bo'yin umurtqasi va old qism bo'yin chuqurchasi orqali bo'yin asosi bo'ylab o'lchanadi
C k1	Ko'krakning birinchi yarim aylanasi	Santimetrl lenta gavda ort qismida kuraklar bo'ylab qo'ltiq chuqurligining ort tomon burchaklari balandligidan gorizontal, old qismida —ko'krak bezlaridan yuqorida o'tadi
C k2	Ko'krakning ikkinchi yarim aylanasi	Gavdaning ort qismida santimetrl lenta C k2 holatdagidek qoladi; old qismida — ko'krak bezlarining turtib chiqqan nuqtalari bo'ylab o'tadi
S bel	Bel yarim aylanasi	Bel chizig'i ustidan tasma bo'ylab gorizontal o'lchanadi

Sbo'k	Bo'ksa yarim aylanasi	Dumbaning turtib chikkan nuqtalaridan gorizontal o'lchanadi; gavdaning old qismida qoriniing turtib chikishi hisobga olinadi (chizg'ich qo'yib, yoki santimetrli lentani gavdadan 1 — 1,5 sm kochirib tutashtiriladi). Gavdaga yopishib turadigan shim uchun qorinning turtib chiqishi hisobga olinmasa ham bo'ladi.
S k	Ko'krak bezlarining markazi	Ko'krak uchlari orasidan gorizontal bo'y lab o'lchanadi. O'lcham miqdorining yarmi yoziladi
Shk	Ko'krak kengligi	Ko'krak bezlaridan yukori qo'litiq chukurligining old tomon burchaklari orasida gorizontal o'lchanadi. O'lcham kattaligining yarmi yoziladi.
Shor	Gavda ort qismining kengligi	Kuraklar bo'y lab ko'ltik chukurligining ort tomoni burchaklari balandligidan gorizontal o'lchanadi. O'lcham kattaligining yarmi yoziladi
Shel	Elkaning qiyama kengligi	Bo'yin asosidan yelka nuqtasigacha o'lchanadi
Dor	Gavda ort qismining uzunligi	Bel o'rtasidan yettinchi bo'yin umurtqasigacha vertikal o'lchanadi
Dor.bl.	Gavda ort qismining belgacha uzunligi	Kuraklarning turtib chiqqan nuqtalaridan umurtqaga parallel (undan 7—8 sm) oraliqda qilib, bo'yin asosi yonidagi loyihalanadigan yelka chokining eng yuqori nuqtasigacha vertikal o'lchanadi
Vk	Ko'krak balandligi	Loyihalanadigan yelka chokidan ko'krak bezining eng yuqori nuqtasigacha o'lchanadi
D o l . b l .	Gavda old qismining belgacha uzunligi	Oldingi o'lcham bilan birga belda gorizontal joylashgan rezinkagacha o'lchanadi
V ye l . k	Elka qiyamasining balandligi	Bel chizig'i umurtqa chizig'i bilan kesishgan nuqtasidan yelka nuqtasigacha o'lchanadi
Dyu	Yubka uzunligi	Beldan istalgan uzunlik darajasigacha vertikal bo'y lab o'lchanadi
Dsh	Shim uzunligi	Beldan istalgan uzunlik darajasigacha vertikal o'lchanadi

Dk	Kiyim uzunligi	Loyihalanadigan yelka chokidan uzunlik darajasigacha umurtqa bo‘ylab; belga yopishib turadigan kiyimlarda bel bukilishini hisobga olib o‘lchanadi (Dk ikkita o‘lchanidan iborat bo‘lishi mumkin; Dor.b.l+Dyu)
Vor.o‘	Ort qismining yeng o‘miz balandligi	Bo‘yin asosi yonida loyihalanadigan yelka chokining eng yukori nuqtasidan, qo‘ltiq chuqurligining ort tomon burchaklari darajasida o‘tadigan gorizontalgacha vertikal o‘lchanadi
Deng	Eng uzunligi	Elka nuqtasidan sal bukilgan tirsak orqali bilakkacha o‘lchanadi
Oe	Elka aylanasi	Qo‘ltiq chuqurligi darajasida gorizontal o‘lchanadi
Obil.	Bilak aylanasi	Panja bilakka ulanadigan joydan o‘lchanadi
Opn.	Panja aylanasi	Panjaning eng keng joyidan o‘lchanadi
V b o‘ k	Bo‘ksa balandligi	O‘tirgan holatda bel darajasidan stulgacha yon tomon bo‘ylab vertikal o‘lchanadi

O‘lcham Sk1ga binoan kiyim razmeri aniqlanadi, razmerlar orasidagi farq — 2 sm bo‘ladi (42, 44, 46, 48 va h. k.). Bo‘ylar orasidagi farq — 6 sm bo‘ladi (146, 152, 158, 164, 170).

Nazorat uchun savollar:

1. O‘lchov nima bilan amalga oshiriladi?
2. Gavdadan olingen o‘lchovlar necha turga bo‘linadi?
3. Qaysi o‘lchamga binoan kiyim razmeri aniqlanadi?

### 23. Mavzu: Kiyimni loyixalashda ishlatiladigan qo‘srimchalar.

Reja:

1. Qo‘srimchalarning turlari.
2. Qo‘srimchalarning jadvallari.

Kiyim gavda yuzasining shaklini to‘la takrorlamaydi va gavdaning u yoki bu joylariga turlicha yopishib turadi. Kiyim qay darajada gavdaga yopishib turishiga qaramay, uning ichki o‘lchamlari odam gavdasining o‘lchamlaridan katta bo‘ladi. Shuning uchun kiyim loyihasi asosining chizmasini tuzish uchun gavda o‘lchamlarining o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Kiyim ichki o‘lchamlarining gavda o‘lchamlaridan farqining miqdori qo‘srimcha deyiladi va “Q” harfi bilan belgilanadi. Qo‘srimchalar nimaga mo‘ljallanganiga qarab zarur bo‘lgan minimal (texnik) “Qtex” va konstruktiv-dekorativ – “Qkd” qo‘srimchalarga bo‘linadi. “Qtex” – qo‘srimcha bemalol harakat qilishi, bemalol nafas olishni ta’minlaydi, gazlama tana yuzasi bilan kiyimning

ichki yuzasi orasida havo qatlami hosil qilish imkonini beradi. Texnik qo'shimcha o'zi 4 ga bo'linadi:

- minimal qo'shimcha;
- kiyim qavati uchun;
- erkin harakatlanish uchun;
- texnologik.

Minimal qo'shimchada odamning qon aylanishi, nafas olishi, ovqat hazm bo'lishi hisobga olinadi. Kiyim qavati uchun qo'shimchada asosan ustki kiyimlar uchun ichidan necha qavat kiyilishini hisobga olgan holda bo'shliq beriladi. Erkin harakatlanish uchun qo'shimchada asosan kiyimni qaerda kiyilishini hisobga olgan holda olinadi, ya'ni kiyimning vazifasiga, assortimentiga qaraladi. Texnologik qo'shimchada kiyimni tayyorlash jarayonida uning gazlamasi turiga, qalinligiga qarab ishlov berilishiga, ya'ni qotirmalar bilan ishlov berish hisobga olinadi. Konstruktiv-dekorativ qo'shimchalar ikkiga bo'linadi:

- konstruktiv qo'shimcha;
- dekorativ qo'shimcha.

Konstruktiv qo'shimchalarda kiyimning bichimi hisobga olinadi. Dekorativ qo'shimchalarda kiyim bezaklari uchun beriladigan qo'shimchalar hisobga olinadi.

**Ort bo'lakning belgacha uzunligi, yeng o'mizining chuqurligi, ort va old bo'lak yoqa o'mizning kengligiga qo'shimcha (chok haqqi)**

Qo'shimchalar nomi	Qo'shimcha larning shartli belgisi	Gavdaga yopishib turish darajasiga mo'ljallangan qo'shimcha qiymati (sm)					
		Juda yopishib turadigan	Yopishib turadigan	O'rtacha yopishib turadigan	Bemalol turadigan	Juda bemalol turadigan	
Ort bo'lak kengligiga qo'shimcha	P or.k.	0,6-0,8	0,8-0,1	1-1,4	1,4-2	2-2,6	
Ko'krak kengligiga qo'shimcha	P k. k.	0-0,3	0,4-0,7	0,8-1	1-1,5	1,6-2,2	
Yoqa o'mizi kengligiga qo'shimcha	P o'm . k.	0,5	0,7	1	modelga binoan		
Ort bo'lak beligacha bo'lgan uzunlikka qo'shimcha	P or.b	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5
Old bo'lak beligacha bo'lgan uzunlikka qo'shimcha	P op.b.	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5
Eng o'miz bo'shlig'iga qo'shimcha	P o'm.b.	1,5	2	2,5	modelga binoan		

#### **Kiyimning ko'krak, bel, bo'ksa chiziqlari bo'ylab**

Kiyim	Kiyimning gavdaga yopishib turish darajasiga					
	Juda yopishib turadigan	Yopishib turadigan	O'rtacha yopishib	Bemalol turadi	Juda bemalol	

turlari							turadigan			gan			turadigan		
	Pk	Pbl	Pbk	Pk	Pbl	Pb k	Pk	Pbl	Pb k	Pk	Pbl	Pbk	Pk	Pbl	Pb k
Ko‘ylak	4-5	1-1.5	0.5-1	5-6	2-3	1-1.5	6-7	4-5	2-3	7-9	-	-	9-11	-	-
Jaket	5-6	1.5-2	1-2	6-7	3-4	1.5-2.5	7-8	5-7	3-4	8-10	-	-	10-12	-	-
Yubka	-	0.5	0-0.5	-	0.5-1	1-2	-	1-1.5	2-4	<i>modelga binoan</i>					

**Kiyim gavdada bemalol turishiga mo‘ljallangan yelka  
aylanasiga qo‘srimcha miqdori (sm)**

Engning harakteristikasi	Qo‘srimcha miqdori, sm	
	Ko‘ylak	Jaket
Qo‘lga yopishib turadigan Tor O‘rtacha Kengaytirilgan Keng Juda keng	3 -4 4 -6 6 - 7 8 - 10 10 — 12 12 - 14	4 - 5,5 5.5-7,5 7.5-9,5 9.5-1 1,5 11,5- 13,5 13.5-15.5

Nazorat uchun savollar:

1. Konstruktiv-dekorativ qo‘srimchalari haqida ma’lumot.
2. Konstruktiv qo‘srimchalarning turlari.

**24. Mavzu: Tikuv mashinalarning tarixi va turlari.**

Reja:

1. Birinchi tikuv mashinkalari.
2. Zamonaviy tikuv mashinalari.
3. Tikuv mashinalaring turlari.

Birinchi tikuv mashinasini XV asrning oxiriga Leonardo da Vinci kashf etgan. Karl Veyzental esa ignani, tikuv mashinasini kashf etganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Keyinchalik ingliz Tomas Sent charm buyumlari tikadigan mashina yaaratdi. 1834 yilda kelib amerikalik Volter Xant Benjamin egri ignali mashina yaratdi. 1850-51 yillarda amerikaliklar Alena Vilson va Isak Zingerlar tomonidan bu mashinalar takomillashtirildi. Amerikadan tikuv mashinalari Osiyo qit’asiga yuborila boshlandi. 1877 yilda ular Yaponiyada paydo bo‘lganligi haqida ma’lumotlar mavjud.



1900 yilda Moskva yaqinidagi Podolsk shahrida “Zinger” firmasi zavod quradi. Jahonda 100 ga yaqin bunday firmalar maishiy va sanoat tikuv mashinalarini ishlab chiqaradi. Germanianing “Shtrobel”, “Praff”, “Aller”, «Diurkopp»,

Yaponiyaning «Yamako», «Juki» firmalari shular jumlasidandir.

XIX asrning boshlarida O‘zbekistonda tikuvchilik mayda hunarmandchilikdan iborat bo‘lib, qo‘llaniladigan jihozlar tikuv mashinasi, tikuv ignasi, qo‘l qaychisi, chog‘li dazmoldan iborat edi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, tikuv mashinasining yurtimizda paydo bo‘lishi olamshumul voqeа bo‘lib “Zinger” mashinasi, so‘ng “Podolsk” mashinalari O‘zbekistonga keltirildi.

Hozirgi paytda vazifasi va tuzilishi jihatidan turli xil bo‘lgan, fan va texnikaning oxirgi yutuqlariga asoslanib yaratilgan, zamonaviy texnologiya talablariga javob beruvchi, avtomatlashtirilgan va elektron boshqaruvi tikuv mashinalari chiqarilmoqda. Tikuv mashinasi quyidagi asosiy qismlardan iborat. Mashina tanasi 2 (1- rasm) asosiy val o‘rnatilgan bo‘lib, undan mashinaning barcha mexanizmlariga harakat uzatiladi. Mashina tanasining tayanchi 4 da baxya yirikligini o‘zgartiruvchi qurilmalar joylashtirilgan. U asosan mashina bosh qismini ushlab turadi. Mashinaning old qismi 1 da igna va iptortgich (zanjirsimon baxyali tikuv mashinalarida ip uzatgich) mexanizmlari, tepki uzeli ba’zi mashinalarda esa qo‘srimcha mexanizm va uzellar o‘rnatilgan. Mashinaning asosiy valiga aylanma harakat maxovik g‘ildiragi orqali elektryuritgichidan uzatiladi. Mashinaning ustiga boshqaruv pulni o‘rnatilgan bo‘lib, undan ishchi organlari holati, baxyaqator ko‘rinishi va yirikligi avtomatik tarzda o‘zgartiriladi. Zamonaviy tikuv mashinalarida boshqaruv pulni mashina tanasi tayanchida yoki uning yon tomonida joylashgan. Mashina ish stoliga tayanch o‘rnatilgan bo‘lib, unda ipli g‘altak yoki bobinalar uchun sterjenlar joylashtirilgan. Tana tayanchidan igna harakat chizig‘igacha bo‘lgan a-masofaga mashinaning ishchi qulochi deyiladi. Mashina platformasida moki (zanjirsimon baxyali tikuv mashinalarida chalishtirgich), gazlamani surish va avtomatik moylash mexanizmlari, ba’zi tikuv mashinalarida ipni qirqish, kengaytirgichkabi qo‘srimcha mexanizmlar o‘rnatilgan. Tashqi ko‘rinishi, vazifasi, ishslash prinsipi, texnikaviy ko‘rsatkichlari, kinematikasi, konstruksiyasi jihatidan tikuv mashinlari juda xilma-xildir.



“JACK”firmasining tikuv mashinasi.

Tikuv mashinalarini yaratish va takomillashtirishda tikiladigan materialning fizika-mekanikaviy xossasi va tuzilishi, texnologik jarayonga ta’sir qiluvchi faktorlar e’tiborga olinadi. Tikilayotgan materialning ishqalanish koeffitsienti, cho‘zilishligi, zichligi, erish temperaturasi kabi parametrлari-tikuvchilik mashinasi konstruksiyasiga, baxyaqator hosil bo‘lishdagi iplar bog‘lanishligiga, qo‘llaniladigan igna geometriyasiga, mashina tezlik ko‘rsatkichlariga bog‘liq bo‘ladi. Baxyaqator hosil bo‘lish jarayonida iplar chalishish xarakteriga qarab tikuv mashinalari moki bahyali tikuv mashinalari va zanjirsimon bahyali tikuv mashinalari kabi ikki guruhga bo‘linadi: Moki baxyaqatori kam cho‘ziluvchanligi va puxtalik xususiyatiga ega bo‘lganligi uchun, moki bahyasi bilan tikuvchi mashinalari asosan qattiq va mustahkam gazlamalarni tikishda qo‘llaniladi. Zanjirsimon buya qator hosil qilib tikuvchi mashinalar cho‘ziluvchan

trikotaj gazlamalarni tikishga va kiyim detallarini vaqtinchalik birlashtirishga mo‘ljallangan. Tikuv mashinalari vazifasiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- ✓ moki bahyali to‘g‘ri baxyaqator hosil qilib tikuvchi mashinalar;
- ✓ bir ipli zanjirsimon to‘g‘ri bahya qator bilan tikuvchi mashinalar;
- ✓ ko‘p ipli zanjirsimon to‘g‘ri bahya qator hosil qilib tikuvchi mashinalar;
- ✓ moki bahyali siniq baxyaqator bilan tikuvchi mashinalar;
- ✓ gazlama chetlarini yo‘rmalash mashinalari;
- ✓ yashirin bahyali tikuv mashinalari;
- ✓ tugma va boshqa furnituralarini qadaydigan, puxtalaydigan va kalta choklarni tikadigan, halqa yo‘rmaydigan va buyumning ayrim detallariga ishlov beradigan yarimavtomatik tikuv mashinalari.

Tezlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tikuv mashinalari uch guruhgaga bo‘linadi:

- ✓ asosiy valning aylanishlar chastotasi 2500 ayl/min. gacha bo‘lgan past tezlikli;
- ✓ 2500 ayl/min. dan 5000 ayl/min. gacha bo‘lgan o‘rtacha tezlikli;
- ✓ 5000 ayl/min. dan yuqori bo‘lgan katta tezlikli.

Ishchiga nisbatan joylashishi bo‘yicha tikuv mashinalari o‘ng, chap va frontal qulochli bo‘ladi. Tikuv mashinasi ishchi qulochi ishlov berilayotgan mahsulotning maksimal o‘lchamini aniqlaydi. Ishchi qulochlari bo‘yicha tikuv mashinalari quyidagilarga bo‘linadi:

- ✓ qisqa ishchi qulochli (L-200 mm gacha);
- ✓ o‘rtacha ishchi qulochli (L-200 mm dan- 260 mm gacha);
- ✓ uzun ishchi qulochli (L-260 mm dan yuqori).

Butun bir texnologik jarayon uchun ishlab chiqariladigan tikuvchilik uskunalarini korxonaning aniq bo‘limiga yaroqliligiga, avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish darajasiga qarab ham guruhlarga ajratish mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Birinchi tikuv mashinasi qachon kim tomonidan kashf etilgan?
2. O‘zbekistonda tikuv mashinasi qachon kirib kelgan?

## 25. Mavzu: Tikuv mashinalarining asosiy ishchi organlari.


Reja:

1. Igna haqida ma’lumot.
2. Tishli reyka haqida ma’lumot.
3. Ip tortgich haqida ma’lumot.
4. Taqsimlagich haqida ma’lumot.

Igna - tikuv mashinasining asosiy ishchi organlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Hamma mashina ignalari gazlamani teshib, ustki ipni igna plastinasi ostiga olib o'tish va ustki ipdan halqa hosil qilish uchun xizmat qiladi. Ignalar to'g'ri va yoysimon ko'rinishlarda bo'ladi. Yashirin banya hosil qilib tikish mashinalarida yoysimon igna materialning yarim qalinligiga sanchiladi. Yoysimon shakldagi ignalar asosan yarim aylana traektoriya bo'ylab harakatlanadi. Ignaning uzunligi va ish yo'li orqali tikuv mashinasining konstruktiv parametrlari aniqlanadi.


Moki - ustki igna ipini ilib olib, uni kengaytirib, o'z atrofidan aylantirib ostki ip bilan chalishtirish uchun xizmat qiladi.

**1-rasm.** To'g'ri va yoysimon ignaning banya hosil bo'lish jarayoni.



**a**-ignaning gazlamaga sanchilishi; **b**-igna ipi hosil bo'lish; v-moki


Moki bahyasi hosil bo'lish jarayonida moki ilmog'i igna eng pastki holatidan ko'tarilishi paytida hosil bo'lgan ipning halqasini ilib olib, uni kengaytirib naycha ushlagich atrofidan aylantiradi. Moki tashqi diametri bo'ylab aylantirilgan igna ipi moki ipi bilan chalishadi va banya hosil bo'ladi. Banya hosil bo'lish jarayonida to'g'ri va yoysimon ignalarning holati rasmida ko'rsatilgan. Yashirin zanjirsimon chok bilan tikuvchi mashinalarda yoysimon igna gazlama qatlaming yarim qalinligiga sanchiladi. Bu jarayon ignaning yoysimon traektoriya bo'yicha harakati orqali ta'minlanadi. Tikuv mashinalarida naychadagi ipning uzunligiga qarab normal va katta hajmli mokilar ko'llaniladi. Tikuv mashinasini loyihalash va takomillashtirish jarayonida, uning stabil ishlashi va umrboqiyligini ta'minlash, asosan mokilarni to'g'ri tanlashga bog'liq bo'ladi.



**2-rasm.** Yashirin zanjirsimon banya hosil **3-rasm.** Moki yordamida banya hosil bo'lishi:


bo‘lish jarayoni: a, b-ignaning gazlama ustki qismiga sanchilish nuqtalari. 1-igna, 2-bo‘rttirgich, 3-igna plastinasi 1-naycha, 2-naycha qopqog‘i, 3-moki o‘qi, 4-naycha ushlagich 5-moki ilmog‘i, 6-igna, 7-tepki, 8-gazlama

Tikilayotgan kiyimdagи баха qator ko‘rinishi ham moki tanlanishiga bog‘liq. Zanjirsimon bahyali tikuv mashinalarda moki funksiyasini chalishtirgich bajaradi. Ish jarayonida chalishtirgich igna ipi halqasini ilib olib, unga o‘zining ipini o‘tkazib, uni ignaning gazlamaga keyingi sanchilishiga tayyorlaydi va halqaga xalqani o‘tkazish bilan баха hosil bo‘ladi. Harakat yo‘nalishi bo‘yicha o‘ng va chap chalishtirgichlar mavjud. Chalishtirgichning tebranish va aylanish o‘qi gorizontal hamda vertikal bo‘ladi. Gazlamalar chekkasini 3 ipli yo‘rmab tikuvchi mashinalarda baxya hosil bo‘lishida igna bilan ikkita ustki va ostki chalishtirgichlar qatnashadi.




4-rasm. Chalishtirgich yordamida баха hosil qilish. 1- chalishtirgich, 2- igna, 3- chalishtirgich ipi, 4- igna ipi, 5- gazlama.

Bir ipli yo‘rmalash бахаси igna bilan ikkita kengaytirgich ishtirokida olinadi. Tishli reyka - gazlamani bir baxya uzunlikka surish vazifasini bajaradi. Gazlamani surish mexanizmi bayaqator yirikligini sozlash, gazlama surilish yo‘nalishini o‘zgartirish qurilmalaridan tuzilgan. Gazlama surilishi tishli reyka va tepki ishtirokida amalga oshiriladi. Ba’zi tikuv mashinalarda gazlama surilish jarayonida 2, 3, 4 ishchi organlar qatnashadi Trikotaj mahsulotlarini tikishda ikki tishli reykali differensial mexanizm qo‘llaniladi. Ba’zi hollarda material bilan tepki va tishli reyka orasida ishqalanish koeffitsienti har xil bo‘lishi natijasida gazlamaning ustki va ostki qatlamlarining bir-biriga nisbatan siljishi sodir bo‘ladi. Bu hol materialga nisbatan ipning qalinligi to‘g‘ri tanlanmaganidan kelib chiqishi mumkin. Gazlama qatlamlari siljishlarini yo‘qotish uchun ustki va ostki tishli reykalar qo‘llanilgan tikuv mashinalari ham mavjud. Teri mahsulotlarini va zich materiallarni tikuvchi mashinalarda surilish jarayoni roliklar va tishli reyka ishtirokida ta’milanadi. Tishli reyka ellipssimon traektoriya bo‘yicha harakatlanadi. Ip tortgich - ignaning pastki holati harakatida, moki atrofida aylantirilishida sarf bo‘ladigan ipni uzatish va bahyani taranglash uchun xizmat qiladi. Zanjirsimon chok bilan tikuvchi mashinalarda ip tortgich funksiyasini ip uzatgich bajaradi. Ip tortgichlar ko‘p hollarda murakkab harakatlanuvchi richag ko‘rinishida tayyorlanadi. Ip tortgich o‘z funksiyasini igna va moki ishlari bilan hamkorlikda bajaradi. Tikuv mashinalarida har xil ko‘rinishdagi ip tortgich konstruksiyalari qo‘llanilgan. Ip uzatish sistemasiga har xil turdagи ipni taranglash qurilmasiz sifatli chok olib bo‘lmaydi. Moki baxyali tikuv mashinalarida naycha qopqog‘ida prujinali taranglash qurilmasi o‘rnatilgan. Ipnin taranganishi vint yordamida prujinani siqlishi natijasida ta’milanadi. Baxyaqator sifati ustki va ostki iplarning taranglanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Taqsimlagich - ko‘p ignali tikuv mashinalaridan ustki iplarni taqsimlash vazifasini bajaradi. Taqsimlagich ko‘p hollarda bir, ikki va ko‘p ipli zanjirsimon chokli ko‘p chiziqli baxyaqatorlar o‘rtasidagi bitta ipni taqsimlash vazifasini bajaradi. Ipnin taqsimlash chok tartibini, ko‘rinishi va xossasini o‘zgartiradi.



5-rasm. Bahya uzunligi yo'nalishi bo'yicha bo'ylama tebranma harakatlanuvchan igna va tishli reyka ishtirokida gazlama surilishi. 1 - tepki, 2 - igna, 3 - tepki asosi, 4 - ustki material, 5 - ostki material, 6 - tishli reyka.

Zanjirsimon baxya qatorlar orasidagi ipni taqsimlash jarayoni 6-rasmida ko'rsatilgan. Taqsimlagich bahya uzunligiga ko'ndalang tebranma harakatlanib, o'zining ipini ignalar orasidan o'tkazadi. Bu holda turli rangdagi iplar ishlatalganda chiroyli baxyaqator hosil qilish mumkin.



6-rasm. Taqsimlagichning ustki ipni ilib olish jarayoni. 1-ignalar, 2-ustki ip, 3-taqsimlagich. Moki va zanjirsimon bahya hosil qilib tikuvchi mashinalar quyidagi asosiy mexanizmlardan tuzilgan: igna mexanizmi; moki va chalishtirgich mexanizmlari; materialni surish mexanizmi; ip tortgich (ip uzatgich) mexanizmi; tepki uzeli.

Nazorat uchun savollar:

1. Tikuv mashinalar asosiy ishchi organlarining qanday ahamiyati bor?
2. Tikuv mashinalarining asosiy mexanizmlari qanday ish bajarishga mo'ljallangan?

## 26. Mavzu: Namlab isitib ishlov berish uskunalari.

Reja:

1. Namlab-isitib ishlash usullari.
2. Namlab-isitib ishlash operatsiyalari.
3. Namlab-isitib ishlov berishda qo'llaniladigan jihozlar.

Kiyim detallariga va umuman tayer kiyimga malum shakl berish yoki tashqi ko'rinishini yaxshilash uchun ularga namlab-isitib ishlov beriladi. Namlab-isitib ishlov berishga kiyim tikishga sarflanadigan vaqtning 20-25 foizi sarflanadi. Namlab-isitib ishlashda harorat katta ahamiyatga ega. Chunki gazlamalarning issiqbardoshligi tolalar issiqbardoshligiga bog'liq. Namlab-isitib ishlash jarayoni uchun tolalarning issiqbardoshligi katta ahamiyatga ega, chunki shunga qarab optimal rejim tanlanadi. Gazlama oddiy sharoitda issiqni yomon o'tkazadi. Shuning uchun tikuvchilik buyumlarini namlab-isitib ishlashda nam katta ahamiyatga ega.

Gazlama yoki dazmolmato ustiga purkalgan suv pressning qizigan ustki yostig'i yuzasiga yoki dazmolning qizigan yuzasiga tegib bug'ga aylanadi. Natijada gazlamaning ustki va ostki qatlamlarini tolalari qizib, shishasimon holatdan yuksak elastik holatga o'tadi va detallarga kerakli deformatsiya beriladi. Tikuvchilik buyumlariga elektr dazmolda yoki elektr pressda namlab-isitib ishlov berilganda ish sifati bug'li dazmol yoki bug'li pressdagiga qaraganda ancha pastroq bo'ladi. Natijada ko'proq suv purkalgan joyning yuqori va ostki qatlamlari yaxshi bug'lanib, hamma tolalari elastik holatga o'tadi, kam suv purkalgan joyning tolalari qisman elastik holatga o'tgan bo'lsa, bug'lanmay qolgan joydagi tolalar shishasimon holatda qolaveradi va deformatsiyasi yetarli darajaga bormaydi. Elektr-bug' va bug' press yoki bug' dazmollardan yuboriladigan bug' paketning hamma qatlamlariga bir xil tasir etadi va hamma tolalar bir xil yuqori elastik holatga o'tadi va bir xil deformatsiyaga erishadi. Namlab-isitib ishlashda hosil qilingan shaklni saqlab qolish uchun gazlamani sovitib, tolalarni yana shishasimon holatga qaytarish kerak. Buning uchun gazlamada qolgan namni butunlay quritish lozim. Gazlama orasidagi namni yuqotish asosan so'rib tashlash yo'li bilan, yani vakuum sistemasi orqali bajariladi. Sovitishning tabiiy, shamollatib (ventilyatorlar qo'llab), vakuumli uskunalar ishlatib so'rish yo'li bilan sovitish kabi uch xil usuli bor. Xulosa qilib aytganda namlab-isitib ishlov berish jarayoni uch bosqichdan iborat:

- ✓ gazlamani shakl berishga tayyorlash
- ✓ gazlamaga shakl berish
- ✓ berilgan shaklni saqlab qolish

Namlab-isitib ishlash dazmollah, presslash, bug'lash usulida bajariladi. Dazmollah - dazmolning qizdirilgan sathini namlangan gazlama sirtida sal bosib yurgizish. U dazmol yordamida bajariladi. Presslash - gazlamani surilmaydigan qizdirilgan ikki sath orasida siqish. U presslar yordamida bajariladi. Bug'lash - gazlamani qizdirilgan sathlar tasirida emas, balki bug' bosimi tasirida ishlash. Bu uchun bug'li-havo manekeni ishlatiladi. Namlab - isitib ishlash jihozlariga dazmollar, presslar va bug'li-havo manekenlari kiradi.

Dazmollar bug', elektr-bug' bilan qizitilishi mumkin. Elektr dazmollar spiral yoki naychali elektr isitkichli bo'lishi mumkin. Ular nimaga mo'ljallaganligiga qarab, har xil og'irlikda bo'ladi. Masalan, yengil kiyimlarni dazmollahga 4 kg li, kostyum va ip gazlamadan tikiladigan buyumlar uchun massasi 6 kg li, paltolar uchun massasi 8 kg. li dazmol ishlatiladi. Dazmol yuzasi 140-220 S gacha qizishi mumkin. Dazmolmato qo'yib dazmollahda dazmol yuzasini odatdagidan 20 S ortiq qizitish mumkin. Gazlamaga dazmolmatosiz va namlamay turib isitib ishlov berilsa gazlamaning ustki qatlamlaridagi fizikmexanik xususiyatlari buzilishi, ya'ni kuyishi mumkin. Dazmolmatodagi to'qilgan gullar ochiqdan-ochiq seziladigan



bo'lmasligi, uning tolalarining elastiklik xususiyatlari ishlanayotgan gazlama tolalarining elastiklik xususiyatlaridan kam bo'lishi kerak. Bu gazlama strukturasini buzilishidan saqlaydi va yaltirab qolish ehtimolini kamaytiradi. Dazmollah ishlari ustiga movut va eig'ir tola gazlama qoplangan stolda turli taxta qoliplar ishlatib bajariladi. Elektr, bug', elektr-bug' dazmollaridan tashqari dazmollah yuzalari qizdiriladigan va bug' so'rib olinadigan dazmollah stollari ishatiladi.



Bitgan kiyimni bug'li-havo manekenida ham dazmollash va bug'lash mumkin. Bunda kiyim manekeniga kiydirilib, unga navbat bilan bug' va issiq havo tasir ettiriladi. Natijada gazlamaning ezilgan va notekis joylari to'g'rilanib, kiyim dazmollangan ko'rinishga kiradi. Bug'li-havo manekeni temir karkasdan iborat.

Nazorat uchun savollar:

1. Namlab - isitib ishslashning qanday ahamiyati bor?
2. Namlab-isitib ishslashda qanday asbob - uskunalar ishlataladi?
3. Bug'li-havo manekeni qanday ish bajarishga mo'ljallangan?


## 27. Mavzu: Mashina choklari turlari.

Reja:

1. Mashinada bajariladigan choklarning turi.
2. Biriktirma choklar.
3. Ziy choklar.
4. Bezak choklar.


Mashinada bajariladigan ishlar uchun oddiy (universal), maxsus va yarim avtomatlardan foydalaniladi. Mashinada bajariladigan choklar konstruksiyasiga va vazifasiga qarab uch turli bo'ladi:

- birlashtiruvchi chok kiyim detallarini birlashtirishga,
- ziy chok detallar ziylarini ishslashga va qirqimlarini titilib ketishdan saqlashga,
- bezak chok kiyim detallarini bezatishga xizmat qiladi.




### Biriktiruvchi chok turlari


Birlashtiruvchi choklar biriktirma chok, yorma chok, quyma chok, bostirma chok, ichki chok, tutashtirma chok, qo'sh chok quyidagilardan iborat. Biriktirma chok - eng ko'p tarqalgan choklardan bo'lib, detallarning yon, yelka va boshqa qirqimlarini birlashtirish uchun ishlatalidi U yorib yoki bir tomonga yotqazib dazmollab qo'yiladi. Chok kengligi 5, 7, 10, 12, 15 mm. bo'lib, gazlamalarning turiga, chokning vazifasiga bog'liq bo'ladi.




Yorma chok - ham bezak ham birlashtiruvchi hisoblanadi. Bu chok dazmol tutmaydigan, sun'iy charmdan kiyim tikishda, sport kiyimlari tikishda ishlatalidi. Oldin detallarga 7-10 mm. kengliklarda biriktirma chok solinadi, chok ikki tomonga yorib dazmolladi va chokning ikki tomoniga undan 0,2 sm. masofada baxyaqator yuritiladi.




Ochiq qirqimli qo'yma chok



Bezak jiyakni qo'yma chok bilan tikish



Bezak koketkalarni va qoplama cho'ntaklarni qo'yma chok bilan bilan tikish



Bezak beykalarni detal chetuariga bostirib tikish

esa  $0,2 - 0,5$  sm.

Tutashtirma chok - bort qotirmasining qismlari va vitachkalarini birlashtirish uchun ishlataladi. Bunda 2 detal bir-biriga taqab, tagiga kengligi  $3-4$  sm. ip gazlama qo'yiladi va ikkita parallel baxyaqator yuritib chiqilgandan keyin, ular orasiga siniq baxyaqator yuritiladi. Chok kengligi  $1,0$  sm.

Qo'sh chok - ko'rpa-yostiq jiddlari, choyshablar, cho'ntak xaltalarni tikishda ishlataladi. Qo'sh chok hosil qilish uchun detallar teskari tomonlari bir-biriga qaratilib  $0,3 - 0,5$  sm. kenglikda biriktirma chok bilan tikib olinadi. Keyin detallar o'ngiga ag'darilip, chok to'g'rilanadi va detallar chetidan  $0,6 - 0,7$  masofada ikkinchi baxyaqator yuritiladi.

Ichki chok - ich kiyim detallarini, ip gazlamadan tikilgan pidjak, shim detallarini biriktirib tikishda ishlataladi. Qo'sh chokni tikishda qo'sh ignali maxsus mashinada moslama yordamida ikki detalning qirqimlarini ichkariga bukib turib, bir yula ikkita baxyaqator yuritib tikiladi. Chok kengligi  $0,6 - 0,7$  sm.


Ziy choklar - buklama chok, mag'iz chok, ag'darma choklardan iborat. Buklama chok - ochiq yoki yopiq qirqimli bo'ladi. Ochiq qirqimli buklama chok qalin gazlamalardan kiyim (yubka, ayollar paltosi etaklarini) tikishda ishlataladi. Chok kengligi  $0,7 - 4$  sm. Yopiq qirqimli buklama chok erkaklar, ayollar ko'ylaklari etaklarini, yeng uchlarini, choyshablar chetlarini tikishda ishlataladi.

Mag'iz chok - ochiq qirqimli, yopiq qirqimli va tasmali bo'ladi. Ochiq qirqimli mag'iz chok adip ichki qirqimlarini, astarsiz ust kiyimlar qirqimlarini mag'izlash uchun ishlataladi. Yopiq qirqimli mag'iz chok ayollar ko'ylaklarning va ich kiyimlarning yoqa, yeng o'mizlariga mag'iz qo'yish uchun ishlataladi. Mag'iz parchasi o'rniga maxsus tasma ishlatsa, tasma chetini bukmay turib, tasma milkidan  $0,1 - 0,15$  sm. oraliqda baxyaqator yuritib tikiladi.


Ag'darma chok - kantli, ramkali, qistirma kantli bo'ladi. Bu chok cho'ntak qopqoqlarning, yoqalarning, bortlarning chetlarini tikishda ishlataladi.

Quyma chok - yopiq va ochiq qirqimli bo'ladi. Ochiq qirqimli quyma chok bort qotirmasi, yoqa qotirmasi kabilarni biriktirishda ishlataladi. Yopiq qirqimli quyma chok asosiy detallarga qoplama cho'ntaklarni, koketkalarni bostirib tikishda ishlataladi. Chok kengligi ustki kiyimda  $1$  sm. bo'ladi.


Bostirma chok - paltoning yon, yelka, ort bo'lak o'rtasidagi choklarni tikish uchun ishlataladi. Bu chok ochiq (g) va yopiq qirqimli bo'ladi. Chok kengligi  $1$  sm., bezak choki kengligi




Ziy chok turlari




-Pastki detaldan kant hosil qilib  
ag'darma chok tikish




-Ustki detaldan kant hosil qilib  
ag'darma chok tikish




Detal o'ngidan baxyaqator yuritib  
puxtalangan murakkab ramka



Detal teskarisidan baxyaqator  
yuritib puxtalangan murakkab ramka




Detal ziyiga to'g'ri keladigan  
ag'darma chokni tikish




Bezak baxyaqatorli ag'darma  
chokni tikish

Kantli ag'darma chokda detallardan biri ikkinchisidan 0,1-0,3 sm. qochiribrok bukilgan bo'ladi. Ramkali ag'darma chok pidjak cho'ntaklari, ko'y lakning tugmalanadigan joylarini tikishda ishlatiladi. Hosil bo'lgan ramkani saqlab qolish uchun ag'darma chok ustidan baxyaqator yuritib qo'yiladi. Qistirma kantli ag'darma chok yoqalarni, ko'yak bortlarini bezashda, xizmat formalarining yoqalari, shim yon choklarini tikishda ishlatiladi.



Bezak choklarining turlari


Bezak choklar - har xil taxlamalar va bo‘rtma choklardan iborat bo‘lib, kiyim detallarini bezatish uchun ishlataladi. Taxlamalar - bezatuvchi yoki birlashtiruvchi bo‘ladi. Bezak taxlamalar bir tomonga yoki bir-biriga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Taxlama haqi bir tomonga qilib yoki yorib dazmol dazmollanadi. Modelga muvofiq o‘ng tomonidan baxyaqator yuritib, bostirib tikiladi. Birlashtiruvchi taxlamalar bir necha detalni ulab, taxlama hosil qiladi. Bu taxlamalar bir tomonlama, bir-biriga qaragan va ikki tomonga qaragan bo‘lishi mumkin. Bunday taxlamalarni tikishda detallar o‘ngi bir-biriga qaratilib ko‘klanadi, hosil bo‘lgan taxlama bir tomonga qaratilib dazmollanadi-da, taxlama qirqimlari bir biriga ulanadi, detalning o‘ngiga baxyaqator bostirib bezatiladi. Ko‘klangan ip so‘kib tashlanadi.




Bostirma chok



Bukma taxlamalar




Bosma taxlamalar



Gazlama bo'jagi  
qo'yilgan shnurli bo'rtma  
chok



Maxsus  
mashinada tikiladigan  
bo'rtma chok



Shunursiz  
bo'rtma chok

Bo'rtma choklar - xilma-xil shakldagi murakkab choklardir. Ular mayda-mayda taxlangan ,shnur qo'yib bo'rtirilgan, ichki va ustki baxyaqator bilan bo'rttirilgan ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Kiyim tikish uchun qanday mashinalar ishlataladi?
2. Birlashtiruvchi choklar qaerlarda ishlataladi?
3. Ziy va bezak choklar sxemalarini chizib, qaerda ishlatalishini aytib bering.


## 28. Mavzu: Ko'ylaklar cho'ntaklarini tikish.

Reja:

1. Cho'ntaklar haqida ma'lumot.
- 2.Qoplama cho'ntaklar.


Cho'ntaklar qirqma, chokdagi va qoplama cho'ntaklar kabi uch turga bo'linadi. Qirqma cho'ntaklar qaerga joylashganiga qarab yon va tepa cho'ntak deb ataladi. Qirqmasi yo'naliishiga qarab vertikal, gorizontal va qiyalama, cho'ntak og'zi shakliga qarab to'g'ri chiziq shaklida va murakkab shaklda bo'ladi. Cho'ntak yuqori tomonining bezalishiga qarab qopqoqli, listochkali va mag'izli bo'ladi, pastki tomoni ramkali yoki kantli bo'ladi. Ko'ylaklar cho'ntaklarida ko'rinma bulmaydi. Cho'ntakning hamma detallari asosiy materialdan bichiladi. Astar ko'rinma va bo'ylama funksiyasini bajaradi. Mag'iz cho'ntak xaltasi, cho'ntak qopqoq astari bilan yaxlit bichilishi mumkin. Cho'ntak og'zini cho'zilishdan saqlash uchun bo'ylama va uqa ishlatmasdan, cho'ntak xaltasini gazlama tanda ipi yo'naliishida bichish lozim.

**Qopqoqli qoplama cho'ntaklarni tikish.** Bu cho'ntakni tikishda ustki qopqoq ostki qopqoq bilan burchaklarida solqi hosil qilib, ag'darma chok bilan ulanadi (chok 1). Qopqoq yuz tomonga o'girilib, ustki qopqoqdan 2 mm. kenglikda kant hosil qilib dazmollanadi. Qopqoqga bezak baxyaqator yurgiziladi (chok 2). Qoplama cho'ntakning yuqori qirqimi yopiq qirqimli buklama chok bilan tikiladi (chok 3). Qoplama cho'ntakning uchala yon va pastki qirqimlari




falspress yordamida dazmollanadi. Asosiy detalga cho'ntak o'rni belgilanib, qoplama cho'ntak belgilangan chiziq bo'ylab quyma chok bilan bostirib tikiladi (chok 4). Cho'ntak qopqog'i old bo'lakka cho'ntakdan 1 sm. nariga ulanadi (chok 5), qopqoq cho'ntak tomonga o'girilib bostirib tikiladi (6-rasm, chok 6).

**Qopqoqli qirqma cho'ntakni tikish.** Cho'ntak qopqog'i 2 qismdan (ustki va ostki qopqoqdan yoki yaxlit) bichilgan bo'lishi mumkin. Qopqoq yelimli qo'shimcha qatlamlı ham bo'lishi mumkin. Cho'ntak xalta mag'iz bilan yaxlit bichilgan bo'lishi mumkin. Cho'ntak o'rni 1 ta gorizontal va 2 ta vertikal chiziq bilan belgilanadi. Tayyor qopqoq o'ngi pastga qaratilib, belgilangan chiziq bo'ylab asosiy detalga ulanadi (chok 1), unga parallel qilib cho'ntak xalta bilan yaxlit bichilgan mag'iz ulanadi (chok 2). Ikkı baxyaqator orasidagi material qirqiladi. Cho'ntak xalta teskariga o'tkaziladi. Ikkinchı cho'ntak xalta qopqoq ulangan chokka ulanadi (chok 3). Cho'ntak xalta biriktirib tikiladi (chok 4), qirqimlari yo'rmalanadi (1-rasm, chok 5).



1-rasm. Qopqoqli qirqma  
cho'ntakni tikish




2-rasm. Listochkali qirqma  
cho'ntakni tikish


**Listochkali qirqma cho'ntakni tikish.** Listochka cho'ntak qopqoqday tayyorlanadi. Cho'ntak o'rni 3 ta chiziq bilan belgilanadi. Listochka va cho'ntak xaltaning birinchi qismi belgilangan chiziq bo'ylab asosiy detalga ulanadi (chok 1), unga parallel qilib cho'ntak xaltaning ikkinchi qismi ulanadi (chok 2). Cho'ntak og'zi qirqiladi, cho'ntak xaltalar teskari tomonga ag'dariladi. Cho'ntak xalta tikib yo'rmalanadi (chok 3). Listochka yon tomonlari detalga bostirib tikiladi (2-rasm, chok 4).

**Ikkı mag'izli ramkali qirqma cho'ntakni tikish.** Asosiy detalning o'ngiga cho'ntak o'rni to'rtta (ikkita gorizontal va ikkita vertikal) chiziq bilan belgilab olinadi. Gorizontal chiziqlar o'rtasidagi oraliq cho'ntakning ikkala ramkasi kengligiga teng, vertikal chiziqlar o'rtasidagi oraliq esa cho'ntak og'zi uzunligiga teng bo'ladi. Cho'ntak mag'izi cho'ntak xalta bilan yaxlit yoki alohida bichilgan bo'ladi. Cho'ntak xalta bilan yaxlit bichilgan mag'izni teskarisini ichkariga qaratib, kant kengligi va 0,5-0,7 sm. chok haqi kengligiga teng qilib, bukib dazmollanadi. Gorizontal belgi chiziqlar bo'ylab, kant kengligiga teng oraliqda mag'izlar ziyidan baxyaqator yuritib, asosiy detalga ulanadi (chok 1,2). Baxyaqator boshi va oxiri uchta qaytma baxyaqator yuritib puxtalanadi. Detal teskarisidan ikki baxyaqator orasida detal qirqiladi. Uchlarida baxyaqator tomon burchak hosil qilib, baxyaqatorga 0,1 sm. yetkazmay qirqiladi. Cho'ntak xaltalar detal teskari tomoniga ag'darilib o'tkaziladi va biriktirib tikiladi (chok 3).

Cho'ntak uchlari ikkiuchta qaytma baxyaqator bilan puxtalanadi. Cho'ntak xalta qirqimlari yo'rmalanadi (3- rasm, chok 4).



3-rasm. Ikki mag'izli qirqma ramkali cho'ntakni tikish.




4-rasm. Chokdagi listochkali cho'ntakni tikish.

## 29. Mavzu.Chokdagi listochkali cho'ntakni tikish.

**Chokdagi listochkali cho'ntakni tikish.** Listochka ham bezak ham xalta vazifasini o'tashi mumkin. Listochkaga qotirma ham yopishtirish mumkin. Detal biriktirma chokida cho'ntak o'rni belgilab olinadi. Belgi chiziq bo'ylab listochka bilan cho'ntak xaltaning bir qismi biriktirib ulanadi (chok 1), detalning ikkinchi bo'lagiga cho'ntak xaltaning 2 chi bo'lagi ulanadi (chok 2). Asosiy detal bo'laklari biriktirib tikiladi (chok 3). Cho'ntak xalta uchala tomoni biriktirib tikiladi va yo'rmalanadi. (chok 4). Listochkaning yon tomoni detalga bostirib tikiladi (4-rasm ,chok 5).

Qoplama cho'ntaklar atrofi beyka, kant, quyma burma, to'r qo'yib tikilishi mumkin. U astarli yoki astarsiz, qotirmali bo'ladi. Cho'ntaklar detalga **biriktirma yoki quyma choklar** bilan ulanadi. Bezak kantning burchaklari ag'darma chok bilan tikiladi. Beyka qoplama cho'ntakning pastki va yon qirqimlariga biriktirib tikiladi (5-rasm, a).



5-rasm. Qoplama cho'ntaklarni tikish.

Qoplama cho'ntak atrofiga burma yoki to'r qo'yib tikishda, bezak detallarda burma hosil qilib olinadi. Burma yoki to'r biriktirma chok bilan asosiy detalga tikiladi (b). Qoplama cho'ntak listochkasining ustki va ostki qismi yaxlit bichilgan yoki ustki qismi alohida, ostki qismi esa cho'ntak bilan birga yaxlit bichilgan bo'lishi mumkin. Listochka yaxlit bo'lsa, u cho'ntak yuqori qirqimiga biriktirib tikiladi va detal o'ngiga aylantirib o'tkaziladi va biriktirib tikilgan chokni 0,2 sm. yopadigan qilib, listochka qoplama cho'ntakka 0,1-0,2 sm kenglikda bostirib tikiladi (v).

Listochkaning ostki qismi cho'ntak detali bilan yaxlit bichilgan bo'lsa, cho'ntakka listochka ulangandan keyin, u detal o'ngiga aylantirib o'tkaziladi. Listochkadan 0,1-0,2 sm. kenglikda kant hosil qilib, cho'ntak yuqori tomoniga bukib dazmullanadi Listochkaning ikkinchi ochiq qirqimi baxyaqator kengligidan 0,5-0,7 sm. ortiqroq qilib teskari tomonga bukiladi va cho'ntakka baxyaqator kengligida bostirib tikiladi (g). Bezaksiz cho'ntakning yuqori qirqimi 0,5-0,7 sm. teskari tomonga bukilib, bukilgan ziydan 0,1-0,2 sm. oraliqda bostirib tikiladi (d).

Nazorat uchun savollar:

1. Detallar kirkimlariga kanday ishlov beriladi?
2. Tikuvchilik buyumlariga ishlov berishning qanday usullari bor?
3. Chuntaklarning kanday turlari bor?
4. Kirkma chuntaklarni tikish necha boskichdan iborat?

### **30. Mavzu: Bolalar qalpoqchasini hisoblash va chizish.**


Reja:

1. Qalpoqchani orqa qismini loyihalash va chizish.
2. Qalpoqchani yon qismini loyihalash va chizish.




Chizmani loyihalash uchun quyidagi o'lchovlar kerak bo'ladi:

1. QU=20 sm, qalpoqcha uzunligi (peshananing o'rtasidan bo'yin umurtqasigacha bo'lgan oraliq o'lchanadi)
  2. BshYaA = 18 sm, boshning peshana ustidan o'lchanadigan yarim aylanasi.
- Qalpoqchani orqa qismini loyihalash



1. To'g'ri burchak chizilib, burchagiga A nuqta qo'yiladi.
2. AV = AG = BshYaA:2+3 = 12 sm (qalpoqcha tomonlari, 3 sm hamma razmerlar uchun bir xil).

3. A, V, G, S nuqtalardan kvadrat hosil qilib chiziladi.
  4. Kvadratning hamma tomonlari ikkiga bo‘linib, 1, 2, 3, 4 nuqtalar bilan belgilanadi, ya’ni  $AV:2 = 12:2 = 6$  sm.
  5. Burchak A va V nuqtalardan bissektrissa chiqazib, unga 2 sm qo‘yiladi va mos ravishda 5, 6 nuqtalar bilan belgilanadi.
  6. G7 = 2 sm (o‘ng tomonga), S8 = 2 sm (chap tomonga) yordamchi nuqtalar belgilanadi, ya’ni ensa qismining kengligi hosil qilinadi.
  7. 7, 4, 5, 1, 6, 2, 8 nuqtalar ravon aylana egri chiziq bilan tutashtiriladi.
  8.  $33 = 0, 5$  sm (ensa qismining ko‘tarilishi, doimiy qiymat).
  9. 7, 3, 8 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
- Qalpoqchani yon qismini loyihalash



10. To‘g‘ri burchak chizilib, uning burchagi A nuqta bilan belgilanadi.
11.  $AV = 18$  sm (qalpoqcha tepe qismining o‘lchangan uzunligi).
12.  $AG = BshYa:2 = 9$  sm (qalpoqcha kengligi).
13.  $AVGD$  to‘g‘ri to‘rtburchak chizib olinadi.
14.  $AA1 = AV:2 = 18:2 = 9$  sm (yordamchi nuqta).
15. A burchakdan bissektrissa chiqazilib unga 1 sm qo‘yiladi va 1 nuqta bilan belgilanadi.
16. D, 2, 1, A1 nuqtalar chizg‘ich yordamida tutashtiriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Qalpoqcha uchun kanday o‘lchov olinadi?
2. Bolalar kiyimi yoshiga qarab necha guruhga bo‘linadi?

### **31.Mavzu: Chaqaloqlar ko‘ylakchasi – yahtakchani chizmasini hisoblash va chizish.**

Reja:

1. Bolalar kiyimlarining sinflanishi.
2. Chaqaloqlar kiyimi.
3. Yahtakchani loyihalash va chizish.

#### **Bolalar kiyimlarining sinflanishi**

K/k	Guruh	Bolaning yoshi	Buyum razmeri
1.	Yasli yoshidagilar	0.5-2.5	22, 24, 26


2.	Bog'cha yoshidagilar	2.5-5.5	28-30
3.	Kichik maktab yoshidagidagilar	5.5-11.5	32-36
4.	Katta maktab yoshidagilar	11.5-14	38-42
5.	O'smirlar	14-17.5	44-46

Chaqaloqlar kiyimi. Chaqaloqlar kiyimi (kunduzi va kechasi kiyadigan ko'yak – raspashonka, paypoq-ishton – polzunki, qalpoqcha – chepchik va boshqalar) yengil, qulay, havoni yaxshi o'tkazadigan, issiq tutadigan, nam tortuvchi, suv shimuvchi bo'lishi kerak. Ichki kiyim bolaning erkin nafas olishiga, badanda qonning harakatlanishiga xalaqit bermaydigan bo'lishi lozim. Chaqaloqlar kiyimlarini mumkin qadar kamroq chok solib tikish kerak. Ular kunduzgi raspashonkasining yo oldi, yo orqasi ochiq bo'ladi. Bu raspashonkalarga mutlaqo tugma qadalmaydi, uning old bo'laklari bir-biri bilan tasma yoki lentalar bilan bog'lanadi. Bolalar kiyimi kunduzgi yoki kechasi kiyilishiga, mavsumga hamda bolaning yoshiga qarab turli gazlamalardan (batist, paxmoq gazlama, bumazeya, surp va shu kabi mayin gazlamalardan) tikiladi. Bunday gazlamalar asosan ochiq ranglarda (ko'p hollarda oq rangda), gullari mayda bo'lgani ma'qul.

Chaqaloqlar ko'yakchasi – raspashonkani loyihalash. Chizmani loyihalash vaqtida quyidagi jadvaldan foydalanish kerak. Raspashonkaning taxminiy o'lchovlari (sm). Chizmani loyihalash uchun quyidagi o'lchovlar olinadi:

1. Raspashonkaning uzunligi – 26 sm – KU.
2. Raspashonkaning kengligi – 28 sm – KK.

Bolaning yoshi	Raspashonka uzunligi	Raspashonka kengligi
1-2 oylik	24	26
2-6 oylik	26	28
6 oylikdan 1 yoshgacha	28	30



1. To'g'ri burchak chizilib, burchagiga Bn nuqta qo'yiladi.
2. BnBn1 = KK:2 = 28:2 = 14 sm (ko'yak kengligi).
3. BnE = KU = 26 sm (ko'yakning etak chizig'ini belgilash).
4. Bn, Bn1, E, E1 nuqtalardan o'tkazib to'g'ri to'rtburchak chiziladi.
5. BnBn2 = 4 sm (bo'yin o'mizi kengligi, barcha razmerlar uchun doimiy qiymat).

6.  $BnBn3 = 1$  sm (orqa bo'yin o'mizi chuqurligi, barcha razmerlar uchun doimiy qiymat).
7.  $Bn3$ ,  $Bn2$  nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi va orqa bo'yin o'mizi egriligi hosil bo'ladi.
8.  $BnBn4 = 5$  sm (old bo'yin o'mizi chuqurligi, barcha razmerlar uchun doimiy qiymat).
9.  $Bn4$ ,  $Bn2$  nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi va old bo'yin o'mizi egriligi hosil bo'ladi.
10.  $Bn1Bn5 = 8-10$  sm (eng uzunligi).
11.  $Bn5K = 10-12$  sm (eng kengligi).
12. K nuqtadan chap tomonga gorizontal chiziq o'tkaziladi va  $Bn1E1$  chiziq bilan kesishgan nuqtaga  $K1$  nuqta qo'yiladi.
13.  $KK2 = 1$  sm (yordamchi nuqta, yuqoriga qo'yiladi).
14.  $K1K3 = 2$  sm (yordamchi nuqta, o'ngga qo'yiladi).
15.  $K1K4 = 3$  sm (yordamchi nuqta, pastga qo'yiladi).
16.  $E1E2 = 2$  sm (yon etak qismining kengayishi, doimiy qiymat).
17.  $K2$ ,  $K3$  va  $K4$ ,  $E2$  nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.
18.  $K3$ ,  $K4$  nuqtalar esa ravon egri chiziqlar bilan tutashtiriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Yaxtakcha asosiy o'lchamlarini ayting?
2. Yaxtakcha qanday gazlamalardan tikiladi?
3. Nima uchun yaxtakcha choki o'ngiga tikiladi?

### **32.Mavzu: Turli yoqalarni hisoblash va chizish.**


Reja:

1. Bo'yinga yopishib turadigan tik yoqani hisoblash va chizish.
2. Bo'yinga yopishib turadigan qaytarma yoqani hisoblash va chizish.
3. Qirqma ko'tarmali sorochka bop yoqani hisoblash va chizish.
4. Yassi yoqalarni hisoblash va chizish.
5. Buklangan qaytarmali yoqalarni hisoblash va chizish.

Yoqalarning konstruktiv xususiyati ularning asosiy chizmadan ayrim qurilishidadir. Yoqa uzunligi o'mizining uzunligiga bog'liq. Yopiq taqilmali buyumlar yoqalari tik yoqalariga, qaytarma yoqalarga va ko'tarmali qaytarma yoqalarga farqlanadi. Ular quyidagi sxema bo'yicha quriladi: O nuqtada to'g'ri burchak quriladi.

**Bo'yinga yopishib turadigan tik yoqa** (1- rasm).

1. To'g'ri burchak uchi O(●) dan  $\uparrow$  ko'tarma balandligi o'lchab qo'yiladi (3-5 sm) - (●)V.
2. (●)O dan  $\rightarrow$  gorizontal bo'ylab yoqa o'mizi belgilanadi - (●)A..
3. A (●) dan  $\rightarrow$  bort kengligi - (●)A1.
4. O(●) dan  $\rightarrow$  (●) O1, OO1=OA1/3.
5. O(●) dan (●)A1 orqali  $\uparrow$  yoy R=OB-1 sm - (●) A2.
6. (●)O, O1, A2 ravon birlashtiriladi – yoqa o'mizga ulanish chizig'i.
7. O1 (●) dan  $\uparrow \perp$  OA1 kesmaga q OV1 - (●) O2.
8. A (●) dan  $\perp \uparrow$  O1A2 bilan kesishgan (●) - (●)A4-old o'rta chizig'i.
9. A4 (●) dan O1A2 chiziqla  $\perp \uparrow$  q ko'tarma balandligiga, - (●) A5.
10. (●)V, O2, A5, A2 – ravon, ulanish chizig'iga parallel – yoqanining tepe chizig'i.




1 – rasm. Bo‘yinga yopishib turadigan tik yoqa

#### **Bo‘yinga yopishib turadigan qaytarma yoqa (2-rasm).**

Yoqa o‘ziga hos konstruktiv xususiyatga ega. Yoqaning ko‘tarmasi uchlariga borib 0 ga tenglashadi.


1. to‘g‘ri burchak (●) O uchidan ↑ 3-12 sm - (●) V (yoqaning o‘rtasi qancha kam ko‘tarilsa, ko‘tarma shuncha balandlashadi, yoqa ko‘proq bo‘yinga yopishib turadi).
2. V(●) dan R yoqa o‘mizining uzunligiga teng yoy O(●) dan o‘tgan o‘tgan gorizontal - (●) A.
3. V, A nuqtalar birlashtiriladi.
4. VA kesma o‘rtasidan bo‘linadi - (●)1.
5. (●) dan 1 dan ↑ ⊥ bo‘ylab 1 – 3 sm - (●) 2. Kesma 1-2 qanchalik kichik bo‘lsa, yoqa bo‘yinga shunchalik zichroq yopishadi.
6. V, 2, A nuqtalardan yoqaning ularish chizig‘i ravon o‘tkaziladi.
7. V(●) dan ↑ 2-4 sm (ko‘tarmaning eni) - (●) V1.
8. V1(●) dan ↑ 7-14 sm (modelga mos qaytarma kengligi) - (●) V2.
9. A(●) dan ⊥ VA ga = (VV2+1 sm), - (●) A1 (modelga mos).
- 10.(●) V2 va A1 ravon birlashtiriladi, uzaytirib → 1-5 sm, - (●) A2. Yoqaning uchi va qaytarmasi modelga mos chiziladi.



2-rasm. Bo‘yinga yopishib turadigan qaytarma yoqa.

#### **Ko‘tarmali qaytarma yoqalar. Qirqma ko‘tarmali sorochka bop yoqa.**

1. To‘g‘ri burchak uchi O(●) dan ↑ ko‘tarma balandligi 1,5 – 3,5 sm - (●) V.
2. O(●) dan → gorizontal bo‘ylab yoqa o‘mizining uzunligi - (●) A.
3. A (●) dan → bort eni -(●) A1 .
4. O(●) dan → 1/3 OA- (●) O 1.
5. O1(●) dan R = O1 A1 yoy. A1 nuqtadan A1A2=OV-1 sm. - (●) A2.
6. (●) O1, A2 birlashtiriladi.
7. A(●) dan ↑ ⊥ , O1 A2 bilan kesishgan - (●) A4.
8. O1A4:2 - (●) 1.



3-rasm. Qirqma ko‘tarmali sorochkabop yoqa.

9. 1 (•) dan ↓ ⊥ bo‘ylab kesma q 0,5 – 1 sm, - (•)2.

10.O, O1, 2, A4, A2 nuqtalar birlashtiriladi – ravon chiziq - yoqa o‘mizga ulanish chizig‘i.

11.A2(•) dan ↑ perpendikulyar O1A2-ga =OV, - (•)A3.

12.A4(•) dan ↑ O1A2 chiziqqa ⊥, =OV, - (•) A5.

13.(•)V, A5, A2 yoqa o‘miziga ulanish chizig‘iga || ko‘tarmanning yuqori chizig‘i ravon o‘tkaziladi. Uchi dumaloqlashgan.

14.A(•) dan OV vertikalga ⊥ - (•)O2.

15.O2(•) dan ↑ 6-7 sm - (•)V1.

16.(•)V1, A5 birlashtiriladi. O‘rtasidan bo‘linadi - (•)3.

17.(•) 3 dan ⊥ V, A5= 1-2 sm - (•) 4.

18.(•)(•)V1, 4, A5 ravon chiziq yordamida – yoqa ko‘tarmaga ulanish chizig‘i. 19.V1(•) dan ↑ yoqa kengligi q OV+(2,5 – 3,5 sm), - (•)V2.


20.A5(•) dan ⊥ V1 A5 ga, =V1V2+1,5 sm, -(•) A6.

21.A6(•) dan → 1,5 sm - (•) A7.

22.V2, A6, A7 nuqtalardan yoqa qaytarmasining ravon chizig‘i o‘tkaziladi.

**Yassi yoqalar.** Yassi va fantazii yoqalar konstruksiyasi bevosita orqa va old bo‘lak andazalarida quriladi. Ularning yelka chiziqlari ustma – ust qo‘yiladi, A 2 va A4 nuqtalar ustma-ust tushiriladi, lekin P1 va P5 nuqtalar bir birini 1,5 – 2,5 sm bekitishi kerak. Keyin orqa old bo‘laklarning yeng va yoqa o‘miz konturlari chizib chiqiladi. (4-rasm).

Yassi yoqaning ulanish chizig‘i asosiy chizmaning old va orqa bo‘laklarining yoqa o‘mizining konturi bo‘yicha chiziladi yoki modelga mos o‘zgartiriladi. Yoqaning o‘rtami (AV) va uchlarining (A5O) kengligi modelga mos chiziladi.





#### 4-rasm. Yassi yoqalar

**Buklangan qaytarmali yoqalar.** Buklangan qaytarmali yoqalarning shakli ko‘tarma balandligiga, buklanish xususiyatiga va bo‘yinga yopishgan darajasiga bog‘liq. Yoqalarning mazkur xil bort qaytarmasiga bog‘liq. U bort qaytarmasining berilgan shaklini ta’minlashi kerak. Shu bois bu tipdagi yoqalar konstruksiyasi, odatda, buyum chizmasida quriladi. Bunday yoqalarning konstruksiyasining bir necha usulda bajarish mumkin.

### 1- variant (5-rasm).

1. A4 (●) dan yelka chizig‘ining davomidan ↑ ko‘tarma balandligi A4V= 2-4 sm o‘lchab qo‘yiladi (ko‘tarma balandligi oshgan sari u bo‘yinga zichroq yopishadi). 2. Bort chizig‘ida qaytarma buklanish chizig‘ining pastki uchi (qaytarmaning boshlanish nuqtasi) - (●) L aniqlanadi. U yuqori izma satxidan 0,5 – 1,5 sm teparoq joylashgan.
3. L va B nuqtalar birlashtiriladi - bort qaytarmasinitng buklanish chizig‘i. Yoqa o‘mizi bilan kesishgan nuqta - (●) F.
4. Old bo‘lak chizmasida bort qaytarmasining shakli darzlik chizig‘i bilan yoqaning old uchlari, yoqa o‘mizining chizig‘i modelga mos holda perpendikulyarlar usuli yordamida aniqlanadi.
5. L (●) dan yoqa o‘miziga urinma chizig‘i o‘tkaziladi. Yelka chizig‘i bilan kesishgan nuqta - (●) F1. Yoqa o‘miziga urunish nuqtasi – F2.
6. F1 (●) dan LF1 chiziq davomida orqa yoqa o‘mizining uzunligi o‘lchab qo‘yiladi (egri chiziq bo‘ylab) - (●) V1.
7. F2 (●) dan markazdek (●) V1 dan chapga yoy chiziladi, unda V (●) aniqlanadi V1V2 teng: a) 2,5 – 3 sm – kekaygan figura uchun; b) 3,5-4 sm – proporsional qomat uchun; v) 4,5-5 sm – bukchaygan qomat uchun.
8. V2 va F2 nuqtalar to‘g‘ri chiziq yordamida birlashtiriladi. Keyin 0,4 – 0,6 sm etilgan ravon chiziq o‘tkaziladi. 5-rasm 6-rasm
9. Yoqaning V2, F2, F, A7 nuqtaldandan o‘tadi.
10. V2 (●) dan yoqaning ulanish chizig‘iga perpendikulyar ravishda uning o‘rtasi chizig‘i o‘tkaziladi.
11. V2 (●) dan perpendikulyar bo‘ylab ↑ ko‘tarma balandligi (2-4 sm) - (●) V3 va kesma V3V4 q qaytarma kengligiga, modelga mos holda.
12. Yoqa uchining holati (●) A6 modelga mos aniqlanadi. Qaytarma chizig‘i xam modelga mos. Konstruksianing namunaviy yechimlarida yelka qirqimlarining satxida yoqaning kengligi o‘rtasining kengligiga teng, ya’ni V4V5 yoqaning o‘mizga biriktirish chizig‘iga parallel.
13. Agar darszlik chizig‘i 0 ga teng bo‘lsa yoqa buklanish chiziqdan boshlanib ulanadi.




Активация Windows  
Чтобы активировать Windows, перенесите параметры компьютера.

5- rasm.

6-rasm.

**2- variant (6-rasm)**

1. (●) L, A7 aniqlanadi.
2. A4 (●) dan → yelka qirqimining davomida ko‘tarma balandligi qo‘yiladi. A4 V q 2-3,5 sm. - (●) V.
3. (●) L1V birlashtiriladi – bort qaytarmasining buklanish chizig‘i o‘miz chizig‘i bilan kesishgan - (●) F.
4. Qaytarmaning buklanish chizig‘iga parallel yoqa o‘miziga urinma o‘tkaziladi. Urinish nuqtasi - (●) F4, yelka chizig‘i bilan kesishgan nuqta (●) F5.
5. F5 (●) dan ↑ urinma bo‘ylab orqa yoqa o‘mizining uzunligi (chizmadan) 0,5 1 sm qo‘yiladi - (●) V1.
6. F4(●) dan markazdek ← V1 (●) dan yoy q V1V2: V1V2 q 1-3 sm – baland ko‘tarmali, shaklan jiddiy yoqalar uchun. V1V2q3.5-7 sm – shaklan yassi, past ko‘tarmali yoqalar uchun.



7. V2(●) dan yoqa o‘miziga urinma o‘tkaziladi. Jiddiy yoqalar uchun bu chiziq - yoqanining ulanish chizig‘i, boshqacha shaklli yoqalar uchun ulanish chizig‘i 0,5-0,8 sm. egiltirib o‘tkaziladi.
8. V2(●) dan ulanish chizig‘iga ⊥ ↑ - yoqanining o‘rtalagi chizig‘i.
9. V2(●) dan ⊥ bo‘ylab ↑ yoqa ko‘tarmasining va qaytarmasining kengligi o‘lchab qo‘yiladi – V3 va V4 nuqtalar.
10. Yoqa uchining holati (●) V5- modelga mos.

Nazorat uchun savollar:

1. Yoqalarning konstruktiv xususiyatlari nimada ko‘rinadi?
2. Yoqanining uzunligi nimaga bog‘liq?
3. Bo‘yinga yopishib turadigan tik yoqa qanday ketma-ketlikda chiziladi?
4. Bo‘yinga yopishib turadigan qaytarma yoqa qanday ketma-ketlikda chiziladi?

**33. Mavzu: Ayollar va erkaklar ko‘ylaklari yoqasini tikish.**

Reja:

- a. Ustki va ostki qismi alohida bichilgan yoqani tikish.
- b. Qaytarma va ko‘tarma qismi alohida bichilgan yoqani tikish.
- c. Adip qaytarmalgi yoqani tikish.
- d. Taqilmasi yoqagacha yetgan ko‘ylak yoqasini tikish.
- e. Ko‘ylaklar yenglarini tikish.



Ayollar ko‘ylagining yoqalari konstruktiv jihatdan qaytarma yoqa, shol yoqa, tik yoqa va matroscha yoqalarga ajratiladi. Gazlama turiga qarab ularga qotirma qo‘yiladi yoki qo‘yilmaydi. Yoqa o‘miziga ulanish usuliga qarab o‘tqazma va yaxlit bichilgan (old bo‘lak bilan va adip bilan) bo‘lishi mumkin. Yoqa tayyorlash 2 bosqichdan iborat:

1. Yoqa tayyorlash.
2. Yoqani yoqa o‘miziga o‘tqazish.

Yoqalar ustki va ostki qismi alohida bichilgan, yalang qavat va olib qo‘yiladigan bezak yoqalar turlariga bo‘linadi. Erkaklar va o‘g‘il bolalar ko‘ylagining ustki va ostki yoqasi orasiga qo‘shimcha qatlama qo‘yiladi. Yanada qattiqrok bo‘lishi uchun yana bir qavat qo‘shimcha qatlama yopishtiriladi. Keyingi qo‘shimcha qatlarning chetlari yoqaning ag‘darma chokiga qo‘shib tikilmasligi kerak. Yoqalarning qaytarma qismi bilan ustki va ostki qismi alohida yoki yaxlit bichilgan bulishi mumkin.


**Ustki va ostki qismi alohida bichilgan yoqani tikish.** Ustki va ostki yoqa alohida bichilgan bo‘lsa ularni o‘ngini ichkariga qaratib qo‘yib, yoqa burchaklarida ustki yoqadan 0,4 sm. solqi hosil qilib – 0,5 sm. kenglikdagi ag‘darma chok bilan tikiladi. Yoqa burchaklaridagi chok haqi chokka 2 mm. yetkazmay qirqiladi, o‘ngiga ag‘darib, ustki yoqadan 0,2 sm. kant hosil qilib buklangan ziydan 0,1 sm. naridan bostirib, ko‘tarmanning yuqori cheti ham tikiladi. (1-rasm.)

**Qaytarma va ko‘tarma qismi alohida bichilgan yoqani tikish.** Yoqaning qaytarma qismi bilan ko‘tarma qismi alohida bichilganda, tayyor yoqa qaytarmasini yoqa ko‘tarmasi 2 qismi orasiga to‘g‘rilab qo‘yiladi va o‘tqazilib (chok1), ayni vaqtida ko‘tarmanning yon chetlari ag‘darma chok bilan tikiladi. Ko‘tarma o‘ngiga ag‘darilib, ostki ko‘tarma yoqa o‘miziga o‘tqaziladi (chok 2), ustki ko‘tarmanning pastki qismi ostki ko‘tarma o‘tqazilgan chokni yopib, buklangan ziydan 0,1 sm. naridan bostirib, ko‘tarmanning yuqori cheti ham tikiladi (2-rasm, chok 3).




1-rasm. Ustki va ostki yoqani tikish. 2-rasm. Qaytarma va ko‘tarma qismi ag‘darma chok bilan ulash. alohida bichilgan yoqani tikish.

**Qaytarma va ko‘tarma qismi yaxlit bichilgan yoqani tikish.** Qaytarmasi bilan ko‘tarmasi yaxlit bichilgan yoqa ag‘darma chok bilan tikib olgandan keyin qo‘shimcha qatlama yoqa qaytarmasining ko‘tarmaga o‘tish chizig‘i bo‘ylab, yoqa uchlariga 3- 4sm. yetmaydigan qilib yelim uqa qo‘yiladi. Ustki yoqa qo‘shimcha qatlama bilan birga yoqa o‘miziga o‘tqaziladi (1). Ostki yoqanining pastki cheti 0,7 sm. bukiladi va ustki yoqa o‘tqazilgan chokni yopadigan qilib, buklangan ziydan 0,1sm oraliqda bostirib tikiladi (2) va yoqa tayyor bo‘lgandan keyin qaytarmaning ko‘tarmaga o‘tish chizig‘i bo‘ylab baxyaqator yurgiziladi (.3- rasm, chok 3).



3- rasm. Qaytarma va ko'tarma qismi yaxlit bichigan yoqani tikish.

**Adip qaytarmali yoqani tikish.** Adip qaytarmali yoqani o'tqazaetganda, adip bilan old bo'lak o'ngi ichkariga qaratilib juftlanadi va ular orasiga yoqani o'ngi yuqoriga qaratilib, adip tomonidan yelka chokigacha tikelishi bilan birga bort ham ag'darma chok bilan tikiladi. Ustki yoqanining chok haqi kertilib, qaytarib qo'yiladi va ostki yoqa ort bo'lak o'miziga o'tqaziladi. Ustki yoqa qirqim tomonga bukilib, ort bo'lak yoqa o'miziga bostirib tikiladi (4-rasm).




4- rasm. Adip qaytarmali yoqani tikish.

5-rasm. Taqilmasi yoqagacha yetgan yoqani tikish.


**Taqilmasi yoqagacha yetgan ko'ylik yoqasini tikish.** Taqilmasi yoqagacha yetgan ko'ylik yoqasini o'tqazishda ostki yoqa asosiy detall bilan o'ng tomonlari ichkariga qaratilib juftlanadi va qirqimlari tekislanib, kertimlari to'g'ri keltirilib, ostki yoqa tomonidan 0,7-1sm. kenglikdagi chok bilan o'tqaziladi (chok1). Ustki yoqanining qirqim tomondagи cheti ichkariga bukilib, ostki yoqa o'tqazilgan chokni yopadigan qilib, bostirib tikiladi (5-rasm ,chok 2).

**Yalang qavat yoqalarni tikish.** Yalang qavat yoqalarni turlicha tikish mumkin. Ularning yon va qaytarma qirqimlariga to'r qo'yib, siniq baxyaqator mashinada quyma chok bilan (a), mag'iz chok bilan (b), yoki yoqa qirqimlarini teskariga bukib, bostirib tikish mumkin (6-rasm, v).



6-rasm. Yalang qavat yoqalarni tikish.

**Yoqasiz kiyimlarning yoqa o‘mizini tikish.** Yoqasiz buyumda yoqa o‘mizi qirqimlarini shu yoqa o‘mizi shaklida bichib yoki qiya (tanda ipiga nisbatan 45 gradus burchak ostida) bichib olingen mag‘iz yoki beyka bilan ag‘darma chok solib, kant hosil qilib tikish mumkin. Avval mag‘iz bo‘laklari biriktirib tikiladi, chok haqi yorib dazmollanadi, keyin asosiy detal o‘ng tomonga o‘ngini pastga qilib to‘g‘rulanadi va ag‘darma chok bilan tikiladi. Chok mag‘iz tomonga bukilib, mag‘izning o‘ngidan ag‘darma chokdan 0,1-0,3sm. oraliqda bostirib tikiladi. Keyin mag‘iz buyumning teskari tomoniga qaytarilib, 0,1-0,2sm kenglikda kant hosil qilib dazmollanadi. Mag‘izning ichki qirqimlari buklab tikilgan (a), yoki maxsus mashinada yo‘rmalangan bo‘ladi (b). Keyin 52 mag‘iz asosiy detalga 7-8sm. oraliqda yashirin qaviq bilan qo‘lda chatiladi yoki maxsus mashinada tikib qo‘yiladi. Qalin gazlamalardan tikilgan kiyimning yoqa o‘mizini mag‘izli chok bilan (v) va ikki ignali mashinada beyka qo‘yib tikish mumkin 7-rasm, g).




7-rasm. Yoqasiz kiyimlar yoqa o‘mizini tikish.

### 34.Mavzu: Ayollar ko‘ylagi yeng asos chizmasini hisoblash va chizish.

Reja:

1. Ayollar ko‘ylagi yeng asosining loyixalash uchun kerakligi o‘lchovlar.
2. Bir chokli yeng asos chizmasini hisoblash va chizish.
3. Tor yeng asos chizmasini hisoblash va chizish.

Bir chokli yeng asosi chizmasi va uning uzunligini va kengligini o‘zgartirish.



Bir chokli yeng asosini chizish. Yeng asosi chizmasi va uning variantlari (uziq-uziq chiziqlar bilan) rasmida ko'rsatilgan. Zarur o'lcham belgilarining qiymatlari: Deng = 53,5 sm; Oel. = 29,1 sm; Obil. = 16,1 sm; yeng o'mizning vertikal diametri OO<sub>i</sub> = 17 sm (ko'yak asosining chizilishiga qarang); Yael.a. = 6 sm.

To'r chizish

1. Yeng kengligi: OO<sub>1</sub> = Oel+Pel.a=29,1 + 6=35,1 sm.
2. OO<sub>1</sub> nuqtalardan vertikal o'tkaziladi. Quyidagi bo'laklar o'lchab qo'yiladi: OP=OO<sub>1</sub> ort bo'lak chizmasidagi yeng o'mizining vertikal diametri — 2,5 = 1 7 sm — 2,5 = 14,5 sm (eng boshining balandligi); OM = Deng = 53,5 sm (eng uzunligi); OL = OM:2+5 = 53,5:2 + 2 ~ 31,8 sm (tirsak sathi). Gorizontal chiziq o'tkazib, kesishgan joylar R<sub>1</sub>, L<sub>1</sub>, M<sub>1</sub> nuqtalar bilan belgilanadi.
3. Yeng qiyamasining eng yuqori nuqtasi: OO<sub>2</sub> = OO<sub>1</sub>: 2+ 0,5~18 sm; tirsakning o'tish qismi: OO<sub>z</sub>= OO<sub>2</sub> : 2 ; old tomonning o'tish qismi: O<sub>1</sub>O<sub>4</sub> = O<sub>1</sub>O<sub>2</sub> : 2 . O<sub>2</sub>, Oz, O<sub>4</sub> nuqtalardan vertikal o'tkazib, kesishgan joylarga R<sub>2</sub>, J<sub>1</sub>2, M<sub>2</sub>, R<sub>1</sub>, L<sub>z</sub>, M<sub>3</sub>, P<sub>p</sub>, M<sub>4</sub> nuqtalar qo'yib belgilanadi.


Yeng boshini chizish

4. O<sub>2</sub>O<sub>5</sub>= O<sub>2</sub>O<sub>3</sub> :2; O<sub>2</sub>O<sub>6</sub> = O<sub>2</sub>O<sub>4</sub> :2+1,5.
5. R<sub>1</sub>O<sub>7</sub> = G<sub>2</sub>P<sub>2</sub>(chizmadan olinadi); P<sub>p</sub>O<sub>8</sub> ~G<sub>3</sub>P<sub>1</sub> (chizmadan olinadi).
- 6 . O<sub>7</sub> nuqtadan chapga, O<sub>8</sub> nuqtadan o'ngga 0,5 sm dan o'lchab qo'yiladi.
7. O<sub>5</sub>, 0,5, R; O<sub>6</sub>, 0,5, R nuqtalarni yordamchi to'g'ri chiziq bilan birlashtiriladi. R— 0,5 va R<sub>1</sub>, — 0,5 qism ikkiga bo'linadi; 1 sm va 2—2,5 sm ga teng bo'lgan perpendikulyar o'tkaziladi; O<sub>5</sub> va O<sub>6</sub> burchaklar bissektrisasi bo'ylab 1 — 1,2 sm va 1,5 — 2 sm ga teng kesma o'lchab qo'yiladi.
- 8 . Yordamchi va asosiy nuqtalar orqali yeng boshi ravon chiziqlar bilan shakli keltirib chiziladi (chizmaga qarang).

Yeng uchini chizish

9. Yengni tirsakning o'tish qismi bo'ylab M<sub>3</sub> nuqtadan 1 sm uzaytiriladi. Yeng uchi old tomon o'tish qismi bo'ylab M<sub>4</sub> nuqtadan yuqoriga 1 sm qisqartiriladi. Yeng uchi ravon chiziq bilan chizib olinadi. Kalta, toraytirilgan, kengaytirilgan yenglarning chizilishi qo'shimcha chiziqlar bilan ko'rsatilgan.

Past tomoni tor, tirsakda vitachkasi bor bir chokli yeng chizmasini chizish.



#### Tor yeng chizmasini chizish (rasm)

1. To'r bilan yeng boshi xuddi asosdagidek chiziladi.

2. O'rta chiziqning og'ishi: M 2M z = 3 sm. L 2, M3 nuqtalar birlashtiriladi.

3. M3 nuqtadan L2M3 ga perpendikulyar o'tkaziladi. Bu chiziqda  $M3M4=M3M5= 1/2$  Opan = 11 sm kesma o'lchab qo'yiladi. Kesmani ikkiga bo'lib, M6M7 nuqtalar hosil qilinadi.

4. R 1M 4 bilan birlashtiriladi. Pastga 1 sm davom ettiriladi. Bu chiziq M6 nuqta bilan birlashtiriladi; tirsak darajasida 1 sm ga teng botiq joy hosil qilib, yengning old qirqimi chiziladi.  
 5. Tirsak qirqimining og‘ishi: L L 5 = 2 sm, R , L 5, M5 nuqtalar biriktiriladi.

6. L3 nuqtadan L 5M 5 chizig‘iga A perpendikulyar tushiriladi. Bu chiziqni davom ettirib, L 3 L 6= L 3L 5( L 3 L 6 L 5M 5 ) o‘lchab qo‘yiladi.

7. L6M5 nuqtalarni birlashtirib, pastga davom ettiriladi; bu chiziq M7(M7M'5M5L6) bilan birlashtiriladi; yeng uchi ravon chiziq bilan chiziladi. Uzunligi tirsakkacha bo‘lgan tor yengning shakli yordamchi chiziqlar

bilan ifodalangan. O2K — uzunlik; K1K 3= K2K4= 1—1,5 sm. O'tkazma yeng bitta detaldan tuzilgan – bir chokli, ikkita detaldan – ikki chokli va uchta detaldan tuzilib uch chokli bo'lishi mumkin. Lekin yenglarning hamma xillari bitta asosda quriladi.

## Nazorat uchun savollar:


1. Buyum yengining shakllari qanday bo‘lishi mumkin?
  2. O‘tkazma yeng asosini chizish uchun qanday asosiy o‘lchovlar va qo‘srimchalar kerak bo‘ladi?

### **35. Yenglarni texnik modellashtirish.**


Reja:

1. Yuqoriga va etagiga kengaygan (fonarik) yengni modellashtirish.
  2. Etagiga kengaygan yengni texnik modellashtirish.
  3. Yuqoriga kengaygan yengni modellashtirish.


Turli shakldagi yenglarning loyihasi xuddi shunday bichimdagi yeng loyihasi asosini texnik modellash usuli bilan hosil qilinadi.



Yuqoriga va etagiga kengaygan (fonarik) yengni modellash quyidagicha bajariladi. Asos yeng chizmasi qog'ozga tushirib olinadi. Unda o'rta chiziq o'tkaziladi. Shu o'rta chiziq bo'y lab 20-35 sm yeng uzunligi o'lchab qo'yiladi. Shu o'rta chiziq bo'y lab qirqma hosil qilinadi. Yeng ikki bo'lakka ajratilib, model bo'yicha 10-12 smga kengaytiriladi. Yengning bosh qismi egriligi o'rtasidan 1, 5-2, 5 sm ko'tarilib to'g'rilanadi. Yengning etak qismi ham huddi shunday miqdorga tushiriladi va yeng etak egri chizig'i yaxshilab o'tkaziladi.



Etagiga kengaygan yengni texnik modellash tirishda yeng asosini qog'ozga tushirib olinadi. Yeng o'rta chizig'i o'tkaziladi. Bu o'rta chiziqda yeng uzunligi 20-45 sm qo'yiladi va o'rta chiziqlar parallel qilib 3-7 ta qirqim chiziqlari o'tkaziladi. O'tkazilgan chiziqlardan qirqma hosil qilinadi, bu qirqma yeng boshi egriligiga 0, 3-0, 5 sm yetmasdan to'xtatiladi. Hosil bo'lган bo'laklar 3-6 smga ochiladi. Yengning etak qismi egriligi tekis ravon egri chiziq qilib tutashtiriladi. Bunday yengning bo'y ipi o'rta chiziqda yoki unga nisbatan o burchak ostida tushishi kerak.




Yuqoriga kengaygan yengni modellash uchun yeng asosini va o'rta chiziqni qog'ozga tushirib olinadi. O'rta chiziqqa yeng uzunligi 20-45 sm qo'yiladi. Shu o'rta chiziqqa parallel qilib 2-6 ta chiziq o'tkaziladi va yeng boshi egri chizig'idan boshlab yeng etagiga 0, 3-0, 5 sm yetkuncha qirqib boriladi. Yeng bo'laklari 3-6 smga ochiladi. Yengning yuqori egriligi ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi. Bunda yeng boshi chizig'i 3-5 smga ko'tariladi. Yenglarning shakli, ko'rinishi, bezaklari kiyim fasoniga, gazlamaning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Yenglarni qanday modellash mumkin?
2. Yuqoriga va etagiga kengaygan (fonarik) yengni modellash haqida aytib bering.

### 36. Mavzu. Ko'ylaklar yenglarini tikish texnologiyasi.


**Ko'ylaklar yenglarini tikish.** Ko'ylaklar bichimi yeng konstruksiyasi tuzilishiga va yeng o'mizining o'yilishiga qarab **o'tqazma yengli, reglan yengli, ort va old bo'laklari bilan yaxlit bichilgan yengli** bo'lishi mumkin. Yenglar tor, keng, yeng uchi ulanma, qaytarma manjetli, manjetsiz, terib burma hosil qilingan, taqilmali, uzun, kalta bo'lishi mumkin. Ular bir, ikki va uch chocli bo'ladi. Bir choclining chochi ostki tomonda, 2 choclining yeng oldi va tirsak chocli yoki ustki o'rta choc va ostki chocli bo'ladi. Bukib tikiladigan yeng uchlari andazayordamida bo'rlanadi. Yeng uchining qirqimi teskariga 0,7-1 sm. bukilib va bukish chizig'i bo'ylab yana bukib 0,1-0,2 sm. kenglikda bostirib tikiladi ( a ). Ipak va jun gazlamadan tikilgan bo'lsa yopik qirqimli qilib yashirin baxyali mashinada bukib tikiladi ( b ). Yeng uchi qaytarmalgi bo'lsa, belgi chiziq qaytarma kengligidan 2 baravar ortiq kenglikda choc haqi qo'shib belgilanadi. Yeng qirqimi teskari belgi chiziq bo'ylab bukiladi va sirma qaviq bilan ko'klanadi, yoki ko'klanmay maxsus igna bilan qadab qo'yiladi. Bukish haqi 0,5-0,7 sm. kenglikda teskariga bukiladi va ziyidan 0,1- 0,2 sm. kenglikda bostirib tikiladi ( v ). Yeng uchida bukish haqi qoldirmay bichiladigan yenglarning uchiga mag'iz qo'yib tikiladi. Mag'iz ag'darma choc bilan yeng uchiga tikiladi, choc haqi mag'iz tomonga qaytarilib, ag'darma chocdan 0,1-0,2 sm. oraliqda mag'izga bostirib tikiladi. Qalin gazlamadan tikiladigan bo'lsa ochiq qirqimi yo'rmalanadi va maxsus yashirin baxyali mashinada tikiladi ( g ). Yeng uchini mag'iz choc bilan tikishda, mag'iz buklagich yordamida bukilib, 1 ta baxyaqator bilan tikiladi ( d ). Yeng uchiga elastik tasma qo'yilsa, yeng uchi yopiq qirqimli qilib bukilib, bir yula ichiga elastik tasma qo'yib tikiladi ( e ). Yeng uchiga bezak yoki asosiy gazlamadan bichilgan beyka maxsus moslama yordamida, qirqimlari ichkariga 0,7 sm. bukilib, bostirib tikiladi ( 8-rasm, j ).



8-rasm. Yenglar uchini tikish.

**Yengni yeng o'miziga o'tkazish.** Yengni yeng o'mizi ichiga kiritib, ularning o'ngini ichkariga qaratib qo'yiladi va yeng tomondan maxsus mashinasida ustki materialdan qiyalama qismida solqi hosil qilib, yeng o'miziga 1,2-1,5 sm. kenglikdagi chok bilan o'tqaziladi. Hosil qilingan yeng solqilari dazmolda yoki pressda kirishtirib dazmullanadi (ip gazlamadan tikilgan bo'lsa kirishtirib dazmullanmaydi). Bir chokli yenglarni o'mizga o'tqazishda yeng choki yon chokiga to'g'ri keltirib o'tqaziladi, chok qirqimlari yo'rmalanadi.

**Yengsiz ko'yylaklarning yeng o'mizini tikish.** Yeng o'mizini mag'izli chok yoki mag'iz qo'yib ag'darma chok bilan tikish mumkin. Mag'izli chok bilan tikishda, yelka qirqimlari tikilgandan keyin mag'izni maxsus buklagich yordamida bukib, uning orasiga yeng o'mizi qirqimini to'g'rilib, bitta baxyaqator yuritib tikiladi (Rasm 9 ,a ). Yeng o'miziga mag'iz qo'yib ag'darma chok bilan tikishda asosiy detalning o'ngiga mag'izning o'ngini qaratib, qirqimlarini to'g'rilib ag'darma chok bilan tikiladi. Chok haqini mag'iz tomonga bukib, ag'darma chokdan 0,1 sm oraliqda mag'izga bostirib tikiladi. Mag'iz detal teskarisiga o'tkaziladi va asosiy detaldan 0,1-0,2 sm kenglikda kant hosil qilib dazmullanadi. Mag'izning ichki tomonidagi qirqimi universal mashinada 0,1 sm. kenglikda bukib tikiladi (Rasm 9, b) yoki maxsus mashinasida yo'rmalanadi.



9-rasm. Yengsiz ko'yylaklar yeng o'mizini tikish.

Nazorat uchun savollar:


1. Qaytarmasi bilan ko'tarmasi alohida bichilgan yoqa, yoqa o'miziga qanday ulanadi?
2. Yalang qavat yoqlarning qirqimlariga qanday ishlov beriladi?
3. Yengning qanday konstruksiyalarini bilasiz?
4. Yengda qanday manjetlar bo'ladi?

### 37.Mavzu: Qiz bolalar tungi ko'yylak andazasini chizish.

Reja:

1. Tungi ko‘ylak uchun quyidagi qo‘sishchalari.
2. Tungi ko‘ylak asosi chizmasini chizish.

Chiroyli, qulay, sifatli tikilgan uy kiyimi kishini kayfiyatini ko‘taradi, uy ishlarini yuritishga qulay bo‘ladi. Uy kiyimi ham moda ta’sirida bo‘ladi va kiyimning aynan shu vaqtga urf bo‘lgan bichimi uzunligi xillari unga ham aks etadi. Tungi kiyimga tungi ko‘ylaklar, pijamalar kiradi. Harir ochiq rangli, yumshoq gazlamalar turlar, kashtalar, quyma burmalar aylol kishi qiyofasiga noziklik, tiniqlik baxsh etadi. Rasmda qiz bolalarning tungi ko‘ylagi chizmasining asosi tasvirlangan. Bu chizmani chizish uchun quyidagi o‘lchamlar kerak: Sb, CkII, Dor.b., Dk, Dyuu Oel, Sk. Tungi ko‘ylak uchun quyidagi qo‘sishchalalar kerak: Pk= 6 — 8 sm; Pel(qo‘sishimcha)= 5—7 sm.



Tungi ko‘ylak asosiy chizmasini chizish.

1. AoA = Sk11:2 + Pk:2 (kiyim kengligi);
- 2 . AoT = Dor.bl. (bel uzunligi);
3. TN=Dyu
4. Ikki tomoniga to‘g‘ri to‘rtburchak chiziladi;
5. AoA = Sb:3 + 1 (yoqa o‘miz kengligi);
- 6 . AoA1 = AoA:3 (ort bo‘lak yoqa o‘miz chuqurligi);
7. A o A5 = Sb:3 + 2 (old bo‘lak yoqa o‘miz chuqurligi);
8. Ravon chiziqlar bilan yoqa o‘mizining shakli chizib olinadi: ort bo‘lak uchun AA1 old bo‘lak uchun AA5;
9. aG=Oe:2+Pel (eng o‘miz chuqurligi);
10. aa1 = GG = 5 — 6 (eng uzunligi);
11. GG 2 = GG1;
12. G1Gz = G1G2 : 2;
13. GzG4 = 1,5 sm;
14. N1N 2 = 10 —12 sm (kiyimning etak tomonga kengaya borishi);
15. N 2 N 3 = 1 ,5 — 2 sm (yon chokning past tomondagi holati);
16. G1, G 4 , G2, Gz nuqtalar orqali yon qirqim shaklini chiziladi;
17. Kiyim etagi ravon chiziq bilan chiziladi;
18. T nuqtadan o‘nga gorizontal chiziq o‘tkazib, chiziqlar kesishgan joyga T1 nuqta qo‘yiladi.
19. T 1T2 = 1 , 5 - 2 sm.
20. Etak chizig‘iga parallel qilib bel chizig‘i chiziladi.


Nazorat uchun savollar:


1. Uy kiyimi qanday bo‘lishi kerak?
2. Tungi ko‘ylak asosiy o‘lchamlarini aytинг?

### **38.Mavzu: Qiz bolalar tungi ko‘ylagini tikish texnologiyasi.**


Reja:

1. Qiz bolalar tungi ko‘ylagani modellashtirish.
2. Qiz bolalar tungi ko‘ylagani bichish.
3. Qiz bolalar tungi ko‘ylagani tikish.





**Qiz bolalar tungi ko'yak namunalari.**



Qiz bolalar tungi ko'yagi andazalarini tayyorlash.  
Qiz bolalar tungi ko'yagi bo'laklari spesifikatsiyasi.

Bo'lak nomi	Belgisi	Soni	
		Andazada	Bichiqda
<b>Ort va old bo'laklar</b>	<b>01</b>	<b>1</b>	<b>1</b>
<b>Ort va old bo'lak adip</b>	<b>02</b>	<b>1</b>	<b>1</b>

**Qiz bolalar tungi ko'yak bo'laklariga qo'yiladigan chok haqqi miqdori.**

Tungi ko'yak bo'laklari	Chok haqqi qo'yiladigan qirqimlar	Chok miqdori sm
1. Old va ort bo'lak yon qismi	- Yoqa o'mizi qirqimi; - Yeng o'miz qirqimi; - Yon qirqimi; - Etak qirqimi.	0,7 2,0 1,5 2,0

2.Old va ort bo'lak adip.	- etak qirqimi.	2,0
---------------------------	-----------------	-----

**Tungi ko'ylagi uchun model tanlash, modellashtirish, va andazasini tayyorlash usullarini o'rgatish.**


Nº	Bajariladigan ishlar	Moslamalar, asbob va xom ashyolar	Eskizlar (chizma, rasm)	Bajarish tartibi
1	Moda jurnallaridan foydalanib, qiz bolalar ko'ylagi moda yo'nalishini tahlil qilish va tungi ko'ylagi uchun model tanlash.	Moda jurnallari, multimedia materiallari.		Moda jurnallari va multimedia materiallariidan foydalanib qiz bolalar ko'ylagi moda yo'nalishini tahlil qilish va xalat uchun model tanlash.
2	Tanlangan ko'ylagi eskiz rasmini chizish.	Qog'oz, qalam, o'chirg'ich.		Tanlangan eskiz rasmini texnik shartlarga rioya qilgan holda chizish.

#### **Qiz bolalar ko'ylagi andazasini tayyorlash.**

1	Qiz bolalar ko'ylagi ort va old bo'laklar andazasini tayyorlash.	Ayollar asos konstruksiyasini modellashtirilgan chizmasi, kalka qog'oz, qalam, oddiy va shakldor chizg'ichlar, qaychi.		Qiz bolalar ko'ylagi ort va old bo'laklar qirqimlaridan: - yelka qirqimi 1,0 sm; yoqa o'miz qirqimi 0,7 sm; yon qirqim 1,0 sm; etak qismini ulash qirqimi 1,0 sm chok haqqi qoldirib chiziladi. - chizilgan chiziq bo'ylab andaza kesiladi, andazada tanda ipi yo'nalishi va bo'lak raqami qo'yiladi.
---	--	--	--	---




2	<p>Ort va old bo'lak bo'yin o'mizi adip taglik andazasini tayyorlash.</p>	<p>Ayollar asos konstruksiyasini modellashtirilgan chizmasi, kalka qog'oz, qalam, oddiy va shakldor chizg'ichlar, qaychi.</p>		<p>Ort va old bo'laklar bo'yin o'mizi adipi qirqimlaridan: bo'yin o'mizi qirqimlaridan 1,0 sm; yelka qirqimidan 1,0 sm; ochiq qirqimidan 0,3 sm; choc haqqi qoldiriladi.</p>
---	---	---	--	--


Tejamli joylashma tayyorlash uchun ma'lum qoidalarga rioya qilish kerak. Ayniqsa, andazalarning shakli katta ta'sir ko'rsatadi. Murakkab shaklli andazalarni joylashtirganda chiqindilar soni ko'payadi. Kiyimning mayda detallari ko'p bo'lsa, ularni bo'sh joylarga joylashtirib, chiqindi sonini kamaytirish mumkin. Kiyimdagagi simmetrik joylashgan detallarning gullari bir xil joyga to'g'ri kelishi kerak. Bobrik, baxmal, chiyduxoba kabi gazlamalardan tikilgan kiyimlar barcha detallarining tuki yuqoriga yo'nalgan yuo'lishi kerak, aks holda kiyimning ko'p ishqalanadigan joyi yaltirab ketadi. Tuki uzun bo'lsa pastga qarab turadigan qilib bichish kerak. Gulsiz sidirg'a gazlamalarni bichishga mo'ljallangan joylashmada andazalar qarama-qarshi joylashtirilsa ham bo'ladi. Agar bichilgan gazlama yo'l-yo'l yoki katak bo'lsa, tikilayotganda yo'llari yoki kataklarini to'g'ri keltirish uchun detallar mo'ljaldagidan kattaroq qilib bo'rlanadi.



Qiz bolalar ko'ylagi andazasini gazlamaga joylashtirish.

**Qiz bolalar tungi ko‘ylagini bichish.**





<b>Nº</b>	<b>Bajarildigan ishlar mazmuni</b>	<b>Moslamalar, asbob va xom ashyo</b>	<b>Eskizlar, rasmlar)</b> <b>(chizmalar,</b> <b>rasmlar)</b>	<b>Bajarish tartibi</b>
1	Gazlamani namlab dazmollash.	Gazlama 150*65 sm Dazmol		Gazlama namlanib, tanda ipi yo‘nalishida dazmollanadi.
2	Gazlama nuqsonlarini aniqlash, bo‘yi va enini o‘lchash. Gazlamani bichuv stoliga joylashtirish.	Bo‘r, sm lenta, bichuv stoli		Gazlama o‘ng tomonidan nuqsonlari teshik, ip va bo‘yoqlar bir tekisligi tekshiriladi.
3	Gazlamaga ko‘ylak yirik bo‘laklarini joylashtirish.	Bichuv stoli, gazlama, bo‘laklar andazasi, to‘g‘nog‘ich.		Ko‘ylak ort, old, yon andazalari gazlama ustiga joylashtiriladi. Bunda bo‘laklar tanda ipi yo‘nalishi bilan ustma-ust tushishi kerak.

4	Gazlamaga ko‘ylak mayda bo‘laklari andazalarini joylashtirish	Bichuv stoli, gazlama, bo‘laklar andazasi, to‘g‘nog‘ich		<p>Ko‘ylak mayda bo‘laklari andazasi (ort va old bo‘lak adip,) gazlama ustiga joylashtiriladi. Bunda bo‘laklar gazlama tanda ipi yo‘nalishi bilan ustma-ust tushishi kerak. Mayda bo‘laklar andazalari yirik bo‘laklar andazalari orasiga juda oz qiyqim chiqadigan qilib joylashtiriladi.</p>
5	Qiz bolalar tungi ko‘ylak bo‘laklarini qirqish.	Qaychi		Tungi ko‘ylak bo‘laklarini o‘tkir qaychi yordamida qirqib olish.


#### Qiz bolalar tungi ko‘ylagi mayda bo‘laklarini tayyorlash.



№	Bajariladigan ishlar mazmuni	Moslamalar,	Eskizlar, chizmalar, rasmlar	Bajarish tartibi
1	Bo‘yin o‘mizi adip tagligiga yelimli qotirmani yopishtirish.	asboblar va xom ashyolar		Bo‘yin o‘mizi adip tagligi teskari tomoniga yelimli qotirma qo‘yiladi va nam dazmolmato orqali dazmollanadi.
2	Bo‘yin o‘mizi adip tagligi ochiq qirqimini yo‘rmalash.	Maxsus mashina, qaychi.		Bo‘yin o‘mizi adip tagligi ochiq qirqimi maxsus mashinada o‘ng tomondan yo‘rmalanadi.

#### Qiz bolalar tungi ko‘ylagini tikish.


1	Adip taglikni adipga tikish.	Universal mashina , ip, qaychi.		Bo‘yin o‘mizi adipiga adip uchi o‘ngi ichkariga qarayib qo‘yiladi qirqimlari tenglanib, 0,7 sm chok kengligida biriktirma chokda tikiladi.
2	Adip taglik chok kengligini dazmollahash	Dazmol, dazmolmato.		Adip taglik chok kengligi adip tomonga yotqizib dazmollanadi.
3	Bo‘yin o‘mizi chok kengligiga kertim berish.	Qaychi		Ko‘klangan iplar olib tashlanib, chokka 0,1-0,2 sm yetkazmay kertim beriladi.
4	Bo‘yin o‘miziga chok kengligini bostirib tikish.	Universal mashina , ip, qaychi.		Bo‘yin o‘miziga chok kengligi yotqizib, chokdan 0,1-0,2 sm kenglikda bostirib tikiladi.
5	Bo‘yin o‘miz choklarini dazmollahash.	Universal mashina, ip, qaychi.		Bo‘yin o‘mizidan 0,1-0,2 sm kant chiqarib teskari (adip taglik) tomonidan dazmollanadi.
6	Etak, yeng o‘miz uchini, bukib tikish.	Universal mashina , ip, qaychi.		Etak, yeng o‘miz uchini yana bir marotaba bukib, bukma ziydan 0,1-0,2 sm kenglikda bostirib tikiladi.
7	Eng o‘miz choklarini dazmollahash.	Dazmol, dazmolmato.		Etak, yeng o‘mizi choklari dazmollanadi.

### Ort va old bo‘laklarini biriktirib tikish.

1	Ort va old bo‘lak qirqimlarini tikish.	Universal mashina , ip, qaychi.		Ort va old yon qirqimlarining o‘ngi ichkariga qaratib, qirqimlari tenglanib, 1,0 sm chok kengligida biriktirma chokda tikiladi.
---	--	---------------------------------	--	---

2	Yon qirqimlarini yo'rmalash.	Maxsus mashina, ip, qaychi.		Yon qirqimlari maxsus mashinada yo'rmalanadi.
3	Yon qirqimlari maxsus mashinada yo'rmalanadi.	Dazmol, dazmolmato.		Yon choklari bir tomonga yotqizib (ort bo'lakka) dazmollanadi.

### Oxirgi ishlov berish va NIIB

1	Qiz bolalar tungi ko'ylagini so'nggi pardozlash.	Qaychi		Qiz bolalar tungi ko'ylagini o'ngi va teskarisidan qolgan iplari qirqib tashlanadi va NIIB beriladi.
---	--	--------	--	--

Nazorat uchun savollar:

1. Qiz bolalar tungi ko'ylagini bichish uchun gazlamani tayyorlash jarayoni qanday?
2. Gazlamaga andazalar qanday joylashtiriladi?
3. Qiz bolalar tungi ko'ylagini NIIB berish usullarini aytинг.

### 39. Mavzu; Bolalar pijamasi chizmasini xisoblash va chizish.

Reja ;

1. Bolalar kiyimlari uchun gazlama tanlash.
2. Bolalar yosh guruxlari turlari.

Har qanday sharoitda ham kiyimlarning har turli qilib tikilishi maqsadga muvofiqdir, kiyim estetik jixatdan to'g'ri tanlanishi kerak. Har bir xalqning o'z milliy kiyimi bo'lib ob havosiga mos ravishda tikiladi.



Bolalarning yosh guruhlari

Nº	O'sish davri	Qiz bolalar	O'g'il bolalar
----	--------------	-------------	----------------




1	Chaqaloqlik	1 yoshgacha	1 yoshgacha
2	Yasli yoshi	1-3 yosh	1-3 yosh
3	Maktabgacha yosh davri	3-7 yosh	3-7 yosh
4	Kichik mакtab yoshi davri	7-11 yosh	7-12,5 yosh

Bolalarning tanasi, tana kengligining konkret qismlari va kiyim tuzilishi ularning turli yoshidagi tana asoslariga bog'liqdir. Yosh bolalar yil sayin har xil rivojlanadilar. Bo'y uzunligi, oyoq, qo'l va boshning tuzilishi asosan bolalar yoshini harakterlaydi. Shu sababli bolalarni yuqorida keltirilgan jadval bo'yicha yoshga ajratiladi. Har bir yoshdagilarni kiyimi o'z harakteristikasi (tavsifiga)ga ega. 3 yoshgacha bolalar kiyimi matosi, rangi tuzilishi bo'yicha farqlanib, bunda kattalarning ularga bo'lgan mehr-muhabbati aks etgan bo'lishi kerak. Maktab yoshigacha davridagi bolalar kiyimi to'qigan, tez o'sayotgan hayotni seuvvchi «bu nima» deb ko'p savol beraveradiganlar tavsifiga binoan bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalar kiyimi bitta bir xil maktab formasidan iborat bo'ladi. Bunda bola o'qishga, hayotga, o'ziga, yon atrofdagilarga, kollektivga qiziqib kirishishi kerak. Katta yoshli maktab o'quvchilarning kiyimi kollektivga moslashishi uchun o'ziga xos, mos hamma o'quvchilar qatori bo'lishi kerak. Bunda juda ko'p variantlar bo'lishi mumkin. O'smirlar foydali mehnat qilishi bilan birga o'zlarini katta ya'ni balog'atga yetganlarini tushunadilar, shu sababli ularning kiyimlari katta yoshlilarning modasiga muvofiq tikilishi kerak. Bolalar – bu bizning hayotimiz davomchilari va biz bilan birga yashaydigan kichkina odamchalaradir, ularning kiyimlari ham biz katta yoshlilar bilan bir xil bo'lishi kerak, faqat yoshni hisobga olgan holda. Umuman olganda bolalar kiyimi moda o'zgarishiga qarab tikilmaydi, kattalarniki singari bolalar kiyimi kattalarnikidan ozgina farqlanadi, yangi modada bo'la oladi va bu unga xushchaqchaq bo'lib yashashiga xalaqit qilmaydi, hayotda emin-erkin yashashiga yordam beradi. Yosh bolalar kiyimi XIX asrdan boshlab asosiy belgilar orqali ajrala boshladi. Bu vaqtgacha qiz bolalar kiyimi, asosida to'g'ri burchak shaklda, keng yengil, o'g'il bolalarniki keng oq ko'yak va ishtondan iborat edi.

#### 40.Mavzu; Bolalar pijamasini tikish texnologiyasi.

**Yosh bolalarning kiyimi va matolariga quyiladigan talablar.** Yosh bolalar kiyimlari turli xil matodan (trikotaj, sun'iy va tabiiy jundan, yupqa materiallardan, sun'iy va tabiiy zamsh va teridan tanlanadi). Ularga qo'yiladigan umumiy talablar: o'rtacha massa, badanga yoqimli bo'lishi, ochiq rangli, yengil, yumshoq, xushchaqchaqlik baxsh etuvchi, organizm uchun zarar qilmaydigan va hokazo. Gazlama va trikotaj materiallar yosh bolalar kiyimini ishlab chiqishda juda keng qo'llaniladi. Quyida gazlamaning muhim jihatlariga ko'ra tanlashni ko'rib chiqamiz: matoni loyihalashda asosiy ya'ni igenik, estetik va fizikaviy, mexanik talablarga har jihatdan javob berishi kerak.





Gazlamaning tashqi ko‘rinishi, iqlim sharoitlariga javob berishiga qarab, materialga bo‘lgan talablar turlichadir. Ichki kiyimli matolar (paxtali va ipakli) havoni yaxshi o‘tkazadigan, yengil, yumshoq tanaga mayinlik baxsh etuvchi bo‘lib, ularni och va pushti ranglarga bo‘yashadi. Ustki kiyimlar matolari, qishda sovuq o‘tkazmaydigan, tanaga yopishibroq turadigan, yengil va yumshoq bo‘lishi kerak. Sintetik gazlamalar va boshqalar ochrang va ko‘zga xush yoqadigan ranglarga bo‘yaladi.


#### **41. Mavzu: To‘g‘ri 2 chokli yubka asos chizmasini hisoblash va chizish.**

Reja:

1. Yubkalar haqida ma’lumot.
2. To‘g‘ri 2chokli yubkani loyihalash uchun kerakli o‘lchovlar.
3. To‘g‘ri 2chokli yubka asos chizmasini hisoblash va chizish.

Beldan boshlab kiyiladigan kiyimlarga avvalo yubkalar, yubka-shimlar, lozimlar, shimlar, trusiklar, shortiklar va shalvar, tizzagacha bo‘lgan shim, boldirgacha bo‘lgan shim, songacha bo‘lgan shim va hokazolar kiradi. Yubkalar asosan ko‘ylakning etak qismi bo‘lib, alohida tayyorlanadigan buyumdirHozirgi vaqtida asosan yubkalar 2 xil: To‘g‘ri bichimli, trapesiya shaklida 3 xil usulda tayyorlanadi. 1. To‘g‘ri bichimli yubka, 2. Bo‘lakli yubka, 3. Klyoshli yubkalar. To‘g‘ri bichimli yubkalar ko‘proq kuz, bahor, qishga mo‘ljallangan bo‘lib bunda bo‘y ipi yubkaning bo‘yi bo‘yicha yo‘nalgan bo‘ladi. Bo‘lakli yubkalar bir necha bo‘lakdan iborat bo‘lib, ularga 4-,6-,8 va undan ortiq bo‘lakli yubkalar misol bo‘ladi. Klyoshli yubkalar – bo‘yi ipi turlicha yo‘nalgan bo‘ladi. Etak tomonga kengaygan bo‘lib, «Qo‘yosh”, “Yarim kuyosh”, “Konussimon” yubkalar kiradi. Hozirgi zamon yukalari bezaklari burma, koketka, taqilma, qirqim, furnituralardan, ranglarni mutanosibligini moslab olish, gazlamalarni moslab olish, gazlamalarga e’tibor berib bichimi uzun yoki qisqa, kengligi o‘ta yoki tor bo‘lib, yangi zamonaviy gazlamalardan foydalilanildi. Konstruktiv dekorativ bo‘sliqlar o‘z navbatida 2 ga bo‘linadi: konstruktiv, dekorativ. Konstruktiv bo‘sliqlarda kiyimning bichimi hisobga olinadi. Masalan: kiyimning bichimi bo‘lishi mumkin to‘g‘ri gavdaga yopishgan va gavdaga sal yopishgan. Bu yerda to‘g‘ri bichimga eng ko‘p qo‘shimcha beriladi. Dekorativ bo‘sliqlarga kiyim bezaklari uchun beriladigan bo‘sliqlar kiradi. Masalan: burmalar, taxlamalar, buflar, vaflilar, xokozolar uchun beriladi.

To‘g‘ri bichimli yubka chizmasi. Turli fasondagi yubkalarning loyihasini yaratish uchun ikki chokli to‘g‘ri bichimli yubka loyihasining asosi ishlatiladi. Bu yubkani loyihalash uchun gavdadan olingan quyidaga o‘lchovlar kerak bo‘ladi. Yubka asosi chizmasini chizish uchun 46-razmer (rost 158 sm; Ok11 — 2 sm; Obuk — 100 sm; Obl — 71 sm) o‘lcham belgilarini olamiz: Sbl = 35,5 sm; Sbo‘k = 50 sm (qorin chiqqanini hisobga olib); Dyu = 60 sm. Bemalol turish uchun qo‘shimchalar: Pob = 2 sm; Pbo‘k = 1 ,5 sm (juda yopishib turadigan); Yabo‘k = 2 —3 sm (sal yopishib turadigan); P bo‘k=3,5 sm va ortiq (yopishib turmaydigan). Yubkalarni loyihalashda gavdaning bo‘ksa tuzilishini hisobga olish kerak. Tipoviy gavdalardan tashqari dumbasi turtibroq chiqqan, bo‘ksasi kengroq yoki torroq gavdalar bo‘ladi. Bunday hollarda gavdani o‘lchayotganda yozuvlarga maxsus belgilari qo‘yib boriladi, chunki o‘lchovlarning o‘zida bunday xususiyatlar aks etmagan bo‘ladi. To‘g‘ri bichimli yubka asosini chizish.



1. Vertikal chiziladi;  $TN = Dyu = 60 \text{ sm}$ ;  $TB = 16-18 \text{ sm}$  o'lchab qo'yiladi; T, B, Ya nuqtalari orqali gorizontallar o'tkaziladi.
2. Yubkaning bo'ksa chiziqlari bo'ylab kengligi:  $BB_1 = S_{bo'k} + P_{bo'k} = 50 + 1,5 = 51,5 \text{ sm}$ . B1 nuqtasidan vertikal o'tkaziladi; T1, B1, H1 nuqtalar belgilanadi.
3. Yon choki:  $BB_2 = BB_1 : 2 - 1 = 51,5 : 2 - 12 \sim 24,8 \text{ sm}$ . Vertikal o'tkaziladi, T2, N2 nuqtalar belgilanadi.
4. Ortki vitachkaning holati:  $BB_3 = 0,4$ ,  $BB_2 \sim 10 \text{ sm}$ ; vitachkaning o'q chizig'i bo'ladigan vertikal o'tkaziladi; T3 belgilanadi; B3 nuqtasidan yuqoriga 2 sm o'lchab qo'yiladi.
5. Old vitachkaning holati:  $B_1 B_4 = 0,4 B_1 B_2 = 10,7 \text{ sm}$ . Gavda tuzilishini hisobga olib, vitachkani yon choki tomonga 3—5 sm surish mumkin; vertikal o'tkaziladi; T4 nuqta belgilanadi; B4 nuqtadan yuqoriga tomon 4 — 6 sm o'lchab qo'yiladi.
6. Bel chizig'idagi vitachkalar kengligini hisoblash: vitachkalar yig'indisi  $\sum V = BB_1 = (S_{bel} + P_{bel}) = 51,5 - (35,5 + 2) = 14 \text{ sm}$ . Yig'indi quyidagicha taqsimlanadi: yon vitachka  $T_5 T_6 = 0,5 \cdot \sum V = 7 \text{ sm}$ ; ortki vitachka  $T_7 T_8 = 0,3 \cdot \sum V = 4,2 \text{ sm}$ ; old vitachka  $T_9 T_{10} = 0,2 \cdot \sum V = 2,8 \text{ sm}$ . Bu qiymatlarning yarmini vitachkalarning o'rta chizig'idan bir tomonga, qolgan yarmini ikkinchi tomonga o'lchab qo'yiladi. Beldagi nuqtalar ort bo'lak va old bo'lak vitachkalarining pastki uchlari bilan to'g'ri chiziqlar orqali birlashtiriladi. Yon qirqimlar 0,5 sm qabartirib, Bo nuqtasiga 2 sm yetkazmay chiziladi.
7. Bel chizig'ini chizish:  $T_5 T_6 = 1,5 \text{ sm}$ . T7 va T8 nuqtalaridan yuqoriga 0,5 sm dan o'lchab qo'yiladi. T9 va T10 nuqtalaridan yuqoriga 0,3 sm dan o'lchab qo'yiladi; beldagi nuqtalar chizmada ko'rsatilganidek birlashtiriladi; kalka yordamida bel chizig'i hamma qismlarining tutashishi tekshirib ko'rildi. Vitachkalar ichidagi chiqiq joylar tomonlariga nisbatan 1 — 1,5 (o'q chizig'i bo'ylab) uzunroq bo'ladi.
8. Yon qirqimlarni bo'ksadan etakkacha vertikal qilib yoki 3—5 sm kengaytirib chizish mumkin. Agar yon qirqimlar etak tomonga kengaya boradigan qilib chizilgan bo'lsa, unda yubkaning etak qirqimini uchburchak chizg'ich yordamida yon qirqimlarga nisbatan  $90^\circ$  burchak hosil qilib chiziladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Belli kiyimlarga nimalar kiradi?
2. Belli kiyimlar uchun o'lchovlar qanday olinadi?
3. Yubkalar modellash hususiyatlarini aytib bering?



## 42.Mavzu: To‘rt yoki olti chokli yubkalarning chizmasini chizish.

Reja:

1. To‘rt yoki olti chokli yubkalar haqida ma’lumot.
2. To‘rt va olti chokli yubkaning chizmasini chizish.
3. Bir xil bo‘laklardan yubka chizish.

Bu yubkalarning chizmasi to‘g‘ri bichimli yubka asosida chiziladi. To‘rt chokli yubka yon choklarsiz, yon tomonlari vitachkali qilib, olti chokli yubka esa yon chokli qilib chiziladi. To‘rt chokli yubkaning choklari yubka oldingi va ortki yarmidagi vitachkalar davomi tarzida chiziladi. Vertikallar etakkacha uzaytiriladi, kengaytirish uchun o‘ng va chap tomonga 4 sm dan o‘lchab qo‘yiladi va vitachkalarning uchlari bilan birlashtiriladi. Uzunlik tenglashtiriladi (ya’ni etakni bo‘laklar chetiga yumaloqlashib boradigan qilinadi; tutashish joylari kalka yordamida tekshiriladi). Oldingi va ortki bo‘laklar yubkaning oldingi va ortki yarmining o‘rta chiziqlari bo‘ylab butun bo‘ladi.

Olti chokli yubkalarning yon qirqimlari etak tomonga kengaya boradigan qilinadi. Bu yubkalar bo‘laklarining o‘lchamlari va shakllari bir xil bo‘lmaydi.



To‘rt va olti chokli yubkaning chizmasi Olti chokli yubka bo‘lagining chizmasi

Yubka bo‘laklari soni har xil bo‘lishi mumkin, lekin juft son (4, 6, 8, 12) bo‘lgani ma’qul; taqilmasi chap yon chokda; bo‘laklar o‘rtasi — old va ort bo‘laklar o‘rtasida. Bo‘laklar soni toq bo‘lsa, old bo‘lakning o‘rtasi butun bo‘ladi, ort bo‘lak o‘rtasida esa taqilmali chok bo‘ladi. Taqilma tikish uchun eni 3—4 sm, bo‘yi 25 sm qo‘sishimcha taqilma haqqi chiqariladi. Misol tariqasida olti bo‘lakli (klinli) yubkaning bo‘laklari tuzilishini keltiramiz.

1. Yubkaning uzunligi  $TN = Dyu$ ,
2. Bo‘lak yarmining beldagi kengligi  $TT_1 = 1/6^*$  ( $Sbel + Pbel$ ).
3. Bo‘lak yarmining bo‘ksadagi kengligi  $BB = 1/6^*$  ( $Sbuk + Pbuk$ ).
4. Bo‘lak yarmining etakdagi kengligi  $NN_1 = BB_1 + 4$  sm va bundan ortiq («qo‘ngiroq» shakli hosil qilish uchun qo‘sishimcha 5 — 7 sm kengaytiriladi; bu qo‘sishimcha etak bilan bo‘ksa oralig‘ining o‘rtasiga borib yo‘q bo‘lib ketadi). Bo‘lakning bo‘ylama qirqimi bo‘ylab ravon chiziq tortiladi.
5. T va N nuqtalaridan pastga 0,5 sm o‘lchab qo‘yiladi; belning botiq qismi chiziladi; etak dumoloqlashtirib chiziladi ( $T_1N_1 = TN$ ).

6. Chizma o‘rtal chiziqdandan o‘ng tomonga «ikkilantiriladi», bel va etak qismlarining to‘g‘ri tutashganligi kalka yordamida tekshiriladi; taqilma o‘rnini belgilab olinadi (tikish haqi bichish vaqtida chiqariladi).

Nazorat uchun savollar:


1. Belli kiyimlar uchun o‘lchovlar qanday olinadi?
2. Belli kiyimlarga nimalar kiradi?

#### **43.Mavzu: Oddiy bichiqli yubkalar.**

Reja:

1. Bir chokli yubkani hisoblash.
2. Bir chokli yubkani chizish.

Bir chokli yubka chizmasi.




Bu yubkalarda vitachkalar bo‘lmaydi; ular chizmasini bevosita gazlamada chizish (ya’ni andazasiz bichish) mumkin. Bir chokli yubka 140X140 sm (yoki 150X150 sm) kvadrat gazlama bo‘lagidan bichiladi. Gazlamani uning milkini arqoq ipiga to‘g‘ri keltirib (milk 1 sm qirqib tashlangani yaxshi),  $45^\circ$  burchak hosil qilib buylanadi-da, santimetrlig sirkul kabi ishlatib, bel, etak, bo‘ksa chiziqlari chiziladi. Hamma aylanalarining markazi burchakning uchi(O nuqtasi). OT kesmani (yubkaning ustki qirqimini) topish koeffitsienti — 1,4.

Bir chokli yubkani hisoblash  $OT = S_{bel} \times 1,4$ ;  $TB = 16—18 \text{ sm}$ ;  $TN = D_yu$ ;  $OT, OB, ON$  radiuslar bilan uchta yoy chiziladi.  $TT_1 = S_{bel} + P_{bel}$ ;  $BB_1 = S_{bo‘k} + P_{bo‘k}$ .

Bel bilan bo‘ksa o‘rtasidagi farq katta bo‘lsa, yon va ort tomonda yuza vitachkalar qilish mumkin; chok ort bo‘lak o‘rtasidan o‘tadi. Bunday yubka tikish uchun tuksiz, ko‘p tuslanmaydigan, «bo‘yiga» ham, «eniga» ham fakturasi bir xil bo‘lgan gazlama tanlash kerak. Rangi bir xil bo‘lgan yoki simmetrik kataklifi material to‘g‘ri keladi.

“Yarim quyosh” yubka chizmasi.



«Yarim quyosh» (klyosh) yubka bir chokli yoki qo'sh chokli bo'lish mumkin. Koeffitsient — 0,64.

«Yarim quyosh» yubkani hisoblash:  $OT = 0,64 \times S_{bel}$ ,  $TN = D_{yu}$ ,  $OT$  radiusli ikkita yoy o'tkaziladi. Yubkaning to'g'ri yopishib turishi uchun hamda qiya qismidagi uzunligini to'g'rilash uchun bel Chizig'i (1,75 sm ko'tariladi) bilan etak chizig'i (3,5 sm kamaytiriladi) o'zgartiriladi. Ikki bo'lakli yubkani biriktirib tikayotganda bo'laklarning bo'ylama qirqimini bo'ylama qirqimiga, ko'ndalang qirqimini ko'ndalang qirqimiga tikish kerak (gazlamaning o'ngi bilan teskarisi bir xil bo'lsa choclar ikki yonda bo'ladi. Agar choc bitta bo'lsa, u ort bo'lakning o'rtasidan o'tadi).

Nazorat uchun savollar:

1. Hozirgi zamon belli kiyimlari haqida ma'lumot.
2. «Qo'yosh», «Yarim kuyosh» yubkalarni loyihalash.
- 3.

#### **44.Mavzu: Ayollar yubkasini tikish texnologiyasi.**


Reja:

1. Ayollar yubkani modellashtirish.
2. Ayollar yubkani bichish.
3. Ayollar yubkani tikish.

Andaza detallarida tanda ipni yo'nalishi, kertimlar, chiziqlari, vitochka, taxlamalar ko'rsatiladi. Andazalarni joylashtirish sxemasi masshtabda beriladi. Ishlov berish usullarini tanlash jadval shaklida, buyum tikishda qo'llanadigan choclar nomi, eskiz va parametrlarini ko'rsatilgan holda keltiriladi.



Aralash matodan klassik uslubda to‘g‘ri bichimli, tizzadan pastroq uzunlikdagi yubka. Old bo‘lak yaxlit bichilgan, bel vitochkali. Ort bo‘lak bel vitochkali va o‘rta chokli. O‘rta chokda kesim joylashgan, hamda molniya taqilmasi bor. Yuqori qirqim mag‘iz belbog‘ bilan ishlangan. Andaza detallari tasnifi.



Nazorat uchun savollar:

1. Yubkani bichish uchun gazlamani tayyorlash jarayoni qanday?
2. Gazlamaga andaza qanday joylashtiriladi?
3. Yubkaga NII berish usullarini ayting.

#### **45.Mavzu: Yubka-shimni old va orka bo‘lagini chizmasini hisoblash va chizish.**

Reja:


1. Yubka shim chizmasini haqida ma’lumot.
2. Yubka-shimni old va orqa bo‘lagini chizmasini hisoblash va chizish.

Yubka-shimni old va ort bo‘laklari o‘rtasida ro‘para taxlama bilan yoki etagiga kengaytirib tikilsa, harakat uchun qulay bo‘ladi va chiroqli ko‘rinadi. Yubka-shim chizmasini chizish uchun to‘g‘ri bichimli yubka chizmasidan foydalaniladi. Shuning uchun chizma chizishda yubka o‘lchovlari ishlatiladi, hamda qo‘sishma o‘lchov bo‘ksa balandligi olinadi. To‘g‘ri bichimli yubkaning old va ort bo‘laklarini qog‘ozga tushirib chizib olinadi. Yubka bel, bo‘ksa qismidagi nuqtalar xuddi shunday belgilanadi. Ikkita, to‘rtta va oltita chokli to‘g‘ri yubka asosida kerakli hamma chizmalar chiziladi (rasm). Yubka chizmasini chizish uchun olgan o‘lchovlarimizdan tashqari shim-yubka uchun yana Bbo‘k = 24—26 sm qiymat ham kerak. Bunday yubkaning etak tomonini vitachkalarni qisman yoki butunlay yopib yuborish, choklarga kamroq kirishtirish

hisobiga kengaytirish tavsiya etiladi. Yubkaning uzunligi vazifasiga qarab — sport mashg'ulotlari uchun kalta, kundalik kiyish uchun odatdagidek, uyda kiyish uchun uzun qilib olinadi.

1. Yubkaning old va ort bo'laklariga taxlama uchun qo'shimcha haq qo'shiladi:  $T1S = TS2 = 12-14$  sm; S va S2 nuqtalaridan etakka tomon vertikal tushiriladi.
2. Bo'ksa chizig'i: bo'ksa balandligi  $SYa = S2Ya2 = Vbo'k + 1$  sm (yoki  $Vbo'k:2 + 3$  sm); oldi bo'lagida:  $YaYa1 = Vbo'k:4$ . Ya burchagining bissektrisasida 4,5 sm o'lchab belgilanadi; SYa vertikalning yuqori qismini Ya I nuqtasi bilan ravon egri chiziq bilan birlashtiriladi; Ya1 nuqtadan pastga vertikal tushiriladi; ortki bo'lagida  $Ya2Ya3 = Vbo'k: 4 + 4$  sm. Ya2 burchagining bissektrisasida 6 sm o'lchab belgilanadi; S2Ya2 vertikalning yuqori qismini Ya3 nuqtasi bilan ravon egri chiziq bilan birlashtiriladi; Ya3 nuqtasidan pastga vertikal tushiriladi.
3. Hamma nuqtalarni gorizontal chiziq bilan birlashtirib, etak chizig'i hosil qilinadi.
4. Ortki bo'lakning o'rtasi bo'ylab  $S2S4= 1$  sm uzaytiriladi:
5. Vitachkalar ichidagi chiziqlarni, chiziq qismlarining tutashishini unutmay bel qirqimi yubka asosidagidek chiziladi.
- 6 . Taqilma o'rni belgilanadi.

Yubka-shim chizmasi.



Nazorat uchun savollar:

1. Belli kiyimlarga nimalar kiradi?
2. Belli kiyimlar uchun o'lchovlar qanday olinadi?
3. Yubka shimni modellash hususiyatlarini aytib bering?

#### 46. Mavzu; Yubka-shimining tikish texnologiyasi.


Reja:

1. Yubka-shimining modellashtirish.
2. Yubka-shimining bichish.
3. Yubka-shimining tikish.



Yubka-shimning tashqi ko‘rinishi. Ayollar yubka-shimining shakli, uzunligi, silueti modalar yo‘nalishiga qarab o‘zgaradi. Yubka-shim bel chizig‘ida, beldan yuqorida yoki beldan pastda joylashishi mumkin. Yubka -shim belbog‘i qalin yoki ingichka, ikki uchlari uzaytirilgan, yoki bir tomoni uzaytirilgan kamar tutgichli yoki tutkichsiz, yon chokli yoki yaxlit bichilgan bo‘ladi. Kamar tutgich shakli ham turlichadir. Yubka-shim taqilmasi tugma va izmada yoki «molniya» da bo‘lishi mumkin. Yubka-shim modeli odam yoshiga, model ko‘rinishiga, tanlangan uslubga, gazlamaga mos bo‘lishi kerak.





**Yubka-shim old bo'lagini  
modellash**


**Yubka-shim**

**ort**

**bo'lagini**

**modellash**

Yubka-shimi andazalari: 1- yubka-shim ort bo'lagi; 2- yubka-shim old bo'lagi; 3- belbogi; 4- cho'ntak mag'izi; 5- old yon cho'ntak xaltasi; 6- old bo'lak qiyalama cho'ntak ko'rinishi; 7- taqilma gulfigi.



**Andazalarni tayyorlash.**



### Yubka-shimi bo‘laklari spesifikatsiyasi.

Bo‘lak nomi	Bo‘lak belgisi	Soni	
		Andoza	Bichiqda
Yubka-shim ort bo‘lagi	01	1	2
Yubka-shim oid bo‘lagi	02	1	2
Yubka-shim belbog‘i	03	1	2
Cho‘ntak mag‘izi	04	1	2
Old yon cho‘ntak xaltasi	05	1	1
Old bo‘lak qiyalama cho‘ntak ko‘rinmasi	06	1	2
Taqilma gulfigi.	07	1	1

### Yubka-shimi andazalarida chok haqqi qiymati

Bo‘lak nomi	Qirqim nomi	Chok haqqi, sm.
Ort bo‘lak	Bel qirqim	1,0
	Yon qirqim	1,0
	O‘rta qirqim	1,0
	Shim pochasi	4,0
	Odim qirqim	1,0
	Og‘ qirqim	1,0
Old bo‘lak	Bel qirqim	1,0
	O‘rta qirqim	1,0
	Yon qirqim	1,0
	Pocha	4,0
	Odim qirqim	1,0
Belbog‘	Belbog‘ uchlari	0,7- 1,0
	Belbog‘ni belga ulash qirqimi	1,0





### Yubka-shimini bichish.

Nº	Bajariladigan ishlar mazmuni	Moslamalar	Eskizlar (chizmalar, rasmlar)	Bajarish tartibi
1	Gazlamani namlab dazmollash (dekatirovkalash)	Gazlama 150*70 sm Dazmol		Gazlama namlanib, tandaipi yo‘nalishida dazmollanadi
2	Gazlama nuqsonlarini aniqlash, bo‘yi va yenini o‘lchash	Bo‘r, sm lenta		Gazlama o‘ng tomonidan nuqsonlari teshik, ip va bo‘yoqlar birtekisligi tekshiriladi. Aniqla n-gan nuqsonlar bo‘r bilan belgilab


				qo'yiladi
3	Gazlamani bichuv stoliga joylashtirish	Bichuv gazlama. stoli,		Gazlama bichuv stoli ustiga yalang qavat qilib to'shaladi.
4	Gazlamaga yubka-shim bo'laklari andazalarini joylashtirish	Bichuv Gazlama, bo'laklar andazalarini, to'g'nog'ich		Yubka-shim ort,old va mayda bo'lak andazalari gazlama ustiga joylashtiriladi. Bunda bo'laklar tanda ipi yo'nalishi gazlama tanda ipi yo'nalishi bilan ustma-ust tushishi kerak.






**Yubka-shimini tikish ketma-ketligini tuzish va mayda bo'laklarini tayyorlash usullarini o'rgatish.**

Nº	Bajariladigan ishlar mazmuni	Moslamalar, asboblar va xom ashyolar)	Eskizlar (chizmalar, rasmlar)	Bajarish tartibi
1	Yubka-shim belbog'iga yelim qotirma yopishtirish	Dazmol, dazmolmato.		Belbog' teskari tomoniga qotirma yelimli tomoni bilan qo'yib dazmullanadi
2	Yubka-shim otkosokiga yelim qotirma yopishtirish	Dazmol, dazmolmato.		Yubka-shim otkosoki teskari tomoniga qotirma yelimli tomoni bilan qo'yib dazmullanadi
	Yubka-shim taqilmasi chap tomoni adipiga yelim qotirma yopishtirish	Dazmol, dazmolmato.		Yubka-shim taqilmasi o'ng tomoni adipi teskarisi tomoniga qotirma yelimli tomoni bilan qo'yib dazmullanadi

3	Taqilma adipi qirqimini yo'rmalash	Maxsus mashina, qaychi.		Taqilma adipi qirqimi maxsus mashinada yo'rmalanadi.
4	Shim old va ort bo'lagi qirqimlarini yo'rmalash.	Maxsus mashina.		Ort va old bo'lak bel vitochkasini o'ngini-o'ngiga qo'yib belgilangan joydan biriktirib tikiladi.
5	Orqa bo'lak vitochkasini tikish.	Universal mashina.		Orqa bo'lak bel vitochkasini o'ngini-o'ngiga qo'yib belgilangan joydan biriktirib tikiladi.
6	Chokka NII berish.	Dazmol, dazmolmato.		Orqa bo'lak vitochkasini o'rta tomonga qaratib NII beriladi.





**Yubka shimni old bo'lagidagi qiya cho'ntakka ishlov berish usullarini o'rgatish.**





Nº	Bajariladigan ishlar mazmuni	Moslamalar, asboblar va xom ashyolar)	Eskizlar rasmlari (chizmalar,	Bajarish tartibi
1	Old bolak cho'ntak o'rnini belgilash.	Yordamchi andaza, bo'r.		Old yarim bo'laklarda qiya cho'ntak o'rni belgilab qo'yiladi va kertik beriladi.
2	Cho'ntak og'ziga yelimli qotirma yopishtirish.	Dazmol, dazmolmato.		Bukish chizig'i bo'ylab yelim uqa dazmollab yopishtiriladi.
3	Cho'ntak og'zini bukib dazmollahash.	Dazmol, dazmolmato.		Cho'ntak og'zini ichki qirqimi bukib dazmullanadi.


4	Ko‘rinmaning ichki qirqimini yo‘rmalash.	Maxsus mashina, qaychi. ip,		Ko‘rinmaning ichki qirqimi yo‘rmalanadi.
5	Ko‘rinmani cho‘ntak xaltaga bostirib tikish.	Universal mashina, qaychi. ip,		Ko‘rinma va cho‘ntak xaltasini yon va yuqori qirqimlari birlashtiriladi, chok yesa 0.3-0.5 sm ko‘rinmadan narida yuritiladi.
6	Cho‘ntak ziyi bo‘ylab bezak baxyaqator yuritish va asosiy detaldan xosil qilingan adipni cho‘ntak qopiga tikish.	Universal mashina, qaychi. ip,		Cho‘ntak ziyi bo‘ylab, 0.5-0.7 sm kenglikda bezak baxyaqator yuritiladi, bunda cho‘ntak xalta qirqimini cho‘ntak og‘zi ziyiga to‘g‘irlab qo‘yiladi. Yaxlit bichilgan adip ichki qirqimi cho‘ntak xaltasiga bostirib tikiladi.
7	Cho‘ntak yuqori qirqimini bostirib tikish.	Universal mashina, qaychi. ip,		Tayyor cho‘ntak ko‘rinmasi xaltasiga qo‘yiladi va yuqori qirqimlari tekislanib yuqori ziyidan 0.7 sm kenglikda chok yuritiladi.
8	Cho‘ntak xalta qirqimlarini biriktirib tukish.	Universal mashina, qaychi. ip,		Cho‘ntak xalta pastki qirqimlari biriktirib tikiladi.
9	Cho‘ntak xalta pastki qirqimini yo‘rmalash	Maxsus mashina, qaychi. ip,		Cho‘ntak xalta pastki qirqimlari maxsus mashinada yo‘rmalanadi.
10	Cho‘ntak og‘zini puxtalash.	Universal mashina, qaychi. ip,		Yuqori qirqimlaridan 1.5 sm narida

				cho'ntak puxtalanadi, bunda puxtalash cho'ntak ziyiga perpendikulyar bo'lishikerak.
11	Tayyor cho'ntakni dazmollahash.	Dazmolmato, dazmol.		Tayyor cho'ntak dazmollanadi.







**Yubka-shimni yon, odim va o'rta qirqimlariga ishlov berish, shim taqilmasiga mo'lniya tasma qo'yib tikish usullarini o'rgatish.**

Nº	Bajariladigan ishlar mazmuni	Moslamalar	Eskizlar (chizmalar, rasmlar)	Bajarish tartibi
1	Shim old va ort bo'laklarini yon qirqimlarini biriktirish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Shim old va ort bo'lak yon qirqimlarini o'ngini-o'ngiga qo'yib qirqimlarini tenglab 1,0 sm biriktirma chokda tikiladi.
2	Chokka NII berish.	Dazmol, dazmolmato		Shim yon chok qirqimlari yorib dazmolmato orqali dazmollanadi.
3	Shim old va ort bo'laklarini odim qirqimlarini biriktirish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Shim old va ort bo'lak odim qirqimlarini o'ngini-o'ngiga qo'yib qirqimlarini tenglab 1,0 sm biriktirma chokda tikiladi.
4	Chokka NII berish.	Dazmol, dazmolmato.		Yubka-shim odim chok qirqimlari yorib dazmolmato orqali dazmollanadi.
5	Old bo'lak o'rta qirqimini tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Yubka-shim old bo'lak o'rta qirqimlari o'ngi-o'ngiga qo'yib biriktirib kertimigacha tikiladi.



6	Adipga molniya tasmasini tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Adip o'ngiga belgilangan chiziq bo'ylab "molniya" tasmani qo'yib bostirib tikiladi. Baxiyaqator tasma chetidan 0.2 sm oraliqda yuritiladi.
7	Taqilma adipini old bo'lakka tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Shim old bo'lagi chap tomoniga taqilma joyiga taqilma adipini qo'yib ag'darma chok bilan tikiladi.
8	Taqilma adipini dazmollah.	Dazmol, dazmolmato.		Taqilma adipini shim teskarisiga ag'darib, asosiy detaldan 0.1-0.2 sm kant xosil qilib dazmollanadi
9	Otkoskni old bo'lakka biriktirib tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Otkosk "molniya" tasma bilan birga shim old bo'lagi o'ng tomoniga biriktirib tikiladi
10	Otkosk mag'izini otkoskka tikish	Universal mashina, ip, qaychi.		Otkosk mag'izi otkosk yon qirqimiga ag'darmachokda tikiladi. 0.7 sm da mag'iz xosil qilinadi.
11	Otkosok mag'izini bostirib tikish	Universal mashina, ip, qaychi.		Otkosok bilan shim taqilma qirqimi bilan biriktirilgan chok atrofida mag'iz o'girilib o'ng tomondan taqilma ziyidan bostirib tikiladi.

12	Yubka-shim taqilmasiga bezak bahyaqator yuritish va NII berish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Yubka-shim taqilmasiga 2,0-2,5 sm chok kenglikda, belgilangan chiziq bo'yicha bezak bahyaqator yuritiladi va NII beriladi.
----	---	--------------------------------	--	--


#### **Yubka-shimining yuqori qirqimiga ishlov berish.**



<b>Nº</b>	<b>Bajariladigan ishlar mazmuni</b>	<b>Moslamalar asboblar va xom ashyolar)</b>	<b>Eskizlar (chizmalar, rasmlar</b>	<b>Bajarish tartibi</b>
1	Yubka-shim yuqori qirqimini ishlash.	Universal mashina, ip, qaychi.		Yubka-shim yuqiri qirqimiga belbog'ni o'ngini-o'ngiga qo'yib kertiimlarini to'g'irlab, biriktirib tikiladi.
2	Yubka-shim yuqori qirqimiga NII berish.			Yubka-shim bel qirqimi belbog' tomonga yotqizib dazmollanadi.
3	Belbog' uchlariga ilgak o'rnatish.	Qo'l.		Belbog' uchlariga belgilangan o'rniga ilgaklar o'rnatiladi
8	Belbog' uchini bostirib tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Belbog' uchi ziyidan 0.1-0.2 sm kenglikda belbog'ga bostirma chok bilan tikiladi.
9	Yubka-shim o'rtalari qirqimini tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Yubka-shim orqa bo'lak o'rtalari qirqimlari o'ngi-o'ngiga qo'yilib biriktirma chokda tikiladi.
10	Chokka NII berish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Yubka-shim o'rtalari qirqimlari yorib dazmolmato orqali NII beriladi.

### **Yubka-shimining pochasiga ishlov berish.**

<b>№</b>	<b>Bajariladigan ishlar mazmuni</b>	<b>Moslamalar asboblar va xom ashyolar)</b>	<b>Eskizlar (chizmalar, rasmlar</b>	<b>Bajarish tartibi</b>
1	Shim pochasiga tasmani tikish.	Universal mashina, qo'l ignasi, ip, qaychi.		Yubka-shim etak qirqimini tikish uchun avval yubka-shim o'ngiga ag'dariladi, yon chocklarini bir-biriga to'g'rilib andoza qo'yib, etakning notejis joylari tekislanadi va bukish haqi bo'rланади. Bukish haqi buklab yana bir marotaba bukma ziydan 0.1-0.2 sm bostirib tikiladi.
2	Chokka NII berish.	Dazmol, dazmolmato.		Yubka-shim maxsus moslamada tekislanadi va dazmollanadi.

Tayyor yubka-shimini uzil kesil pardozlash va N.I.I berish.

<b>№</b>	<b>Bajariladigan ishlar mazmuni</b>	<b>Moslamalar</b>	<b>Eskizlar (chizmalar, rasmlar</b>	<b>Bajarish tartibi</b>
1	Belbog'ga va shim cho'ntaklariga NII berish.	Dazmol, dazmolmato.		Tayyor bo'lgan shim belbog'iga va yon qiya cho'ntaklarigayaxshil ab nam mato yordamida NIIB beriladi.
2	Shim pastki qirqimiga NII berish.	Dazmol, dazmolmato.		Shimning pastki qismi, pochasiga-cha yon va odim chocklarini to'g'ri keltirib dazmollanadi.

3	Shim yon choklariga NII berish.	Dazmol, dazmol-mato.		Bukilgan joylarining odim choklari tomonidan har qaysi bo'lakda alohida, yon choklari tomondan yesa ikkala bo'lak birga bukip dazmollanadi .
4	Belbog'ga temir ilgak qardash.	Dazmol, dazmol-mato.		Belbog' tugallangan qismiga ishlov berilgandan so'ng shimning chap bo'lak belbog'iga temir ilgak belgilangan joyga qadaladi. Temir ilgakni qardash qismi maxsus o'tkir tig'li uchdan iborat bo'lib matoga oson kiradi.
5	Belboqqa temir izmani qardash.	Ignal, ip, qaychi.		Shimning o'ng yarim bo'lak belbog' qismiga yakuniy ishlov berilgandan so'ng, belgilangan belbog' taqilma qismiga temir izma qadaladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Shimni bichish uchun gazlamani tayyorlash jarayoni qanday?
2. Gazlamaga andazaga qanday joylashtiriladi?
3. Yon qiyalama cho'ntagi qandau shaklda bo'ladi?
4. Shimga NII berish usullarini aytинг.

#### 47-mavzu; O'g'il bolalar kalta shimi chizmasini chizish.

Reja:


1. Kalta shimni modellashtirish.
2. Kalta shimni bichish.
3. Kalta shimni tikish.

O'g'il bolalarning turli yoshlardagi psixologik-fizologik va jismonan rivojlanishini hisobga olgan holda bolalar kiyimlari assortimenti o'zining turi, tuzilishi, bichilishi, ranglarning bezalishi jihatidan turli-tuman bo'ladi. O'g'il bolalar kiyimlari har bir yosh guruhgaga mos holda loyihalanadi. O'g'il bolalar ko'p xarakat qilganligi sababli kiyimlar qulay ya'ni, kiyish va yechish uchun oson bo'lishi kerak. Ko'proq to'g'ri va timsifat ishlataliladi. O'g'il bolalar kalta shim ni bichimlarining turli bo'lishi bilan ajralib turadi. Jismoniy ish qilganda, terlash jarayoni normal va uzlusiz bo'lishi uchun kiyim tagiga havo o'tib turishi, kiyim haddan tashqari keng yoki juda tor bo'lmasligi kerak. O'g'il bolalar og'ir bo'lsa, bolani tez charchatadi, bolaning ish

qobiliyati kamayadi. Kiyimning issiqlik sarflash xususiyatini kamaytirmasdan uni yengillashtirish zarur.O‘g‘il bolalar kalta shim ni paxta tolali jinsili gazlamadan tikelgan bo‘ladi.



**O‘g‘il bolalar kalta shimning model namunalari.**




**O‘g‘il bolalar kalta shimni andazalari.**



1-kombinzon ort bo‘lagi; 2-kombinzon old bo‘lagi old bo‘lak koketka;  
3-yon cho‘ntak ko‘rinmasi; 4-yon cho‘ntak xaltasi; 5-belbog‘;  
6-ort bo‘lak qoplama cho‘ntak.

**O‘g‘il bolalar kalta shimni uchun model tanlash, modellashtirish va andazasini tayyorlash.**

<b>№</b>	<b>Bajariladigan ishlar mazmuni</b>	<b>Moslamalar asboblar va xom ashyolar</b>	<b>Eskizlar (chizmalar, rasmlar)</b>	<b>Bajarish tartibi</b>
----------	---	--	--	-------------------------





1	Moda jurnallaridan foydalanib, o‘g‘il bolalar kalta shim ni moda yo‘nalishini tahlil qilish va o‘g‘il bolalar kombinzioni uchun model tanlash.	Moda jurnallari va multimediya materiallaridan		Moda jurnallari va multimediya materiallaridan foydalanib o‘g‘il bolalar kalta shimni moda yo‘nalishini tahlil qilish va model tanlash.
2	Tanlangan o‘g‘il bolalar kalta shim ni model eskiz rasmini chizish.	Qog‘oz, qalam, o‘chirg‘ich.		Tanlangan o‘g‘il bolalar kalta shimni model eskiz rasmini texnik shartlarga rioya qilgan holda chizish.

#### O‘g‘il bolalar kalta shimni ort va old bo‘laklarini modellashtirish.

1	O‘g‘il bolalar shortigining ort bo‘lagini modellashtirish.	O‘g‘il bolalar kalta shim ni asos konstruksiya chizmasi, kalka qog‘oz, qalam, oddiy va shakldor chizg‘ich.		Ort bo‘lak qoplama cho‘ntak o‘rnini bel chizig‘idan pastga cho‘ntak 3,0 sm; yon chiziqdan 3,0 sm kenglikda; cho‘ntak og‘zi kengligi 12,0 sm olchab nuqtalar qo‘yiladi va birlashtirib cho‘ntak shakli chiziladi.
2	O‘g‘il bolalar kalta shim ni old bo‘lagini modellashtirish.	O‘g‘il bolalar kalta shim ni asos konstruksiya chizmasi, kalka qog‘oz, qalam, oddiy va shakldor chizg‘ich.		Yon taqilma kengligi 2,0 sm, taqilma uzunligi bel chizig‘idan pastga 14,0 sm belgilanadi. Yon cho‘ntak o‘rnini, bel chizig‘i nuqtasidan 6,0 sm, cho‘ntak og‘zi uzunligi yon chiziq bel nuqtadan pastga 10,0 sm o‘lchab belgilanadi va birlashtiriladi

### O‘g‘il bolalar kalta shimni andazasini tayyorlash

1	<p>O‘g‘il bolalar kalta shim ni shimi ort bo‘lak andazasini tayyorlash.</p> <p>O‘g‘il bolalar kalta shim ni asos konstruksiya chizmasi, kalka qog‘oz, qalam, oddiy va shakldor chizg‘ich.</p>		<p>O‘g‘il bolalar kalta shim ni ort bo‘lagi qirqimlaridan: shim yon qirkimi 1,0 sm; shim odim qirkimi 1,0 sm; shim bel qirkimi 1,0 sm; shim o‘rtal qirkimi 1,0 sm; shimpocha qirkimi 2,0 sm choc haqqi qoldirib chizib chiqiladi.</p> <p>Chizilgan chiziqlar bo‘ylab andaza kesiladi, andazada tanda ipi yo‘nalishi va bo‘lak raqami qo‘yiladi.</p>
2	<p>O‘g‘il bolalar kalta shimni old bo‘lak andazasini tayyorlash.</p> <p>O‘g‘il bolalar kalta shim ni asos konstruksiya chizmasi, kalka qog‘oz, qalam, oddiy va shakldor chizg‘ich.</p>		<p>O‘g‘il bolalar kalta shim ni ort bo‘lagi qirqimlaridan: shim yon qirkimi 1,0 sm; shim odim qirkimi 1,0 sm; shim bel qirkimi 1,0 sm; shim o‘rtal qirkimi 1,0 sm; old bo‘lak cho‘ntak og‘zi qirkimi 0,7 sm; shimpocha qirkimi 2,0 sm choc haqqi qoldirib chizib chiqiladi.</p> <p>Chizilgan chiziqlar bo‘ylab andaza kesiladi, andazada tanda ipi yo‘nalishi va bo‘lak raqami qo‘yiladi.</p>

3	Kalta shim n belbog‘ andazasini tayyorlash.	O‘g‘il bolalar kalta shim ni asos konstruksiya chizmasi, kalka qog‘oz, qalam, oddiy va shakldor chizg‘ich.		Kalta shim belbog‘ qirqimlari dan: belbog‘yon qirqimlaridan 0,7 sm; belbog‘yuqori qirqimi 1,0 sm; belbog‘pastki qirqimi 1,0 sm choc haqqi qoldirib chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar bo‘ylab andaza kesiladi, andazada tanda ipi yo‘nalishi va bo‘lak raqami qo‘yiladi.
4	Ort bo‘lak qoplama cho‘ntak andazasini tayyorlash.	O‘g‘il bolalar kalta shim ni asos konstruksiya chizmasi, kalka qog‘oz, qalam, chizg‘ich.		Ort bo‘lak qoplama cho‘ntak qirqim-laridan: cho‘ntak yuqori qirqimi 2,0 sm; cho‘ntak yon qirqimlaridan 1,0; -cho‘ntak pastki qirqimidan 1,0 sm choc haqqi qoldirib chizib chiqiladi.
5	Yon cho‘ntak ko‘rinmasi andazasini tayyorlash.	O‘g‘il bolalar kalta shim ni asos konstruksiya chizmasi, kalka qog‘oz, qalam, chizg‘ich.		Yon cho‘ntak ko‘rinmasi qirqim-laridan: ko‘rinma yuqori qirqimi 1,0 sm; ko‘rinma yon qirqimlari 1,0 sm; ko‘rinma ochiq qirqimi 0,7 sm choc kengligi qoldirib chizib chiqiladi.
6	Cho‘ntak xalta andazasini tayyorlash.	O‘g‘il bolalar kalta shim ni asos konstruksiya chizmasi, kalka qog‘oz, qalam, oddiy va shakldor chizg‘ich.		Cho‘ntak xalta qirqimlaridan: yon qirqimlaridan 1,0 sm; yuqori qirqimidan 1,0 sm; pastki qirqimidan 1,0 sm choc haqqi qoldirib chizib

				chiqiladi. Chizilgan chiziqlar bo‘ylab andaza kesiladi.
--	--	--	--	--

O‘g‘il bolalar kalta shim ni bo‘laklariga qo‘yiladigan chok haqqi miqdori.





Nº	Bo‘lak nomi	Chok haqqi qo‘yiladigan qirqimlar	Chok haqqi miqdori, sm
----	-------------	-----------------------------------	------------------------


Nº	Bajariladigan ishlar mazmuni	Moslamalar	Eskizlar (chizmalar, rasmlar)	Bajarish tartibi
----	------------------------------	------------	-------------------------------	------------------

1	O‘g‘il bolalar kalta shim ni shimi ort bo‘lagi	- yuqori qirqimi; - yon qirqimi; - odim qirqimi; - o‘rtta qirqimi; - pocha qirqimi.	1,0 1,0 1,0 1,0 2,0
2	O‘g‘il bolalar kalta shim ni shimi old bo‘lagi	- yuqori qirqimi; - yon qirqimi; - odim qirqimi; - o‘rtta qirqimi; - pocha qirqimi;	1,0 1,0 1,0 1,0 2,0
3	Yon cho‘ntak ko‘rinmasi	- ko‘rinma yuqori qirqimi; - ko‘rinma yon qirqimi;	1,0 1,0
4	Cho‘ntak xalta	- cho‘ntak xalta yuqori qirqimi; - cho‘ntak xalta yon qirqimi;	1,0 1,0
5	Ort bo‘lak qoplama cho‘ntag‘i	- cho‘nta yuqori qirqimi; - cho‘ntak chekka qirqimi; -	2,0 0,7
6	Kombinzon belbog‘	- yon qirqimi; - pastki qirqimi; - bog‘ich uchi qirqimi;	0,7 1,0 0,7


**48. Mavzu;O‘g‘il bolalar kalta shiminini tikish texnologiyasi.**

### **Qoplama cho'ntaklarni tayyorlash.**





1	Qoplama cho'ntaklar yuqori qirqimiga qotirma yopishtirish.	Dazmol, dazmolmato.		Ort bo'lak qoplama cho'ntaklar yuqori qirqimi bukish chizig'iga yelimli qotirmani qo'yib dazmollanadi.
2	Old bo'lak cho'ntak og'zi qirqimiga qotirma yopishtirish.	Dazmol, dazmolmato.		Qotirmani yelimli tomonini old bo'lak yon cho'ntak og'zi qitqimiga qo'yib yopishtiriladi.
3	Qoplama cho'ntaklar yuqori qirqimini yo'rmalash.	Maxsus mashina, ip, qaychi.		Ort bo'lak qoplama cho'ntaklar yuqori qirqimi maxsus mashinada yo'rmanadi.
4	Qoplama cho'ntak yuqori qirqimini bukib tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Old va ort bo'lak qoplama cho'ntak yuqori qrqimini ochiq qirqimli bukma chokda tikiladi. Chok kengligi 0,3 sm.

5	Cho'ntaklarni dazmollash.	Dazmol, dazmolmato.		Qoplama cho'ntaklarni shablon yordamida dazmollanadi.
---	---------------------------	---------------------	--	---

### **Old bo'lak shimga qoplama cho'ntakni tikish .**


1	Shim ort bo'laklariga qoplama cho'ntakni tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Kalta shim ort bo'lagiga qoplama cho'ntakni belgilangan o'rniga qo'yib, bukish ziyidan 0,1 va 0,7 sm chok kengligida bostirma chokda tikiladi. Chok boshi va oxiri puxtalanadi.
2	Chokni dazmollash.	Dazmol		Qoplama cho'ntaklar o'ng tomondan dazmolmato orqali dazmollanadi.


### **Old bo'lak yon cho'ntagini tikish.**

1	Old bo'lak cho'ntak og'ziga cho'ntak qopini tikish.	Universal mashina, qaychi. ip,		Old bo'lak chontak og'ziga cho'ntak qopi o'ngi bir biriga qaratib qo'yiladi, qirqimlari tenglanib, 0,7 sm chok kengligida biriktirma chokda tikiladi.
2	Cho'ntak og'zi chok kengligiga ketrim berish, ag'darish va dazmollash.	Qaychi, dazmol, dazmolmato.		Cho'ntak o'g'zi kengligiga kertim beriladi, o'ngiga ag'dariladi va asosiy bo'lakdan kant hosil qilib dazmollanadi.
3	Cho'ntak og'zi ziyiga bezak chok berish.	Universal mashina, qaychi. ip,		Cho'ntak ziyidan 0,1 va 0,7 sm chok kengligida bostirma chokda bezak bahyaqator yuritiladi.
4	Cho'ntak qoplarini biriktirib tikish.	Universal mashina, qaychi. ip,		Cho'ntak qoplari qirqimlari tenglanadi va 1,0 sm chok kengligida biriktirma chokda tikiladi.
5	Cho'ntak qoplarini qirqimlarini yo'rmalash.	Maxsus mashina, ip, qaychi.		Cho'ntak qopi qirqimlari maxsus mashinada yo'rmanadi.
6	Yon cho'ntakni dazmollash.	Dazmol, dazmolmato.		Tayyor cho'ntak o'ng tomondan dazmolmato orqali dazmollanadi.

O'g'il bolalar shortigining yon, odim va o'rta qirqimlariga ishlov berish.

Kalta shim pochasiga ishlov berish va NIIB.

Nº	Bajariladigan ishlar mazmuni	Moslamalar, asbobva xom ashyolar	Eskizlar (chizmalar, rasmlar)	Bajarish tartibi
1	Kalta shim pocha uchini bukib tikish.	Universal mashina, qo'l ignasi, ip, qaychi.		Kalta shim pocha uchini yana bir marotaba bukib, bukma ziyidan 0,1-0,2 sm kenglikda bostirib tikiladi.

2	Kalta shim pochasiga so'nggi ishlov berish.	Dazmol, dazmolmato.		Kalta shim o'ngi va teskarisidan qolgan iplari qirqib tashlanadi va NII beriladi.
---	---	---------------------	--	---

Nazorat savollari.


1. Kalta shim bichish uchun gazlamani tayyorlash jarayoni qanday?
2. Gazlamaga andazaga qanday joylashtiriladi?
3. Shimda NII berish usullarini aytib bering.

#### 49.Mavzu: Ayollar shimi asos chizmasining ort va old bo'lagini hisoblash va chizish.

Reja:

1. Ayollar shimi asosining loyixalash uchun kerakligi o'lchovlar.
2. Ayollar shimi asos asos chizmasining old bo'lagini hisoblash va chizish.
3. Ayollar shimi asos asos chizmasining ort bo'lagini hisoblash va chizish.

Shim asosining chizmasi.



Shim asosini chizish. Klassik formadagi bemalol turadigan shim chizmasini chizish uchun beldagi o'lcham belgilari kerak: Sbel; Sbo'k (jinsi tipidagi yopishib turadigan shimplarda o'lcham kattaligi qorinning chiqib turishini hisobga olmay belgilansa ham bo'ladi); Dsh; Dt (uzunligi tizzagacha kaltaroq yoki tizzasi tor shimplar uchun); Vbo'k; She (etak kengligi modaga binoan; pochasi tor shimplar uchun oyoq kaftining tovondan o'tgan aylanasiga teng).

Hisoblashda o'z o'lcham belgilaringizni oling.

Bemalol turishi uchun qo'shimchalar: Pbel = 1 sm; Pbo'k = 1—3 sm. Shimplarning yuqori qismini chizishda ham, yubkalardagi singari, gavdaning bo'ksa atrofi tuzilishi hisobga olinadi. Shimning old bo'lak chizmasini chizish.

1. Uchi T bo'lgan to'g'ri burchak chiziladi (rasm).
2. TN = Dsh; TK = Dt; TYa = Vbo'k; Ya B = Bbo'k:3 bo'lgan gorizontal chiziqlar tortiladi.
3. Old bo'lakning bo'ksa sathidagi eni: BB1 = 0,4 x (Sbo'k + Pbo'k) + 0,1 Sbel.
4. B1 nuqtasi orqali vertikal o'tkazib T1, Ya1 nuqtalar bilan belgilanadi.

5. Old bo'lakning dumba sathidagi eni:  $Y_1 Y_2 = 0,1 x$  ( $Sbo'k + Pbo'k$ ).
  - 6 . Taqilma, chizig'ining (o'rta chokning) ortiq-kamligi:  $T_1 T_2 = 1$  sm (hamma shim modellari uchun o'zgarmas).
  7. Taqilma chizig'ini chizish:  $B_1, Y_2$  nuqtalar biriktiriladi; bu chiziqni ikkiga bo'linadi (A nuqta); A ,  $Y_1$  biriktiriladi; bu chiziq ikkiga bo'linadi (AI nuqta).  $T_2, B_1, A_1, Y_2$  nuqtalarni birlashtirib, taqilma chizig'i chiziladi. Agar taqilmasi o'rtada bo'lsa, tikish haqini yaxlit bichib yuborsa ham bo'ladi (eni 3—4 sm, bo'y 2 0 — 2 2 sm).
  8. Old bo'lakning bel sathidagi eni  $T_2 T_3 = Sbel: 2$  bitta yoki ikkita vitachka eni solqi (bitta vitachkaga - 2,5 sm, ikkita vitachkaga -4,5 sm; solqi — 1 sm).
  9. Yen chok  $T_3 T_4 = 1,5$  sm uzaytiriladi.
  10.  $T_2, T_4$  nuqtalari biriktiriladi.
  11. Bukish («qirra») chizig'ini belgilash:  $Y_1 Y_2$  chiziq ikkiga bo'linadi ( $Y_1$  3 nuqta orqali bel sathidan pocha uchigacha vertikal o'tkaziladi;  $B_2, K_1, N_1$  nuqtalar belgilanadi).
  12. Vitachka bukish chizig'ida bo'ladi: orasining ochig'ligi  $1,25+1,25$  sm; uzunligi 8 —10 sm. Vitachkani biriktirib tikmasdan, balki taxlama qilib tiksa ham bo'ladi. Agar vitachka ikkita bo'lsa, unda ikkinchisi — birinchi vitachka bilan yon chok o'rtasida bo'ladi.
  13. Old bo'lakning pocha uchidagi eni:  $N_1 N_2 = N_1 N_3 = 0,5$  Shi — 1.
  14. Odim qirqim:  $Y_2 N_4$  nuqtalari birlashtiriladi;  $K_3$  nuqta belgilanadi;  $Y_2 K_3$  qismi 0,5 sm egik chiziq bilan chiziladi.
  15. Yon qirqim:  $T_4 B; Y_1, N_2$  nuqtalar birlashtiriladi;  $K_2$  nuqta belgilanadi;  $T_4 B$  qismi 0,5—1 sm qabariq chiziq,  $BK_2$  qismi 0,5 sm egik chiziq bilan chiziladi.
  16. Pocha chizig'i:  $N_1$  nuqtadan yuqoriga 1 sm o'lchab qo'yiladi;  $N_2, N_3$  nuqtalarni egik chiziq bilan tutashtiriladi.
- Shimning ort bo'lak chizmasini chizish
17. Shim pochasining eni:  $N_2 N_4 = N_3 N_5 = 2$  sm.
  18. Pocha chizig'i:  $N_4, N_5$  nuqtalarni past tomonga 1 sm qabariq qilib birlashtiriladi.
  19. Tizza sathidagi eni:  $K_2 K_4 = K_3 K_5 = 1$  sm.  $K_4, Y_4; K_3, N_5$  nuqtalar birlashtiriladi.
  20. Ort chiziq (o'rta chiziq) ni chizish:  $B_1 B_3 = 3$  sm (o'zgarmas);  $B_3 B_4 = 0,1$ . ( $Sbo'k = 1$  sm) perpendikulyar chiziladi.  $Y_1 B_4$  Nuqtalar birlashtiriladi. Yuqoriga tomon davom ettiriladi;  $B_4 T_5 = B_1 T_2$  o'lcham qo'yiladi.
  21. Dumbalar sathidagi eni:  $Y_1 2 Y_5 = Y_1 Y_2$
  22. Yordamchi nuqtalar:  $A_1 A_2 = Y_1 2 Y_4 = 1$  sm (o'zgarmas).
  - 23.Odim qirqimi:  $Y_2, K_5$  nuqtalar 1 sm egri chiziq tarzida birlashtiriladi.
  24.  $Y_4 Y_5 Y_6 = 1$  sm.
  25.  $T_5, B_4, A_2 Y_4, Y_6$  nuqtalarni birlashtirib o'rta chiziq chiziladi.
  26. Bo'ksalar sathidagi eni:  $BB_1$  gorizontal chap tomonga davom ettiriladi;  $B_4$  nuqtadan  $B_4 B_5 = (Sbo'k + Pbo'k) = BB_1$  belgilanadi.
  27.  $B_5 T_6 = BT_4; T_5 T_6 = Sbel: 2 + vitachkalar+solqi$  (bitta vitachkaga —3 sm, Ikkitasiga — 2,5 + 2,5; solqi — 1 sm).
  28. Yon qirqim:  $T_6, B_5, K_4, N_4$  nuqtalar birlashtiriladi.  $T_5 B_5$  qismida 0,5—1 sm qabariq bilan chiziladi va  $Y_4 K_4$  qismida 0,5 sm egri chiziq chiziladi.
  29. Vitachka  $T_5 T_6$  kesma o'rtasida bo'ladi; uning kengligi 3 sm; buy 10—12 sm. Vitachka ikkita bo'lsa,  $T_5 T_6$  qismi teng uch qismga bo'linadi. Shortilarning, tizzadan pastroq tushadigan shimplarning pocha chizig'ini chizish qo'shimcha chiziqlar bilan ko'rsatilgan: T nuqtadan zarur uzunlik o'lchanadi, to'liq shim bo'y chiziladi. Tizzadan pastroq tushib turadigan shim pochasini kengaytirish va manjetli qilish ham yoki yon choklarini kesimli qilib toraytirish ham (modaga qarab) mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Ayollar shimi asosini chizish uchun uchun kanday o'lchov olinadi?
2. Ayollar shimi asosini chizishda qanday qo'shimchalardan foydalanildi?

## 50. Mavzu; Ayollar shimi andazalarini gazlamaga joylanmasi.


### Ayollar shimini bichish.

Nº	Bajariladigan ishlar mazmuni	Moslamalar, asboblar va xom ashyolar	Eskizlar, chizmalar, rasmlar	Bajarish tartibi
1	Gazlamani namlab dazmollah (dekatirovkalash)	Gazlama 150*70 sm Dazmol		Gazlama namlanib, tandaipi yo'naliishi dazmollanadi.
2	Gazlama nuqsonlarini aniqlash, bo'yi va yenini o'lchash	Bo'r, sm lenta		Gazlama o'ng tomonidan nuqsonlari teshik, ip va bo'yoqlar bir tekisligi tekshiriladi. Aniqlan-gan nuqsonlar bo'r bilan belgilab qo'yiladi
3	Gazlamani bichuv stoliga joylashtirish	Bichuv stoli, gazlama.		Gazlama bichuv stoli ustiga yalang qavat qilib to'shaladi.
4	Gazlamaga bo'laklari andazalarini joylashtirish	Bichuv stoli. Gazlama, bo'laklar andazalari, to'g'nog'ich		Shim ortold va mayda bo'lak andazalari gazlama ustiga joylashtiriladi. Bunda bo'laklar tanda ipi yo'naliishi gazlama tanda ipi yo'naliishi bilan ustma-ust tushishi kerak.


### 51.Mavzu: Ayollar shimini tikish texnologiyasi.

Reja:


1. Ayollar shimini modellashtirish.
2. Ayollar shimini bichish.
3. Ayollar shimini tikish.



Ayollar shimining shakli, uzunligi, silueti modalar yo‘nalishiga qarab o‘zgaradi. Shimlar konstruksiyasi bo‘yicha tor, keng, pochaga qarab kengaygan yoki toraygan, golife ko‘rinishida bo‘ladi. Bo‘ksadan kengaygan, kalta, uzun shaklida loyihamanadi. Shim bel chizig‘ida, beldan yuqorida yoki beldan pastda joylashishi mumkin. Shim belbog‘i qalin yoki ingichka, ikki uchlari uzaytirilgan, yoki bir tomoni uzaytirilgan kamar tutgichli yoki tutkichsiz, yon chocli yoki yaxlit bichilgan bo‘ladi. Kamar tutgich shakli ham turlichadir. Shim taqilmasi tugma va izmada yoki «molniya» da bo‘lishi mumkin. Shim modeli odam yoshiga, model ko‘rinishiga, tanlangan uslubga, gazlamaga mos bo‘lishi kerak.








Ayollar shimi andazalari 1-shim old bo‘lagi; 2- shim ort bo‘lagi;  
 3, 4, 5- belbog; 6- old bo‘lak qiyalama cho‘ntak ko‘rinmasi; 7- taqilma gulfigi; 8- cho‘ntak mag‘izi; 9-old yon cho‘ntak xaltasi.



Andazalarni tayyorlash.  
 Ayollar shimi bo‘laklari spesifikatsiyasi.

Bo'lak nomi	Bo'lak belgisi	Soni	
		Andoza	Bichiqda
Shim old bo'lagi	01	1	2
Shim ort bo'lagi	02	1	2
Shim belbog'i	03 04 05	3	6
Old bo'lak qiyalama cho'ntak ko'rinnmasi	06	1	2
Taqilma gulfigi	07	1	1
Cho'ntak mag'izi	08	1	2
Old yon cho'ntak xaltasi	09	1	1

<b>Ayollar shimi uchun model tanlash, konstruktiv modellash</b>				
Nº	Bajariladigan ishlar mazmuni	Moslamalar, asboblar va xom ashyolar	Eskizlar, chizmalar, rasmlar	Bajarish tartibi
1	Moda jurnallaridan foydalanib, Erkaklar shimi moda yo'nalishini tahlil qilish va xalat uchun model tanlash.	Moda jurnallari multimedya materiallari,		Moda jurnallari va multimedya materiallaridan foydalanib Erkaklar shimi moda yo'nalishini tahlil qilish va shim uchun model tanlash.
2	Tanlangan ayollar shimi model Eskiz rasmini chizish.	Qog'oz, qalam, o'chirg'ich.		Tanlangan ayollar xalati model Eskiz rasmini texnik shartlarga rioya qilgan holda chizish.
3	Shim asos konstruksiyasini modellash uchun tayyorlash.	Ayollar shimi asos konstruksiya chizmasi.		Shim chizmasi olinadi. Buning uchun old va ort bo'laklardan alohida nusxa ko'chiriladi.







4	Shim yon cho'ntagini modellash.	Ayollar shimi asos konstruksiya chizmasi, qalam, chizg'ich		Shim old bo'lagida yon qirqma qiya cho'ntak o'rni belgilanadi. Yon chokdan cho'ntak og'zigacha bo'lgan masofa 3,0-4,0 sm. Cho'ntak og'zi kattaligi 16,0 sm. Old bo'lak konstruksiyasida cho'ntak ko'rinmasi o'rni belgilnadi.
5	Shim taqilmasi gulfigini modellash.	Ayollar shimi asos konstruksiya chizmasi, qalam, chizg'ich		Shim o'ng old bo'lagi gulfik (adip) bilan yaxlit loyihalanadi. Gulfik kengligi 4 sm, uzunligi 16-18 sm.
<b>Ayollar shimini andazalarini ishlab chiqish.</b>				
1	Shim ort bo'lagi andazasini tayyorlash	Ayollar shimini ort bo'lak asos konstruksiya chizmasi, kalka qog'oz, qalam, oddiy va shakldor chizg'ich o'chirg'ich, qaychi.		Ort bo'lak konturlari bo'ylab choc haqqi qiymatlari qo'yib chiqiladi va andaza konturlari chiziladi ort bo'lak qirqimlaridan: - shim bel qirqimiga 1,0 sm; - shin yon qirqimiga 1,0 sm; - shim o'rta qirqimiga 1,0 sm; - shim odim qirqimiga 1,0 sm; - shim pastki pocha qirqimiga 2,5 sm choc xaqi qoldirib chizib chiqiladi.

2	Shim old bo'lak andazasini tayyorlash.	Ayollar shimini old bo'lak asos konstruksiya chizmasi, kalka qog'oz, qalam, oddiy va shakldor chizg'ich o'chirg'ich, qaychi.		Old bo'lak konturlari bo'ylab chok haqqi qiyamatlari qo'yib chiqila-di va andaza konturi chiziladi. Old bo'lak qirqimlaridan: shim bel qirqimiga 1,0 sm; shin yon qirqimiga 1,0 sm; shim o'rta qirqimiga 1,0 sm; shim odim qirqimiga 1,0 sm; shim pastki pocha qirqimiga 2,5 sm chok xaqi qoldirib chizib chiqiladi.
3	Shim belbog'i andazasini tayyorlash	Ayollar shimini modellashti-rilgan asos konstruksiya chizmasi, kalka qog'oz, qalam, oddiy va shakldor chizg'ich		Shim belbog'I qirqiomla-ridan: belbog' yuqori qirqimidan 0,7 sm; belbog' bel qirqimidan 1,0 sm; belbog' o'rta qirqimidan 1,0 sm; belbog' uchi qirqimidan 0,7 sm chok kengligi qoldirib chizib chiqiladi.
4	Shim old cho'ntagi ko'rinnasi andazasini tayyorlash.	Ayollar shimini old bo'lak modellashti-rilgan chizmasi, kalka qog'oz, qalam, oddiy va shakldor chizg'ich		Chok haqqi qiyamatlari qo'yildi: - bel qirqimida – 1,0 sm, - yon qirqimida – 1,0 sm, - cho'ntak osti qirqimi 1,5-2,0 sm chok xaqi qoldirib chizib chiqiladi.
5	Shim qiya cho'ntak xalta andazalarini tayyorlash.	Ayollar shimini old bo'lak modellashtirilgan chizmasi, kalka qog'oz, qalam, oddiy va shakldor chizg'ich qaychi.		Shim qiya cho'ntak xalta andaza qirqimlaridan: - cho'ntak xalta bel qirqimidan 1,0 sm; - yon qirqimidan 1,0 sm; - pastki qirqimidan 1,0 sm chok kengligi qoldirib chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar bo'ylab

				andazakesib olinadi.
6	Old bo‘lak taqilma adipi andazasini tayyorlash.	Ayollar shimini ort bo‘lak modellashtirilgan chizmasi, kalka qog‘oz, qalam, oddiy va shakldor chizg‘ich, o‘chirg‘ich, qaychi		Old bo‘lak taqilma adipi qirqimlaridan: - adip yuqori qirqimiga 1,0 sm; - adip yon qirqimidan 1,0 sm chok kengligi qoldirib chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar bo‘ylab andazakesib olinadi. Andozada tanda ipi yo‘nalishi va bo‘lak raqami qo‘yiladi






**52. Mavzu; Ayollar shimini old bo‘lagidagi qiya cho‘ntakka ishlov berish usullarini o‘rgatish.**




Nº	Bajariladigan ishlar mazmuni	Moslamalar, asboblar va xom ashyolar	Eskizlar, chizmalar, rasmlar	Bajarish tartibi
1	Old bolak cho‘ntak o‘rnini belgilash.	Yordamchi andaza, bo‘r.		Old yarim bo‘laklarda qiya cho‘ntak o‘rnini belgilab qo‘yiladi va kertik beriladi.
2	Cho‘ntak og‘ziga yelimli qotirma yopishtirish.	Dazmol, dazmolmato.		Bukish chizig‘i bo‘ylab yelim uqa dazmollab yopishtiriladi.
3	Cho‘ntak og‘zini bukib dazmollash.	Dazmol, dazmolmato.		Cho‘ntak og‘zini ichki qirqimi bukib dazmullanadi.

4	Ko‘rinmaning ichki qirqimini yo‘rmalash.	Maxsus mashina, ip, qaychi.		Ko‘rinmfning ichki qirqimi yo‘rmalanadi.
5	Ko‘rinmani cho‘ntak xaltaga bostirib tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Ko‘rinma va cho‘ntak xaltasini yon va yuqori qirqimlari birlashtiriladi, chok yesa 0.3-0.5 sm ko‘rinmadan narida yuritiladi.
6	Cho‘ntak ziyi bo‘ylab bezak baxiyaqator yuritish va asosiy detaldan xosil qilingan adipni cho‘ntak qopiga tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Cho‘ntak ziyi bo‘ylab, 0.5-0.7 sm kenglikda bezak baxiyaqator yuritiladi, bunda cho‘ntak xalta qirqimini cho‘ntak og‘zi ziyiga to‘g‘irlab qo‘yiladi. Yaxlit bichilgan adip ichki qirqimi cho‘ntak xaltasiga bostirib tikiladi.
7	Cho‘ntak yuqori qirqimini bostirib tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Tayyor cho‘ntak ko‘rinmasi xaltasiga qo‘yiladi va yuqori qirqimlari tekislanib yuqori ziyidan 0.7 sm kenglikda chok yuritiladi.
8	Cho‘ntak xalta qirqimlarini biriktirib tukish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Cho‘ntak xalta pastki qirqimlari biriktirib tikiladi.
9	Cho‘ntak xalta pastki qirqimini yo‘rmalash	Maxsus mashina, ip, qaychi.		Cho‘ntak xalta pastki qirqimilari maxsus mashinada yo‘rmalanadi.
10	Cho‘ntak og‘zini puxtalash.	Universal mashina, ip, qaychi.		Yuqori qirqimlaridan 1.5 sm narida cho‘ntak puxtalanadi, bunda puxtalash.




				cho'ntak ziyiga perpendikulyar bo'lishi kerak.
11	Tayyor cho'ntakni dazmollash.	Dazmolmato, dazmol.		Tayyor cho'ntak dazmollanadi.



**Ayollar shimini yon, odim va o'rta qirqimlariga ishlov berish, shim taqilmasiga mo'lniya tasma qo'yib tikish usullarini o'rgatish.**

Nº	Bajariladigan ishlар mazmuni	Moslamalar, asboblar va xom ashyolar	Eskizlar, chizmalar, rasmlar	Bajarish tartibi
1	Shim old va ort bo'laklarini yon qirqimlarini biriktirish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Shim old va ort bo'lak yon qirqimlarini o'ngini-o'ngiga qo'yib qirqimlarini tenglab 1,0 sm biriktirma chokda tikiladi.
2	Chokka NII berish.	Dazmol, dazmolmato.		Shim yon chok qirqimlari yorib dazmolmato orqali dazmollanadi.
3	Shim old va ort bo'laklarini odim qirqimlarini biriktirish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Shim old va ort bo'lak odim qirqimlarini o'ngini-o'ngiga qo'yib qirqimlarini tenglab 1,0 sm biriktirma chokda tikiladi.
4	Chokka NII berish.	Dazmol, dazmolmato.		Shim odim chok qirqimlari yorib dazmolmato orqali dazmollanadi.
5	Old bo'lak o'rta qirqimini tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Shim old bo'lak o'rta qirqimlari o'ngi-o'ngiga qo'yib biriktirib kertimigacha tikiladi.
6	Adipga molniya tasmasini tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Adip o'ngiga belgilangan chiziq bo'ylab "molniya" tasmani qo'yib bostirib tikiladi. Baxiyaqator tasma chetidan 0.2 sm oralida yuritiladi.
7	Taqilma adipini old bo'lakka tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Shim old bo'lagi chap tomoniga taqilma joyiga taqilma adipini qo'yib ag'darma chok bilan




				tikiladi.
8	Taqilma adipini dazmollahash.	Dazmol, dazmolmato.		Taqilma adipini shim teskarisiga ag'darib, asosiy detaldan 0.1-0.2 sm kant xosil qilib dazmollanadi
9	Otkoskni old bo'lakka biriktirib tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Otkosk "molniya" tasma bilan birga shim old bo'lagi o'ng tomoniga biriktirib tikiladi
10	Otkosk mag'izini otkoskka tikish	Universal mashina, ip, qaychi.		Otkosk mag'izi otkosk yon qirqimiga ag'darmachokda tikiladi. 0.7 sm da mag'iz xosil qilinadi.
11	Otkosk mag'izini bostirib tikish	Universal mashina, ip, qaychi.		Otkosk bilan shim taqilma qirqimi bilan biriktirilgan choc atrofida mag'iz o'girilib o'ng tomondan taqilma ziyidan bostirib tikiladi.
12	Shim taqilmasiga bezak bahyaqator yuritish va NII berish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Shim taqilmasiga 2,0-2,5 sm choc kenglikda, belgilangan chiziq bo'yicha bezak bahyaqator yuritiladi va NII beriladi.



#### Ayollar shimining yuqori qirqimiga ishlov berish.

Nº	Bajariladigan shlar mazmuni	Moslamalar asboblar va xom ashyolar	Eskizlar (chizmalar, rasmlar)	Bajarish tartibi
1	Shim yuqori qirqimini ishlash.	Universal mashina, ip, qaychi.		Shim yuqori qirqimiga belbog'ni o'ngini-o'ngiga qo'yib kertimlarini to'g'irlab, biriktirib tikiladi.
2	Shim yuqori qirqimiga NII berish.	Dazmol, dazmolmato.		Shim bel qirqimi belbog' tomonga yotqizib dazmollanadi.
3	Belbog' uchlariga ilgak o'rnatish.	Qo'l.		Belbog' uchlariga belgilangan o'rniga ilgaklar o'rnatiladi




8	Belbog' uchini bostirib tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Belbog' uchi ziyidan 0.1-0.2 sm kenglikda belbog'ga bostirma chok bilan tikiladi.
9	Shim o'rta qirqimini tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Shim orqa bo'lak o'rta qirqimlari o'ngi-o'ngiga qo'yilib biriktirma chokda tikiladi.
10	Chokka NII berish.	Dazmol, dazmolmato.		Shim o'rta qirqimlari yorib dazmolmato orqali NII beriladi.

#### Manjetli va manjetsiz ayollar shimming pochasiga ishlov berish.

Nº	Bajariladigan ishlari nazmuni	Moslamalar asboblar va xomashyolar	Eskizlar (chizmalar, rasmlar)	Bajarish tartibi
1	Shim pochasigatasmani tikish.	Universal mashina, qo'l ignasi, ip, qaychi.		Shim pochasi belgi chiziq bo'ylab bukiladi. Pocha qirqimi ustiga undan 0,2 sm chiqarib tasma qo'yib bostirib tikiladi. Pocha qirqimi tasmasini universal mashinada oldin pocha qirqimidan 0,7 sm masofada ulab olinadi. Keyin tasmaning ikkinchi cheti bostirib tikiladi. Manjetli shim o'ngi tomonga qaytarilib, maxsus mashinada yoki qo'lda ko'klanadi.
2	Shim pochasiga so'nggi ishlov berish	Dazmol, dazmolmato.		Manjetning yon va odim choklari ustiga to'g'ri kelgan joylari manjet bilan shim pochasini qarama-qarshi tomonga qayirib turib, shu choklarga puxtalab tikib qo'yiladi.
3	Shim pochasini tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Shim pochasiga tasma qo'yib, yuqori va pastki qismi bostirma chokda tikiladi.

4	Shim pochasini dazmollash.	Dazmol, dazmolmato.		Shim pochasi tasma ulangan joyidan bukilib dazmolmato orqali NII beriladi.
5	Shim pochasini bukib tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Shim pochasi yashirin biriktirma qaviq bilan tikiladi.

#### Tayyor ayollar shimini uzil kesil pardozlash va N.I.I berish.

Nº	Bajariladigan ishlar nazmuni	Moslamalar asboblar va xom ashyolar	Eskizlar (chizmalar, rasmlar)	Bajarish tartibi
1	Belbog‘ga va shim cho‘ntaklariga NII berish.	Dazmol, dazmol-mato.		Tayyor bo‘lgan shim belbog‘iga va yon qiyaga cho‘ntaklarigayaxshilab nam mato yordamida NIIB beriladi.
2	Shim pastki qirqimiga NII berish.	Dazmol, dazmol-mato.		Shimning pastki qismi, pochasiga-cha yon va odim chocklarini to‘g‘ri keltirib dazmellanadi.
3	Shim yon chocklariga NII berish.	Dazmol, dazmol-mato.		Bukilgan joylarining odim chocklari tomonidan har qaysi bo‘lakda alohida, yon chocklari tomonidan yesa ikkala bo‘lak birga bukib dazmellanadi .
4	Belbog‘ga temir ilgak qardash.	Dazmol, dazmol-mato.		Belbog‘ tugallangan qismiga ishlov berilgandan so‘ng shimning chap bo‘lak belbog‘iga temir ilgak belgilangan joyga qadaladi. Temir ilgakni qardash qismi maxsus o‘tkir tig‘li uchdan iborat bo‘lib matoga oson kiradi.
5	Belboqqa temir izmani qardash.	Ign, ip, qaychi.		Shimning o‘ng yarim bo‘lak belbog‘ qismiga yakuniy ishlov berilgandan so‘ng, belgilangan belbog‘ taqilma qismiga temir izma qadaladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Shimni bichish uchun gazlamani tayyorlash jarayoni qanday?

2. Gazlamaga andazaga qanday joylashtiriladi?
3. Yon qiyalama cho‘ntagi qandau shaklda bo‘ladi?
4. Shimga NII berish usullarini ayting.

### **53.Mavzu: Erkaklar shimi asos chizmasining ort va old bo‘lagini hisoblash.**

Reja:

1. Erkaklar shimi asosining loyixalash uchun kerakligi o‘lchovlar.
2. Erkaklar shimi asos chizmasining old bo‘lagini hisoblash va chizish.
3. Erkaklar shimi asos chizmasining ort bo‘lagini hisoblash va chizish.


Namunaviy qomat o‘lchamlari.

№	Ўлчамлар номи	Шартли белгилар	Ўлчами см
1	Тўғри бурчак чизиги	BI	
2	Шим узунлиги	BIP= SHU+1	100+1
3	Қадам чизигини оролиги	BIQ=BkB/2	55/2
4	Бўкса чизиги оролиги	QBk= BIQ/3	26/3=8.6
5	Тизза чизиги оролиги	BIT= SHTU	51 см
6	Олд бўлак кенглиги	BkYaA+QBk/2	52+1/2=26.5см
7	Шимнинг урта чизиги	QQ <sub>4</sub> =QQ <sub>2</sub> /2	
8	Пойча кенглиги	P <sub>2</sub> P <sub>3</sub> =Pk-2	20-24см
9	Виточка узунлиги	BI <sub>3</sub> v	8-10см
10	Шим орт булаги		Активация Windows Чтобы активировать Windows, нажмите на параметрам компьютера.

Old bo‘lak chizmasi.

1. To‘g‘ri burchak chizib, burchakni V1 nuqta bilan belgilanadi.
2. BIP =ShU +1=100+1 shim uzunligi
3. BIQ=BkB-1=27-1=26 sm yoki BIQ=BkYaA:2=52:2=26 sm kadam chizig‘i oralig‘i.
4. QBk=BIQ:3= 26:3=8,6 sm. Bo‘ksa chizig‘i oralig‘i.
5. BIT = ShNU =51 sm Tizza chizig‘i oralig‘i yoki chiziqning o‘rtasidan yuqoriga 4-5sm ko‘tarilib T nuktani .
6. V1, Bk, Q, T, P nuktalardan o‘ng tomonga garizantal chiziklar o‘tkaziladi.
7. QQ1=(BkYaA+QBk):2=(52+1)2=26.5sm old bo‘lak kengligi.
8. Q1Q2=(BkYaA+QBk):10=(52+1):10=5,3sm qadam chizig‘ining kengayishi.
9. Q nuqtadan yuqoriga bel chizig‘i bilan kesishguncha vertikal chiziq o‘tkaziladi va kesishgan nuqtalarni VI1 VI2 =0-2sm qorinning turtib chiqishiga qarab olinadi.
10. Q1 Q2 = . Q1 Q2 :2 = 5.3:2 =2.6sm BI2Q1 Q2 burchak bissektirissasi.
11. BI1 BI2=0-2 sm qornining turtib chiqishiga qarab olinadi.
12. BI2 Bk1 Q3 Q2 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
13. QQ4 = QQ2 :2 =Shimning o‘rta chizig‘i.
14. Q4 nuqtadan yuqoriga va pastga vertikal chiziq o‘tkazilib, bel, bo‘ksa, tizza va pocha chiziqlari bilan kesishgan nuqtalarga mos ravishda BI3 Bk2 T1 P1 harflar qo‘yiladi.
15. P1 P3 = Pk -2 =(22-26) -2 =20-24sm pocha kengligi.
- 16.P1 P2 = P1 P3 = P1 P3 : 2 =(20-24):2=10-12 cm pocha kengligini yarmi.
17. BI4 BI5 = (BIYa A + QBI):2 + (3+5) = 39:2+(3-5) =22.5sm belbog‘i kengligi 3-5sm – vitochka yoki taxlama miqdori, agar taxlama ko‘p bo‘lsa, bu qiymat o‘zgarishi mumkin.
18. BI4 BI5 =1.5-2 sm bel nuqtasi, vertikal chiziqda qo‘yiladi .
19. BI5 BI2 nuqtalar chizg‘ich yordamida tutashtiriladi.
- 20.O‘rta chiziqqa vitochkaning miqdori ikkala tomonga bir xil qiymatga qo‘yiladi.
21. BI3 v = 8-10 sm vitochka uzunligi.
22. Vitochka tomonlari tenglashtiriladi.
- 23.Bk BI5 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.


- 24.Tizzadan kenglik ko‘p xollarda pocha kengligiga teng, yoki undan torroq bo‘lishi mumkin.  $T_1 T_2 = P_1 P_2 = 10-12$  sm yoki  $T_1 T_2 = P_1 P_2 - (1-2) = (10-12) = 9-1$  sm
25.  $T_2$  nuqtani  $Q$  nuqta bilan,  $T_3$  nuqtani  $Q_2$  nuqta bilan chizg‘ich yordamida birlashtiriladi va  $T_2 Q$  chiziqni 3 ta teng bo‘lakka bo‘linadi, perpendikulyarda 0.6 va 1 sm qo‘yiladi.  $Q$ , 0.6 sm, 1 sm  $T_2$  va  $Q_2$ , 0.8 sm  $T_3$  nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
26.  $T_2, R_2$  va  $T_3 R_3$  nuqtalar chizg‘ich yordamida tutashtiriladi.  
Ort bo‘lak chizmasi.
- 1.Old bo‘lak chizmasini qog‘ozga tushirib chizib olinadi va unda bel, bo‘ksa, qadam, tizza, pocha chiziqlaridagi nuqtalar belgilab olinadi.
  2.  $Q_1 Q_5 = 1$  sm (yordamchi nuqta).
  3.  $B_{l1}b = B_{l1}B_{l3}:2$  (chizmadan olinadi)
  4. b,  $Q_5$  nuqtalar chizg‘ich bilan tutashtiriladi va yuqoriga davom ettiriladi.
  5.  $b B_{l6} = B_k Y_a: 10-(1-1,5) = 52:10-(1-1,5) = 4,2$  sm (bel nuqtasi).
  6.  $B_{l6}Q_5$  chiziqning bo‘ksa chiziq bilan kesishgan nuqtasini  $B_k 3$  bilan belgilaymiz.
  7.  $B_k 3 B_k 4 = 4,2$  sm (bo‘ksa chizig‘i holati).
  8.  $Q_5 Q_6 = 0,2x (B_k Y_a A + Q B_k) = 0,2x (52+1) = 10,6$  sm (qadam chizig‘ining kengayishi).
  9.  $Q_5 Q_7 = Q_1 Q_3 = 2,6$  sm ( $B_k 3 Q_5 Q_6$  burchak bissektrissasi).
  10.  $T_2 T_4 = 2-2,5$  sm (tizza chizig‘ining kengayishi).
  11.  $T_2$  nuqtani  $Q_6$  nuqta bilan chizg‘ichda tutushtiriladi.
  12.  $Q_8 T_5 = T_3 Q_2 - (0,5-0,8)$  (old bo‘lak chizmasidan o‘lchab olinadi).
  13.  $B_k 4, Q_7, Q_8$  nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi
  14.  $B_k 4, B_k 5 = (B_k Y_a A + Q B_k) - Q Q_1 = (52+1)-26,5 = 26,5$  sm (bo‘ksa chizig‘idagi kenglik)
  15. Belning yon yuqori nuqtasi ikkita radiusning kesishishidan topiladi:  $R_1 = B_{l6} BL_7 = (B_k Y_a A + Q B_k):2+3 = 22,5$  sm (bel chizig‘idagi kenglik)  $R_2 = B_k 5$   $BL_7 = B_k B_{l5}$  (Chizmadan olinadi).
  16.  $BL_7 BL_6$  nuqtalar chizg‘ich bilan tutashtiriladi.
  17.  $BL_7 v_1 = BL_7 BL_6 : 2$  (vitochka o‘rni, chizmadan o‘lchanadi).
  18.  $v_1$  nuqtadan  $BL_7 BL_6$  chiziqa perpendikulyar o‘tkaziladi.
  19.  $v_1 v_2 = 9-10$  sm (vitochka uzunltgi).
  20. 3 sm vitochka miqdori  $v_1 v_2$  chiziqdan o‘ng va chap tomonga ikkiga bo‘lib qo‘yiladi.
  21. beldagi vitochka uzunliklari 0,5 smga yana uzaytiriladi.
  22.  $P_1 P_2 = P_3 P_5 = 2$  sm (pocha chizig‘idagi kenglik).
  23.  $P_4 T_4$  nuqta bilan  $P_5$ ,  $T_5$  nuqta bilan chizg‘ich yordamida tutashtiriladi.
  24. Yon chiziqning qolgan qismi old bo‘lakka paralel qilib, ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.




Nazorat uchun savollar:





1. Erkaklar shimi asosini chizish uchun qanday o'lchov olinadi?




#### 54. Mavzu;Erkaklar shimining orqa bo'lagini modellash.










4. Erkaklar shimi andazalari: 1-shim ort bo‘lagi; 2-shim old bo‘lagi; 3- belbog‘; 4- old bo‘lak qiyalama cho‘ntak ko‘rinmasi; 5- ort bo‘lak cho‘ntak ko‘rinmasi; 6- cho‘ntak xalta; 7- qirqma cho‘ntak mag‘izi; 8- taqilma gulfigi; 9- kamartutgich; 10- qirqma cho‘ntak xaltasi

<b>Nº</b>	<b>Bajariladigan ishlар nazmuni</b>	<b>Moslamalar asboblar va xom ashyolar</b>	<b>Eskizlar (chizmalar, rasmlar)</b>	<b>Bajarish tartibi</b>
<b>Erkaklar shimi uchun model tanlash, konstruktiv modellash</b>				
1	Moda jurnallaridan foydalanib, Erkaklar shimi moda yo‘nalishini tahlil qilish va xalat uchun model tanlash.	Moda jurnallarimultimediya materiallari,		Moda jurnallari va multimedya materiallaridan foydalanib erkaklar shimi moda yo‘nalishini tahlil qilish va shim uchun model tanlash.
2	Tanlangan Erkaklar shimi model Eskiz rasmini chizish.	Qog‘oz, qalam, o‘chirg‘ich.		Tanlangan ayollar xalati model Eskiz rasmini texnik shartlarga rioya qilgan holda chizish.
3	Shim asos konstruksiyasini modellash uchun tayyorlash.	Erkaklar shimi asos konstruksiya chizmasi.		Shim asos konstruksiyasining chizmasi olinadi. Buning uchun old va ort bo‘laklardan alohida nusxa ko‘chiriladi.




4	Shim old bo‘lagida taxlama o‘rnini belgilash va old bo‘lakni kengaytirish	Erkaklar shimi asos konstruksiya chizmasi, qalam, chizg‘ich		Bel chiziqda bitta taxlama o‘rnini belgilanadi. Taxlamalar yon cho‘ntak tomondan qarab qo‘yiladi. Taxlamalardan biri vitochka yoni old buklov chiziq o‘rnida belgilanadi
5	Shim yon cho‘ntagini modellash.	Erkaklar shimi asos konstruksiya chizmasi, qalam, chizg‘ich		Shim old bo‘lagida yon qirqma qiya cho‘ntak o‘rnini belgilanadi. Yon chokdan cho‘ntak og‘zigacha bo‘lgan masofa 3,0-4,0 sm. Cho‘ntak og‘zi kattaligi 16,0 sm. Old bo‘lak konstruksiyasida cho‘ntak ko‘rinmasi o‘rnini belgilnadi.
6	Shim taqilmasi gulfigini modellash.	Erkaklar shimi asos konstruksiya chizmasi, qalam, chizg‘ich		Shim chap old bo‘lagi gulfik (adip) bilan yaxlit loyihalanadi. Gulfik kengligi 4 sm, uzunligi 16-18 sm.
7	Shim ort bo‘lagi mag‘izli qirqma cho‘ntakni modellashti-rish.	Erkaklar shimi asos konstruksiya chizmasi, qalam, chizg‘ich		Shim ort bo‘lagida bitta qirqma cho‘ntak modellashtiriladi. Cho‘ntak og‘zi kattaligi 14 sm, mag‘iz kengligi 0,7 sm o‘lchab chiziladi.
<b>Erkaklar shimini andazalarini ishlab chiqish.</b>				

1	Shim ort bo‘lagi andazasini tayyorlash	Erkaklar shimini ort bo‘lak modellashtirilgan asos konstruksiya chizmasi, kalka qog‘oz, qalam, oddiy va shakldor chizg‘ich o‘chirg‘ich, qaychi.		Ortbo‘lak konturlari bo‘ylab chok haqqi qiymatlari qo‘yib chiqiladi va andaza konturlari chiziladi ort bo‘lak qirqimlaridan: - shim bel qirqimiga 1,0 sm; - shin yon qirqimiga 1,0sm; - shim o‘rta qirqimiga 1,0 sm; - shim odim qirqimiga 1,0 sm; - shim pastki pocha qirqimiga 2,5 sm chok xaqi qoldirib chizib chiqiladi.
2	Shim old bo‘lak andazasini tayyorlash.	Erkaklar shimini old bo‘lak modellashtirilgan asos konstruksiya chizmasi, kalka qog‘oz, qalam, oddiy va shakldor chizg‘ich o‘chirg‘ich, qaychi.		Old bo‘lak konturlari bo‘ylab chok haqqi qiymatlari qo‘yib chiqila-di va andaza konturi chiziladi. Old bo‘lak qirqimlaridan: shim bel qirqimiga 1,0 sm; shin yon qirqimiga 1,0sm; shim o‘rta qirqimiga 1,0 sm; shim odim qirqimiga 1,0 sm; shim pastki pocha qirqimiga 2,5 sm chok xaqi qoldirib chizib chiqiladi.
3	Shim belbog‘i andazasini tayyorlsh	Erkaklar shimini modellashti-rilgan asos konstruksiya chizmasi, kalka qog‘oz, qalam, oddiy va shakldor chizg‘ich		Shim belbog‘i qirqiomla-ridan: bel-bog‘ yuqori qirqimidan 0,7 sm; bel-bog‘ bel qirqimidan 1,0 sm; belbog‘ o‘rta qirqimidan 1,0 sm; belbog‘ uchi qirqi-midan 0,7 sm chok kengligi qoldirib chizib chiqiladi.

4	Shim old cho'ntagi ko'rinnasi andazasini tayyorlash.	Erkaklar shimini old bo'lak modellashti- rilgan chizmasi, kalka qog'oz, qalam, oddiy va shakldor chizg'ich		Model konstruksiyadan ko'rinnma konturi ko'chirib olinadi. Chok haqqi qiymatlari qo'yiladi: - bel qirqimida – 1,0 sm, - yon qirqimida – 1,0 sm, - cho'ntak osti qirqimi 1,5-2,0 sm chok xaqi qoldirib chizib chiqiladi.
5	Mag'izli qirqma cho'ntak ko'rinnasi andazasini tayyorlash.	Erkaklar shimini ort bo'lak modellashtirilga n chizmasi, kalka qog'oz, qalam, oddiy va shakldor chizg'ich, o'chirg'ich, qaychi.		Mag'izli qirqma cho'ntak ko'rinnasi qirqimlaridan: - ko'rinnma yuqori qirqimidan 1,0 sm; - ko'rinnma yon qirqimlaridan 2,0 sm chok kengligi qoldirib chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar bo'ylab andazakesib olinadi. Andazada tanda ipi yo'nalishi va bo'lak raqami qo'yiladi
6	Shim qiya cho'ntak xalta andazasini tayyorlash.	Erkaklar shimini old bo'lak modellashtirilga n chizmasi, kalka qog'oz, qalam, oddiy va shakldor chizg'ich qaychi.		Shim qiya cho'ntak xalta andazaqirqimlaridan: - cho'ntak xalta bel qirqimidan 1,0 sm; - yon qirqimidan 1,0 sm; pastki qirqimidan 1,0 sm chok kengligi qoldirib chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar bo'ylab andazakesib olinadi.
7	Mag'izli qirqma cho'ntak mag'izi andazasini tayyorlash.	Kalka qog'oz, qalam, oddiy va shakldor chizg'ich qaychi.		Mag'izli qirqma cho'ntak mag'izi qirqimlaridan: mag'iz yuqori va pastki qirqimidan 1,0 sm; yon qirqimidan 2,0 sm chok kengligi qoldirib chizib chiqiladi.

8	Old bo‘lak taqilma adipi andazasini tayyorlash.	Erkaklar shimini ort bo‘lak modellashtirilgan chizmasi, kalka qog‘oz, qalam, oddiy va shakldor chizg‘ich, o‘chirg‘ich, qaychi		Old bo‘lak taqilma adipi qirqimlaridan: - adip yuqori qirqimiga 1,0 sm; - adip yon qirqimidfan 0,7 sm choc kengligi qoldirib chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar bo‘ylab andazakesib olinadi. Andazada tanda ipi yo‘nalishi va bo‘lak raqami qo‘yiladi.
9	Kamar tutgich andazasini tayyorlash.	Erkaklar shimini ort bo‘lak modellashtirilgan chizmasi, kalka qog‘oz, qalam, oddiy va shakldor chizg‘ich o‘chirg‘ich, qaychi		Kamar tutgich qirqimlaridan: - kamar tutgich yuqori va pastki qirqimidfan 1,0 sm; - yon qirqimlaridan 0,5 sm choc kengligi qoldirib chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar bo‘ylab andazakesib olinadi. Andazada tanda ipi yo‘nalishi va bo‘lak raqami qo‘yiladi
10	Mag‘izli qirqma cho‘ntak qopni andazasini tayyorlash.	Erkaklar shimini ort bo‘lak modellashtirilgan chizmasi, kalka qog‘oz, qalam, oddiy va shakldor chizg‘ich qaychi.		Mag‘izli qirqma cho‘ntak qopni qirqimlaridan: cho‘ntak og‘zi kenglikla-riga 2,0 sm cho‘n - tak qopni yuqori va pastki qirqimlaridan 1,0 sm choc kengligi qoldirib chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar bo‘ylab andazakesib olinadi. Andazada tanda ipi yo‘nalishi va bo‘lak raqami qo‘yiladi.

Nº	Bajariladigan ishlarnazmuni	Moslamalar asboblar va xomashyolar	Eskizlar (chizmalar, rasmlar)	Bajarish tartibi
----	-----------------------------	------------------------------------	-------------------------------	------------------

1	Gazlamani namlab dazmollah (dekatirovkalash)	Gazlama 150*70 sm Dazmol		Gazlama namlanib, tandaipi yo'nalishida dazmollanadi.
2	Gazlama nuqsonlarini aniqlash, bo'yи va yenini o'lchash	Bo'r, sm lenta		Gazlama o'ng tomonidan nuqsonlari teshik, ip va bo'yoqlar bir tekisligi tekshiriladi. Aniqlangan nuqsonlar bo'r bilan belgilab qo'yiladi
3	Gazlamani bichuv stoliga joylashtirish	Bichuv stoli, gazlama.		Gazlama bichuv stoli ustiga yalang qavat qilib to'shaladi.
4	Gazlamaga shim bo'laklari andazalarini joylashtirish	Bichuv stoli. Gazlama, bo'laklar andazalarini, to'g'nog'ich		Shim ort, old va mayda bo'lak andazalari gazlama ustiga joylashtiriladi. Bunda bo'laklar tanda ipi yo'nalishi gazlama tanda ipi yo'nalishi bilan ustma-ust tushishi kerak.


## 55.Mavzu: Erkaklar shimini tikish texnologiyasi.

Reja:

1. Erkaklar shimini modellashtirish.
2. Erkaklar shimini bichish.
3. Erkaklar shimini tikish.



Erkaklar shimining shakli, uzunligi, silueti modalar yo‘nalishiga qarab o‘zgaradi. Shimlar konstruksiyasi bo‘yicha tor, keng, pochaga qarab kengaygan yoki toraygan, golife ko‘rinishida bo‘ladi. Bo‘ksadan kengaygan, kalta, uzun shaklida loyihamanadi. Shim bel chizig‘ida, beldan yuqorida yoki beldan pastda joylashishi mumkin. Shim belbog‘i qalin yoki ingichka, ikki uchlari uzaytirilgan, yoki bir tomoni uzaytirilgan kamar tutgichli yoki tutkichsiz, yon chocli yoki yaxlit bichilgan bo‘ladi. Kamar tutgich shakli ham turlichadir. Shim taqilmasi tugma va izmada yoki «molniya» da bo‘lishi mumkin. Shim modeli odam yoshiga, model ko‘rinishiga, tanlangan uslubga, gazlamaga mos bo‘lishi kerak.



**Old bo‘lakda qirqim yon cho‘taklarni modellash namunalari:** a-qirqma og‘ma cho‘ntak b-yoysimon figurali cho‘ntak; v - qirqma listochkali cho‘ntak.

**Erkaklar shimini tikish ketma –ketligini tuzish va mayda bo‘laklarini tayyorlash**

**56.Mavzu;Erkaklar shimini old bo‘lagidagi qiya cho‘ntakka ishlov berish.**

<b>Nº</b>	<b>Bajariladigan ishlar nazmuni</b>	<b>Moslamalar asboblar va xom ashyolar</b>	<b>Eskizlar (chizmalar, rasmlar)</b>	<b>Bajarish tartibi</b>
1	Old bolak cho'ntak o'mini belgilash.	Yordamchi andaza, bo'r.		Old yarim bo'laklarda qiya cho'ntak o'mni belgilab qo'yiladi va kertik beriladi.
2	Cho'ntak og'ziga yelimli qotirma yopishtirish.	Dazmol, dazmolmato.		Bukish chizig'i bo'ylab yelim uqa dazmollab yopishtiriladi.
3	Cho'ntak og'zini bukib dazmollahash.	Dazmol, dazmolmato..		Cho'ntak og'zini ichki qirqimi bukib dazmollahanadi.
4	Ko'rinmaning ichki qirqimini yo'rmalanash.	Maxsus mashina, ip, qaychi.		Ko'rinmaning ichki qirqimi yo'rmalanadi.
5	Ko'rinmani cho'ntak xaltaga bostirib tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Ko'rinma va cho'ntak xaltasini yon va yuqori qirqimlari birlashtiriladi, choc yesa 0.3-0.5 sm ko'rinnadan narida yuritiladi.
6	Cho'ntak ziyi bo'ylab bezak baxiyaqator yuritish va asosiy detaldan xosil qilingan adipni cho'ntak qopiga tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Cho'ntak ziyi bo'ylab, 0.5-0.7 sm kenglikda bezak baxiyaqator yuritiladi, bunda cho'ntak xalta qirqimini cho'ntak og'zi ziyiga to'g'irlab qo'yiladi. Yaxlit bichilgan adip ichki qirqimi cho'ntak xaltasiga bostirib tikiladi.
7	Cho'ntak yuqori qirqimini bostirib tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Tayyor cho'ntak ko'rinnasi xaltasiga qo'yiladi va yuqori qirqimlari tekislanib yuqori ziyidan 0.7 sm kenglikda choc yuritiladi.
8	Cho'ntak xalta qirqimlarini biriktirib tukish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Cho'ntak xalta pastki qirqimlari biriktirib tikiladi.
9	Cho'ntak xalta pastki qirqimini yo'rmalanash	Maxsus mashina, ip, qaychi.		Cho'ntak xalta pastki qirqimlari maxsus

				mashinada yo'rmalanadi.
10	Cho'ntak og'zini puxtalash.	Universal mashina, ip, qaychi.		Yuqori qirqimlaridan 1.5 sm narida cho'ntak puxtalanadi, bunda puxtalash cho'ntak ziyiga perpendikulyar bo'lishikerak.
11	Tayyor cho'ntakni dazmollash.	Dazmolmato, dazmol.		Tayyor cho'ntak dazmollanadi.








### Erkaklar shim orqa bo'lagidagi qirqma cho'ntakka ishlov berish.


Nº	Bajariladigan ishlarnazmuni	Moslamalar asboblar va xomashyolar	Eskizlar (chizmalar, rasmlar)	Bajarish tartibi
1	Orqa bo'lak qirqma cho'ntak o'rmini belgilash, bo'ylama qo'yish.	Yordamchi andaza, bo'r, dazmol, dazmolmato.		Cho'ntak o'rni 12 sm kengligida belgilanadi, asosiy bo'lakni teskari tomonidan bo'yłamaning o'rtasida cho'ntak o'rmini belgilangan joyiga yelim bo'ylama qo'yilib dazmollab yopishтирiladi.
2	Mag'izlarni cho'ntak o'rninga tikish.	Universal mashina, ip, qaychi		Mag'izlar asosiy detalni o'ng tomoniga belgilangan chiziq bo'lab qo'yilib bostirib tikiladi. bahyaqator uchlari puxtalanadi.
3	Cho'ntak og'zini qirqish.	Qaychi.		Asosiy bo'lakni bahyaqatorlar orasida cho'ntak og'zining tugallangan chiziqliga 0,1-0,15 sm yetkazmay ikki chetidan burchak hosil qilib, bahyaqatorga 0,1-0,2 sm yetkazmay qirqiladi. Mag'iz qirqimlari asosiy bo'lak teskarisiga ag'dariladi.
4	Chontak mag'izi ziyini ko'klassh va NII berish.	Ignal, ip, qaychi, dazmol.		Cho'ntakning yuqori va pastki tomonidagi ziyllari 0,5-0,7 smli

				yiriklikdagi sirma qaviq bilan ko'klanadi va NII beriladi.
5	Ko'rinmani cho'ntak xaltanga bostirib tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Cho'ntak xalta ustiga ko'rinma bostirib tikiladi.
6	Cho'ntak xalta bo'laklarini yuqori va pastki mag'izlarga ulash.	Universal mashina, ip, qaychi.		Cho'tak xaltalar yuqori va pastki mag'izlara qirqimlari tekislab birikturma chokda tikiladi va bahyaqator uchlari puxtalanadi.
7	Cho'ntak uchlarini puxtalash.	Universal mashina, ip, qaychi.		Cho'ntak ramkasi uchlari to'g'ilanib burchaklari qayta bahyaqator bilan puxtalanadi.
8	Cho'ntak xaltani qirqimlarinibiriktirib tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Cho'ntak xaltani qirqimlarini biriktirib tikiladi
9	Cho'ntak xaltani qirqimlarini yo'rmalash.	Maxsus mashina, ip, qaychi.		Cho'ntak xaltani qirqimlarini maxsus mashinada yo'rmaladi.
10	Cho'ntakni dazmollash.	Dazmol, dazmolmato.		Tayyor cho'ntakni oldin teskari tomonidan so'ngra o'ng tomonidan dazmolmato orqali NII beriladi.



**Erkaklar shimining yon, odim va o'rta qirqimlariga ishlov berish, shim taqilmasiga mo'lniya tasma qo'yib tikish.**

Bajariladigan ishlarnazmuni	Moslamalar asboblar va xomashyolar	Eskizlar (chizmalar, rasmlar)	Bajarish tartibi
1 Shim old va ort bo'laklarini yon qirqimlarini biriktirish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Shim old va ort bo'lak yon qirqimlarini o'ngini-o'ngiga qo'yib qirqimlarini tenglab 1,0 sm birikturma chokda tikiladi.

2	Chokka NII berish.	Dazmol, dazmolmato.		Shim yon chok qirqimlari yorib dazmolmato orqali dazmollanadi.
3	Shim old va ort bo'laklarini odimqirqimlarini biriktirish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Shim old va ort bo'lak odim qirqimlarini o'ngini-o'ngiga qo'yib qirqimlarini tenglab 1,0 sm biriktirma chokda tikiladi.
4	Chokka NII berish.	Dazmol, dazmolmato.		Shim odim chok qirqimlari yorib dazmolmato orqali dazmollanadi.
5	Old bo'lak o'rta qirqimini tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Shim old bo'lak o'rta qirqimlari o'ngi-o'ngiga qo'yib biriktirib kertimigacha tikiladi.
6	Adipga molniya tasmasini tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Adip o'ngiga belgilangan chiziq bo'ylab "molniya" tasmani qo'yib bostirib tikiladi. Baxiyaqator tasma chetidan 0.2 sm oraliqda yuritiladi.
7	Taqilma adipini old bo'lakka tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Shim old bo'lagi chap tomoniga taqilma joyiga taqilma adipini qo'yib ag'darma chok bilan tikiladi.
8	Taqilma adipini dazmollash.	Dazmol, dazmolmato.		Taqilma adipini shim teskarisiga ag'darib, asosiy detaldan 0.1-0.2 sm kant xosil qilib dazmollanadi
9	Otkosni old bo'lakka biriktirib tikish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Otkosk "molniya" tasma bilan birga shim old bo'lagi o'ng tomoniga biriktirib tikiladi
10	Otkosk mag'izini otkoskka tikish	Universal mashina, ip, qaychi.		Otkosk mag'izi otkosk yon qirqimiga ag'darmachokda tikiladi. 0.7 sm da mag'iz xosil qilinadi.
11	Otkosk mag'izini	Universal		Otkosk bilan shim

1	bostirib tikish	mashina, ip, qaychi.		taqilma qirqimi bilan biriktirilgan chok atrofida mag'iz o'girilib o'ng tomondan taqilma ziyidan bostirib tikiladi.
1 2	Shim taqilmasiga bezak bahyaqator yuritish va NII berish.	Universal mashina, ip, qaychi.		Shim taqilmasiga 2,0-2,5 sm chok kenglikda, belgilangan chiziq bo'yicha bezak bahyaqator yuritiladi va NII beriladi.

### Erkaklarning Manjetli va manjetsiz shimi pochasiga ishlov berish.

Nº	Bajariladigan ishlar nazmuni	Moslamalar asboblar va xom ashylar	Eskizlar (chizmalar, rasmlar)	Bajarish tartibi
1	Shim pochasiga tasmani tikish.	Universal mashina, ignasi, qaychi. qo'l ip,		Shim pochasi belgi chiziq bo'ylab bukiladi. Pocha qirqimi ustiga undan 0,2 sm chiqarib tasma qo'yib bostirib tikiladi. Pocha qirqimi tasmasini universal mashinada oldin pocha qirqimidan 0,7 sm masofada ulab olinadi. Keyin tasmaning ikkinchi cheti bostirib tikiladi. Manjetli shim o'ngi tomonga qaytarilib, maxsus mashinada yoki qo'lda ko'klanadi.
2	Shim pochasiga so'nggi ishlov berish.	Dazmol, dazmol-mato		Manjetning yon va odim choklari ustiga to'g'ri kelgan joylari manjet bilan shim pochasin qarama-qarshi tomonga qayirib turib, shu choklarga puxtalab tikib qo'yiladi. Manjet maxsus moslamada tekislanadi va dazmollanadi.

3	Shim pochasini tikish.	Universal mashina, qo'l ignasi, ip, qaychi.		Shim pochasiga tasma qo'yib, yuqori va pastki qismi bostirma chokda tikiladi.
4	Shim pochasini dazmollahsh..	Dazmol, dazmol-mato		Shim pochasi tasma ulagan joyidan bukilib dazmolmato orqali NII beriladi.
5	Shim pochasini bukib tikish.	Universal mashina, qo'l ignasi, ip, qaychi.		Shim pochasi yashirin biriktirma qaviq bilan tikiladi.

#### Tayyor Erkaklar shimini uzil -kesil pardozlash va N.I.I berish.

Nº	Bajariladigan ishlar nazmuni	Moslamalar asboblar va xom ashyolar	Eskizlar (chizmalar, rasmlar)	Bajarish tartibi
1	Belbog'ga va shim cho'ntaklariga NII berish.	Dazmol, dazmol-mato.		Tayyor bo'lgan shim belbog'iga va yon qiya cho'ntaklariga yaxshilab nam mato yordamida NIIB beriladi.
2	Shim pastki qirqimiga NII berish	Dazmol, dazmol-mato..		Shimning pastki qismi, pochasigacha yon va odim choklarini to'g'ri keltirib dazmollanadi.
3	Shim choklariga yon NII berish.	Dazmol, dazmol-mato.		Bukilgan joylarining odim choklari tomonidan har qaysi bo'lakda alohida, yon choklari tomonidan esa ikkala bo'lak birga bukib dazmollanadi.
4	Belbog'ga temir ilgak qadash.	Dazmol, dazmol-mato.		Belbog' tugallangan qismiga ishlov berilgandan so'ng shimning chap bo'lak belbog'iga temir ilgak belgilangan joyga qadaladi. Temir ilgakni

				qadash qismi maxsus o‘tkir tig‘li uchdan iborat bo‘lib matoga oson kiradi..
5	Belboqqa temir izmani qadash.	Ign, ip, qaychi.		Shimning o‘ng yarim bo‘lak belbog‘ qismiga yakuniy ishlov berilgandan so‘ng, belgilangan belbog‘ taqilma qismiga temir izma qadaladi.

Nazorat uchun savollar:



1. Shimni bichish uchun gazlamani tayyorlash jarayoni qanday?
2. Gazlamaga andazaga qanday joylashtiriladi?
3. Erkaklar shimida yirik va mayda bo‘laklarini ajratib bering..

### 57.Mavzu: Ayollar ko‘ylagi asos chizmasini hisoblash va chizish.

Reja:

1. Ko‘ylak asosining loyixalash uchun kerakligi o‘lchovlar.
2. Ayollar ko‘ylagi asos chizmasini ort bo‘lagini hisoblash va chizish.
2	Yon qirqimlarini yo'rmalash	Maxsus mashina, ip, qaychi.		Yon qirqimlari maxsus mashinada yo'rmanadi.
3	Yon choklarini dazmollash	Dazmol, dazmolmato.		Yon choklari bir tomonga yotqizib (ort bo'lakka) dazmollanadi.
4	Etak uchini bukib tikish.	Universal mashina , ip, qaychi.		Etak uchini yana bir marotaba bukib, bukma ziydan 0,1-0,2 sm kenglikda bostirib tikiladi.

#### Milliy ko'yak oxirgi ishlov berish va NIIB

1	Milliy ko'yakni so'nggi pardozlash	Qaychi		Milliy ko'yak o'ngi va teskarisidan qolgan iplari qirqib tashlanadi va NII beriladi.
---	------------------------------------	--------	--	--

Nazorat uchun savollar:

1. Ayollar milliy ko'yagi modellashtirish bosqichlari nimalardan iborat?
2. Ayollar milliy ko'yagi mayda bo'laklarini ishlash texnologik ketma-ketligini tuzing.
3. Ayollar milliy ko'yagi yig'ish va oxirgi ishlov berish jarayoni xaqida gapiring.

#### 65.Mavzu: Model lif qismini texnik modellashtirish.

Reja:

1. Ko'krak vitochkasini ko'chirish qoidasi.
2. Ko'krak vitochkasini yon qirqim chizig'iga ko'chirish.
3. Ko'krak vitochkasini bel chizig'iga ko'chirish.
4. Ko'krak vitochkasini old bo'lak bo'yin o'mizi chizig'iga ko'chirish.

5. Ko'krak vitochkasini yeng o'mizi chizig'iga ko'chirish.
6. Ko'krak vitochkasini old bo'lak o'rtta chizig'iga ko'chirish.
7. Detallarni parallel va konussimon kengaytirish.

**Ko'krak vitochkasini ko'chirish qoidasi.** Ko'ylak fasoniga binoan ko'krak vitochkasi detalning istalgan qirqimida bo'lishi mumkin. Bu vitochkani ko'krak chizig'i bo'yab old bo'lak o'rtasi, yeng o'mizi qirqimi, yoqa o'mizi qirqimi, yon qirqimi tomon va hokazo yo'naltirish mumkin. Vitochkani fasonga muvofiq, yangi holatga ko'chirish uchun vitochkaning ko'chirilish chizig'i o'tkazilishi kerak. Bu chiziq doim ko'krak vitochkaning uchidan, ya'ni ko'krak markazi bilan vitochka ko'chiriladigan qirqimdag'i nuqtadan o'tishi kerak. Old bo'lak andazasining shabloni belgi chiziq buylab qirqiladida, ko'krak vitochkasi yopiladigan qilib suriladi. Vitochka tomonlarini bir-biriga to'g'rilab to'ynog'ich bilan to'g'naladi. Qirqilgan chiziq bo'yab xuddi asosiy vitochka kengligiga teng yangi vitochka hosil buladi. Bu vitochka birmuncha kalta yoki uzun bo'lishi mumkin, lekin bu vitochka xuddi asosiy vitochka hosil kilganidek, hajm hosil qiladi.

**Ko'krak vitochkasini yon qirqim chizig'iga ko'chirish.** Yon qirqim chizig'ida nuqta belgalab olinadi. Nuqtaning o'rni yon chiziqning belgacha bo'lgan uzunligining taxminan 1/3 qismida belgilanadi. Bu nuqtani ko'krak vitochka uchi bilan birlashtirib, yangi vitochka chizig'i o'tkaziladi. Shu belgilangan chiziq bo'yab qirqma hosil qilinadi. Ko'krak vitochkasini, uning tomonlarini bir-biriga to'g'ri keltirib berkitiladi va yelim surtiladi yoki to'g'nag'ich bilan to'g'nab qo'yiladi. Yangi vitochkaning uchi markazdan 3-5 sm yon tomon suriladi. Bu yangi vitochkaning uchi bo'ladi. Bu uchini vitochkaning qirqimlari bilan tekis qilib tutashtiriladi

**Ko'krak vitochkasini bel chizig'iga ko'chirish.** Asos chizmasidagi bel vitochkasi qirqib olinadi. Bel vitochkaning uchi ko'krak vitochkasining uchi bilan tutashtiriladi. Shu tutashtirilgan chiziq bo'yab kirqma hosil qilinadi. Ko'krak vitochkasini, uning tomonlarini bir-biriga to'g'rilab berkitiladi. Model bo'yicha bel vitochkasi tikiladigan bo'lsa, u holda, vitochkaning uchi 3-5 smga qisqartiriladi.

**Detallarni parallel va konussimon kengaytirish.** Detallarni parallel kengaytirish buyumning butun uzunasi bo'yab taxlamalar bo'lgan vaqtida amalga oshirish mumkin. Buning uchun asos chizmasiga taxlama o'tadigan chiziqlar belgilanadi. Bu chiziqlar qirqilib, taxlama sarfiga suriladi. Agar taxlama bir tomonlama bo'lsa, ikkita taxlama miqdoriga, ro'para taxlama bo'lsa, to'rtta taxlama miqdoriga suriladi. Detallarni konussimon kengaytirish kiyim razmerlarini o'zgartirishda ishlatalishi mumkin. Yoki burmalar bo'lsa, bunday kengaytirish usulidan foydalanish mumkin. Detallarni murakkab usulda ham kengaytirish mumkin. Bunda detallar uzunasiga hamda ko'ndalangiga kengaytirilishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Ko'krak vitochkasini ko'chirish qoidasi aytib bering.
2. Ko'krak vitochkasini yon qirqim chizig'iga ko'chirishi.

## 66. Mavzu: Qiz bolalar ko'ylagini loyihalash va o'lcham qiymatlarini xisoblash.

Reja:

1. Ko'ylakni loyihalash uchun kerakli o'lchovlar.
2. Qo'shimchalar.
3. Ko'ylagining to'r qismini chizish.
4. Ko'ylagining ort bo'lagini chizish.
5. Ko'ylagining old bo'lagini chizish.

Ko‘ylakni loyihalash uchun gavdadan olingan quyidagi o‘lchovlar kerak bo‘ladi.  $BnYaA = 14$  sm,  $KYaA = 30$  sm,  $YeU = 38$  sm,  $YelK = 8,5$  sm,  $YelA = 18$  sm,  $OrK = 12,5$  sm,  $Yeo‘Ch = 14,5$  sm,  $Olk = 11$  sm,  $YelQ = 20$  sm,  $KM = 6,5$  sm,  $OrbU = 28$  sm,  $KU = 45$  sm,  $OlbU = 27$  sm.


Qo‘shimchalar:

$QK = 6$  sm, bu qo‘shimcha quyidagicha taqsimlanadi:  $QOrK = 1,5$  sm  $QOlk = 1$  sm  $QEn.o‘mizi = 3,5$  cm  $QEo‘Ch = 1,5-2$  sm  $QEl = 5-6$  sm.

Ko‘ylakning to‘r qismi.

1. To‘g‘ri burchak chizilib, burchagiga  $Bn$  nuqta qo‘yiladi.
2.  $BnBl = OrbU = 28$  sm (bel chizigani aniqlash).
3.  $BnK = Yeo‘Ch-QEo‘Ch = 14,5+(1,5-2) = 16,5$  (ko‘krak chizig‘ini belgilash).
4.  $BnE = KU = 45$  sm (etak chizig‘ini belgilash).
5.  $Bn, K, Bl, E$  nuqtalardan o‘ng tomonga gorizontal chiziq o‘tkaziladi.

Qiz bolalar ko‘ylagini chizmasi



6.  $KK_1 - KYaA + QK = 30+6 = 36$  sm (ko‘ylak kengligi).
7.  $K_1$  nuqtadan pastga vertikal chiziq o‘tkaziladi va bel, etak chiziklari bilan kesishgan nuqtalar  $Bl_1, E_1$  bilan belgilanadi.
8.  $Bl_1Bn_1 = OlbU = 27$  sm (old bo‘lakda bo‘yin chizig‘ining o‘rnini).
9.  $Bn_1$  nuqtadan chap tomonga gorizontal chiziq chiziladi.
10.  $KK_2 = OrK+QOrK = 12,54-1,5 = 14$  sm (orqa kengligini belgalovchi chiziq)
11.  $K_2K_3 - YelA:3+QEnO‘mizi = 18:3+3,5 = 9$  sm (eng o‘mizi kengaigi).

12.  $K_2, K_3$  nuqtalardan bo'yin chizig'i bilan kesishguncha davom ettiriladi va kesishgan nuqtalarni mos ravishda  $a, a_1$  bilan belgilanadi.
13.  $K_3K_1 = OIK + QOIK = 11+1,5 = 12,5$  sm (old kengligini belgalovchi chiziq).
14.  $K_2K_4 = K_2K_3 : 2 = 9:2 = 4,5$  sm (yon chiziq).
15.  $K_4$  nuqtadan pastga vertikal chiziq o'tkaziladi va bel, etak chizikdari bilan kesishgan nuqtalarni mos ravishda  $B_{l_2}, E_2$  bilan belgilanadi.
- Ko'ylakning ort bo'lagi.
16.  $BnBn_2 = BnYaA : 3+1 = 14:3+1 = 5, 5$  sm (bo'yin o'mizi kengligi).
17.  $BnBn_3 = BnBn_2 : 3 = 5,5 : 3 - 2$  sm (bo'yin o'mizi chuqurligi).
18.  $Bn_2, Bn_3$  nuqta ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
19.  $BIE = YelQ = 28$  sm (elka chizig'ini aniqlash nuqtasi).
20.  $Ye$  va  $Bn_2$  nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.
21.  $BshE_1 = YelK + 1,5 = 8,5 + 1,5 = 10$  sm (elka kengligi).
22.  $Bn_2v = 3$  sm (vitochkaga bo'lган oraliq).
23.  $v$  nuqtadan o'rta chiziqqa 4-6 sm parallel chiziq o'tkaziladi va  $v_1$  nuqta bilan belgalanadi.  $Vv_1 = 4-6$  sm (vitochka uzunligi).
24.  $Vv_2 = 1,5$  sm (vitochka chuqurligi).
25.  $Vv_1 = V_1V_2 = 4-6$  sm (vitochka tomonlari).
26.  $V_2, Ye_1$  nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.
27.  $K_2b = K_2E : 2$  (yordamchi nuqtalar, chizmadan olinadi).
28.  $K_2O = 2,5$  sm ( $6K_2K_4$  to'g'ri burchak bissektrissasi).
29.  $Ye_1, b, O, K_4$  nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
30.  $Bl_2Bl_3 = 1$  sm (bel chizig'inining kengayishi).
31.  $K_4, Bl_3$  nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtirilib, etak qismigacha davom ettiriladi va  $E_3$  nuqta qo'yiladi.
32.  $K_4E_{31} = K_4E_2$  (yon tomon uzunligi, chizmadan olinadi).
33.  $E, E_2, E_{31}$  nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
- Ko'ylakning old bo'lagi
34.  $Bn_1Bn_1 = 1$  sm ( $Bn_1$  nuqtadan chap tomonda belgilanadi).
35.  $Bn_4, K_1$  nuqtalar chizgach yordamida tutashtiriladi va etagidan 1sm pastga tushguncha davom ettiriladi,  $E_4$  nuqta qo'yiladi.
36.  $Bn_4Bn_5 = Bn_4Bn_6 = BnBn_2 = 5,5$  sm (bo'yin o'mizi kengligi va chuqurligi).
37.  $Bn_5, Bn_6$  nuqtalar tutashtirilib, o'rtasidan chap tomonga perpendikulyar o'tkazilib, uvda 1,5 sm qo'yiladi.
38.  $Bn_5, 1,5$  sm,  $Bn_6$  nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
39.  $a_1E_2 = 2-4$  sm (elka chizig'ini aniklash nuqtasi).
40.  $Ye_2, Bn_5$  nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.
41.  $Bn_5E_3 = YelK = 8,5$  sm (elka kengligi).
42.  $K_3b_1 = K_3a_1 : 4$  (yordamchi nuqta).
43.  $b_1, Ye_3$  nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtirilib, o'rtasidan yuqoriga o'tkazilgan perpendikulyarda 0,5-1 sm qo'yiladi.
44.  $K_3O_1 = 2$  sm ( $b_1, K_3, K_4$  burchak bissektrissasi).
45.  $Ye_3, 0,5-1$  sm,  $b_1 O_1 K_4$  nuqtalar ravon egri bilan tutashtiriladi.
46.  $Bl_2Bl_4 = 1$  sm (chap tomonga bel chizig'i kengayadi).
47.  $K_4, Bl_4$  nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtirilib, etak chizig'igacha davom ettiriladi va kesishish nuqtasi  $E_5$  bilan belgilanadi.
48.  $K_4E_{51} = K_4E_2$  (yon tomon uzunligi chizmadan olinadi).
49.  $E_{51}, E_2, E_4$  nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Bolalarning gavdasiga xos xususiyatlari.


- Ko‘ylakchizmasini chizish uchun qanday o‘lchovlar olinadi ?
- Uzunlik va aylana o‘lchovlari qanday yoziladi?

### 67. Mavzu: Qiz bolalar ko‘ylagining yeng chizmasini hisoblash va chizish.

Reja:

- Kiz bolalar ko‘ylakni loyihalash uchun kerakli o‘lchovlar.
- Qiz bolalar ko‘ylagining yeng chizmasini hisoblash va chizish.

O‘lchovlari YeU = 38 sm, YelA - 18 sm, TU = 19,5 sm, QElA = 5-6 sm bo‘lgan yeng chizmasini ko‘ramiz.



- To‘g‘ri burchak chizilib, burchak A nuqta bilan belgalanadi.
- AE = YeU = 38 sm (eng uzunliga).
- Old va ort bo‘lak yelka nuqtalari, ya’ni Ye<sub>1</sub> va Ye<sub>3</sub> o‘zaro tutashtiriladi, ikkiga bo‘linib, X nuqta bilan belgalanadi, uni yon chizikdagi K<sub>4</sub> bilan tutashtiriladi.
- AO = K<sub>4</sub>X-(1,5-2) = 12,5-(1,5-2) = 10,5 sm (eng boshi balandliga).
- AT = TU = 19,5 sm (tirsakkacha bo‘lgan uzunlik).
- A, O, T, E nuqtalardan gorizontal chenziklar o‘tkaziladi.
- AA<sub>1</sub> = YelA+QElA = 18+(5-6) = 24 sm.
- A<sub>1</sub> nuqtadan pastga vertikal chiziq o‘tkaziladi va yeng boshi balandligi bilan kesishgan nuqta O<sub>1</sub>, tirsak chizig‘i bilan kesishgan nuqta T<sub>1</sub> etagi bilan kesishgan nuqtalar E<sub>1</sub> bilan belgilanadi.
- Aa = AA<sub>1</sub> = 24:2 = 12 sm (eng o‘rtasi).
- Aa<sub>1</sub> = A<sub>1</sub> = Aa:2 = 12:2 = 6 sm (yordamchi nuqtalar).
- a<sub>1</sub> a, a<sub>2</sub> nuqtalardan pastga etak qismi bilan kesishguncha vertikal chiziklar o‘tkaziladi va E<sub>2</sub>, E<sub>3</sub>, E<sub>4</sub> nuqtalar bilan belgilanadi.
- O, O<sub>1</sub> nuqtalar a nuqta bilan tutashtiriladi, O<sub>2</sub>, O<sub>3</sub> nuqtalar hosil bo‘ladi.
- O<sub>2</sub>O<sub>1</sub> chiziqning o‘rtasidan perpendikulyar pastga tushirilib, unda 1,5 sm qo‘yiladi.
- aO<sub>2</sub> chiziqning o‘rtasidan yuqoriga perpendikulyar o‘tkazilib, unda 1,5 sm qo‘yiladi.
- aO<sub>3</sub> chiziqning o‘rtasidan yuqoriga perpendikulyar o‘tkazilib, unda 1,5 sm qo‘yiladi.

16.  $aO_3$  chiziq uch bo‘lakka bo‘linib, pastki birinchi qismida pastga perpendikulyar o‘tkazilib, unda 0,5 sm qo‘yiladi.
17.  $O_3$  nuqtadan yuqoriga 1 sm qiymat qo‘yiladi.
18. O, 0,5 sm, 11, 1 sm, 1,5 sm, a, 1,5 sm,  $O_2$ , 1,5 sm, O nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi, ya’ni yeng boshi egri chiziga qosil bo‘ladi.
19.  $E_4E_5 = 1$  sm (old etak qismining ko‘tarilishi).
20.  $E_2E_6 = 1$  sm (orqa etak qismining tushishi).
21. E,  $E_6$ ,  $E_3$ ,  $E_5$ ,  $E_1$  nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.


Nazorat uchun savollar:

1. Bolalarning gavdasiga xos xususiyatlari.
2. Qiz bolalar ko‘ylagi yeng uchun qanday o‘lchovlar kerak bo‘ladi?

### **68. Mavzu; Qiz bolalar ko‘ylagi model namunalari.**



**Qiz bolalar ko‘ylagi andazalarini tayerlash.**



#### Qiz bolalar tungi ko'ylagi bo'laklari spesifikatsiyasi.

Bo'lak nomi	Belgisi	Soni	
		Andazada	Bichiqda
Old bo'lak	01	1	2
Ort bo'lak	02	1	1
Englar	03	1	2
Yubka	04	1	2
Yoqa	05	1	2

#### Qiz bolalar ko'ylak bo'laklariga qo'yiladigan chok haqi miqdori.

Ko'ylak bo'laklari	Chok haqqi qirqlar	qo'yiladigan chok miqdori sm
1. Old va ort bo'lak yon va o'rta qismlari	- yoqa o'mizi qirqimi; - yeng o'miz qirqimi; - yelka qirqimi; - yon qirqimi; - etak qirqimi.	0,7 1,0 1,0 1,0 1,0
2. Yubka	- yon qirqimi; - etak qirqimi.	1,0 1,0
3. Yoqalar	- yoqa o'miziga ishlash qirqimi; - yuqori qirqlari;	0,7 0,7
4. Yenglar	- o'miz qirqimi; - yon qirqimi;	1,0 1,0 1,5


**Ko‘ylagi uchun model tanlash, modellashtirish va andazasini tayyorlash usullarini o‘rgatish.**

Nº	Bajariladigan ishlar mazmuni	Moslamalar	Eskizlar, (chizmalar, rasmlar)	Bajarish tartibi
1	Moda jurnallaridan foydalanib, qiz bolalar ko‘ylagi moda yo‘nalishini tahlil qilish va tungi ko‘ylak uchun model tanlash.	Moda jurnallari, multimedya material lari.		Moda jurnallari va multimedya materiallari dan foydalanib qiz bolalar ko‘ylagi moda yo‘nalishini tahlil qilish va kuylak uchun model tanlash.
2	Tanlangan qiz bolalar ko‘ylagi model eskiz rasmini chizish.	Qog‘oz, qalam, o‘chirg‘ich.		Tanlangan qiz bolalar ko‘ylagi model eskiz rasmini texnik shartlarga rioya qilgan holda chizish.

### **Qiz bolalar ko‘ylagi andazasini tayyorlash.**


1	Qiz bolalar ko‘ylagi ort va old bo‘laklar, yoqalar, yenglar va yubka andazasini tayyorlash.	Ayollar asos konstruksi-yasini modellashti rilgan chizmasi, kalka qog‘oz, qalam, oddiy va shakldor chizg‘ichlar, qaychi.		Qiz bolalar ko‘ylagi ort va old bo‘laklar qirqimlaridan: -yelka qirqimi 1,0 sm; yoqa o‘miz qirqimi 0,7 sm; yeng o‘miz qirqimi 0,7 sm; yoqa qirkimlar 1,0 sm; yon qirqim 1,0 sm; etak qismini ulash qirqimi 1,0 sm chok haqi qoldirib chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar bo‘ylab andaza kesiladi, andazada tanda ipi yo‘nalishi va bo‘lak raqami qo‘yiladi.
---	---	--	--	--

Tejamli joylashma tayyorlash uchun ma'lum qoidalarga rioya qilish kerak. Ayniqsa, bunga andazalarning shakli katta ta'sir ko'rsatadi. Murakkab shaklli andazalarini joylashtirganda chiqindilar soni ko'payadi. Kiyimning mayda detallari ko'p bo'lsa, ularni bo'sh joylarga joylashtirib, chiqindi sonini kamaytirish mumkin. Kiyimdagagi simmetrik joylashgan detallarning gullari bir xil joyga to'g'ri kelishi kerak. Bobrik, baxmal, yarim baxmal, chiyduxoba kabi gazlamardan tikilgan kiyimlar barcha detallarining tuki yuqoriga yo'nalgan bo'lishi kerak, aks holda kiyimning ko'p ishqalanadigan joyi yaltirab ketadi. Tuki uzun bo'lsa pastga qarab turadigan qilib bichish kerak. Gulsiz sidirg'a gazlamarni bichishga mo'ljallangan joylashmada andazalar qarama-qarshi joylashtirilsa ham bo'ladi. Agar bichilgan gazlama yo'l-yo'l yoki katak bo'lsa, tikilayotganga yo'llari yoki kataklarini to'g'ri keltirish uchun detallar mo'ljaldagidan kattaroq qilib bo'rланади.




#### Qiz bolalar ko'ylagini bichish.

Nº	Bajariladigan ishlar mazmuni	Moslamalar	Eskizlar, (chizmalar, rasmlar)	Bajarish tartibi
1	Gazlamani namlab dazmollash.	Gazlama 150*65 sm Dazmol		Gazlama namlanib, tanda ipi yo'nalishida dazmollanadi.
2	Gazlama nuqsonlarini aniqlash, bo'yi va yenini o'lchash Gazlamani bichuv stoliga joylashtirish.	Bo'r, sm lenta Bichuv stoli		Gazlama o'ng tomonidan nuqsonlari teshik, ip va bo'yoqlar bir tekisligi va boshqalar) tekshiriladi.
3	Gazlamaga ko'ylik yirik bo'lak andazalarini joylashtirish.	Bichuv stoli, gazlama, bo'laklar andazasi, to'g'nog'ich		Ko'ylik ort, old yon, andazalari gazlama ustiga joylashtiriladi. Bunda bo'laklar tanda ipi yo'nalishi gazlama tanda ipi yo'nalishi bilan ustmaust tushishi kerak.

				
4	Gazlamaga mayda ko‘ylak bo‘laklari andazalarini joylashtirish.	Bichuv stoli, gazlama, bo‘laklar andazasi, to‘g‘nog‘ich.		Ko‘ylak mayda bo‘laklari andazasi (ort va old bo‘lak adip, ) gazlama ustiga joylashtiriladi. Bunda bo‘laklar gazlama tanda ipi yo‘nalishi bilan ustma-ust tushishi kerak. Mayda bo‘laklar andazalari yirik bo‘laklar andazalari orasiga juda oz oz qiyqim chiqadigan qilib joylashtiriladi.
5	Qiz bolalar tungi ko‘ylak bo‘laklarini qirqish.	Qaychi.		Tungi ko‘ylak bo‘laklarini o‘tkir qaychi yordamida qirqib olish.

### Qiz bolalar ko‘ylagi yoqasini tikish.

Nº	Bajariladigan ishlar mazmuni	Moslamalar	Eskizlar, (chizmalar, rasmlar)	Bajarish tartibi
1	Ostki yoqaga yelimli qotirmani yopishtirish.	Dazmol, dazmolmato.		Ostki yoqanining teskari tomoniga qotirmani yelimli tomonini, chetki qirqimlariga 0.5-0.7 sm yetkazmay namlangan mato yordamida dazmollab yopishtiriladi.
2	Yoqani tikish	Universal mashina, qaychi.		Ostki yoqani ustki yoqani o‘ngini o‘ngiga qo‘yib uchala tomoniga 0.7 sm kenglikda ag‘darma chok bilan tikiladi.



3	Yoqani uchlarini kesish.	Qaychi.		Tikilgan yoqani burchaklaridan tikilgan chokka 0.1-0.2 sm yetkazmay kesib chiqiladi.
4	Yoqani o'ngiga ag'darish.	Qo'lda.		Tikilgan yoqani o'ngiga ag'darib, burchaklarini dukcha yordamida chiqariladi.
5	Ziy chiqarib dazmollash.	Dazmol.		Ustki yoqa tomoniga 0.1-0.2 sm ziy chiqarib dazmol qilinadi.

#### 69. Mavzu; Yenglar, yubka, ort va old bo'laklarini biriktirib tikish.


1	Englar, yubka, ort va old bo'lak yon qirqimlarini tikish.	Universal mashina , ip, qaychi.		Yenglar, yubka, ort va old yon qirqimlarini o'ngi ichkariga qaratib, qirqimlari tenglanib, 1,0 sm chok kengligida biriktirma chokda tikiladi.
2	Yon qirqimlarini yo'rmalash.	Maxsus mashina, ip, qaychi.		Yon qirqimlari maxsus mashinada yo'rmananadi.
3	Yon choklarini dazmollash.	Dazmol, dazmolmato.		Yon choklari bir tomoniga yotqizib (ort bo'lakka) dazmellanadi.

#### Plankaga ishlov berish.


1	Adipni dazmollash.	Dazmol, dazmolmato		Yaxlit bichilgan adipni buklab nam mato yordamida dazmellanadi.
---	--------------------	--------------------	--	---



2	Planka hosil qilib bezak choklarni tikish.	Maxsus mashina, ip, qaychi.	
3	Planka hosil qilib bezak choklarni tikish.	Maxsus mashina, ip, qaychi.	 <p>Bort ziylaridan 0.5 sm kenglikda bezak chok beriladi. So'ngra planka hosil qilib ko'klangan ziydan mashinada 0.5 sm bezak chok tikiladi. Ko'klangan iplar olib tashlanadi.</p>

#### Yoqani yoqa o'miziga o'tkazish.




1	Yoqani yoqa o'miziga o'tkazish.	Universal mashina , ip, qaychi.		Ostki yoqani yoqa o'mizi kertimlariga to'g'rilib to'g'nog'ich yordamida to'g'nalib, so'ngra ko'klandi va mashinada 0.7 sm chok kengligida tikiladi. Ko'klangan iplar olib tashlanadi. So'ngra ustki yoqa pastki cheti 0.7 sm so'kiladi va ostki yoqa o'tkazilgan chokni yopadigan qilib, bukilgan ziydan 0.1 sm oraliqda bostirib tikiladi.
---	---------------------------------	---------------------------------	---	---



#### Yengni yeng o'miziga o'tkazib tikish.

1	Engni yeng o'miziga o'tkazib tikish.	Universal mashina , ip, qaychi..		Engni asosiy bo'lakning o'mizi ichiga o'ngini o'ngiga qo'yib yeng va yeng o'miz kertimlari to'g'ri keltiriladi va yeng tomondan sirma qaviqlar bilan ko'klandi, ziydan 0.7-0.8 sm oraliqda yengdagi eng ko'p salqi qiyama qismida bo'lib, qolgan joyda deyarli salqi hosil qilmay ko'klab o'tkaziladi. So'ngra mashinada salqilarni bir
---	--------------------------------------	----------------------------------	--	---




				tekisda taxlama hosil qilmay tikib chiqiladi.
2	Eng o'miz choclarini dazmollahash.	Dazmol, dazmolmato.		Yeng mashinada tikib bo'lingandan so'ng ko'klangan qaviq iplar olib tashlanadi. So'ng salqilar kirishdirilib dazmollanadi. Dazmol tagi yeng qirqimidan 2.5-3.0 sm masofadan o'tmasligi lozim.
3	Eng o'miz qirqimlarini yo'rmalash.	Maxsus mashina, qaychi. ip,		Eng o'tkazilgan choc qirqimlari maxsus mashinada yo'rmanadi.

### Qiz bolalar ko'ylagini yig'ish.

1	Yubkaning bel qirqimiga yordamchi choc tikish (burma hosil qilish uchun)	Universal mashina , ip, qaychi.		Yubkaning bel qirqimiga yordamchi ikkita parallel bahyaqator yuritiladi. Birinchi choc kengligi 0,5-0,7 sm, ikkinchi choc kengligi 0,8-1,4 sm. Bunda mashina ipning tarangligi bo'shatilgan bo'lishi kerak.
2	Ko'yak yuqori qismiga yubkani birlashtirib tikish.	Universal mashina , ip, qaychi.		Ko'yakning yuqori qismi yon chocini burmalari tekislab olingan yubkaning yon chociga to'g'rilab to'g'nog'ich yordamida birlashtiriladi va mashinada 1-1,5 sm da birlashtirib tikiladi.
3	Bel choclarini yo'rmalash.	Maxsus mashina, qaychi. ip,		Chok qirqimlari birga maxsus mashinada yo'rmanadi.

4	Chokini yuqoriga qaratib dazmollahash.	Dazmol, dazmolmato		Choklar yuqoriga qaratib yotqizib dazmollanadi.
5	Etak va yeng uchini bukib tikish.	Universal mashina, ip, qaychi..		Etak va yeng uchini yana bir marotaba bukib, bukma ziydan 0,1-0,2 sm kenglikda bostirib tikiladi.

### Qiz bolalar ko‘ylagiga oxirgi ishlov berish va NIIB

1	Izma o‘rnini belgilash va puxtalash	Maxsus mashina, ip, qaychi.		Ko‘ylak modeliga muvofiq izmalar o‘rni andaza yordamida bo‘rlanadi va maxsus mashinada puxtalanadi.
2	Tugma o‘rnini belgilash va puxtalash	Maxsus mashina, tugma, ip, qaychi.		Tugma qadash uchun ko‘ylakni stol ustiga yozib qo‘yiladi va taqilma joyidan izmalarga moslab tugma taqish joylari belgilanadi va tugma maxsus mashinalarda yoki qo‘lda tikish shartlariga muvofiq puxtalanadi.
3	Qiz ko‘ylagini bolalarni so‘nggi pardozlash	Qaychi		Ko‘ylakni o‘ngi va teskarisidan qolgan iplari qirqib tashlanadi va NII beriladi.

Nazorat uchun savollar:


1. Qiz bolalar ko‘ylagini bichish uchun gazlamani tayyorlash jarayoni qanday?
2. Gazlamaga andazaga qanday joylashtiriladi?
3. Qiz bolalar ko‘ylagini NII berish usullarini aytib bering.

### 70. Mavzu; Qiz bolalar pidjagi asos chizmasini chizish.

Qomat va yelka jaketining o‘zgarib turishi «orqaning belgacha uzunligi» va «oldining belgacha uzunligi», «orqaning kengligi» va «oldining kengligi» kabi yetakchi o‘lchamlarning aniqlik darajasida ta’sir etadi.

Undan tashqari odamning ba’zi o‘lchamlari sutka mobaynida o‘zgarib turishi ham hisobga olinishi kerak.

Konstruktsiya chizmasining sifat va qomatda kiyimning to'g'ri o'rnashuv o'lchamlarining aniq va to'g'ri olinishiga bog'liq.




Kiyimning qomatga mos kelishi kiyimning yuqori qism balansi qanday aniqlanganligiga bog'liq. Qomatning turli joylarida kiyim bir xil yopishib turmaydi, lekin har doim kiyim bilan odam tanasining orasida uning bemalol nafas olib harakat qilish uchun zarur bo'lgan havo bo'shlari bor. Kiyimning ichki razmerlari orasidagi farq to'kislik qo'shimchalari deyiladi. Kiyim konstruktsiyalash jarayonida hisoblashlarni osonlashtirish maqsadida kiyim erkinligiga umumiyligini qo'shimcha olinadi. Uning tarkibiga ham texnik, ham dekorativ konstruktiv qo'shimchalar kiradi, lekin hech qachon umumiyligini qo'shimcha minimal zarur qo'shimchadan kam bo'la olmaydi. To'kislik qo'shimchalari kiyimning umumiyligini kengligiga yoki konstruktsiyaning ayrim uchastkalariga mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Agar konstruktor birgalikda yangi namunalarning ijodida bo'lsa, texnolog yangi namunalarni bevosita ishlab chiqarishga tayyorlash bilan shug'ullanadi. Texnolog, texnik hujjatlarni tayyorlar ekan, kompozitsiya asoslarini tushunishi va gazlamada yaratilgan yangi namunani, uning o'ziga xos jihatini saqlagan va konstruktiv-texnologik xususiyatlarini ko'rsatgan holda to'g'ri bajarish kerak.

### **QIZ BOLALAR JAKETIGA TAVSIF**

Qiz bolalar jaketi sun'iy sidirg'a matodan tikilgan bo'lib sal yopishib turadigan formalni. Tik yoqali. Old bo'lakka bir qator tugma qadaladi: yengga o'tqazma, uzun, uchi yopiq qirqimli, shlitsali manjetga; jaket etakli qism ikki yon qirqimidan bo'ksa chiziq qirqimigacha ochiq qirqimga, chap ko'krak qismida listochkali qirqma cho'ntakka. Jaket yoqa manjeti va bo'ksa chizig'idan kesilgan etak qismi listochkasining asosiy gazlama rangi bilan uyg'unlashgan rangdagi gazlama bilan tikish ham tavsiya etiladi.

### **Qiz bolalar jaketining chizmasini modellash**



Texnologiya asosida faoliyat turlari	Ta etil mos usk	Asosida artibi
I	II	
1. Ayollar ko'ylagi old va ort konstruktsiya chizmasi	Qalam, chizg'ich, o'chirg'ich, sm lenta	<p>Ayollar ko'ylagining old va ort bo'lak konstruktsiya chizmasini chizish T.30 moduldan olinadi.</p> <p>Bunda jaket uchun qo'shim miqdorlari quyidagicha beriladi.</p> <p>Yopishib turadigan siluetli jaket uchun:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- qo'shim ko'krak 4-5 sm,</li> <li>- qo'shim bel 3-4 sm,</li> <li>- qo'shim bo'ksa 1.5-3 sm olinadi.</li> </ul>

2. Yeng konstruktsiya chizmasi	Qalam, qaychi o'chirg'ich		Yeng konstruktsiya chizmasini chizish T.30 moduldan olinadi

## II. Old bo'lakni modellash

2.1.Old bo'lak konstruktsiya chizmasiga model chiziqlar o'tkazish	Qalam, qaychi o'chirg'ich		<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Jaket uzunligi 65 sm olinadi.</li> <li>2. Old bo'lak o'rta chizig'idan 2.5-3.0 sm taqilma kengligi chiziladi.</li> <li>3. Yon qirqimda ko'krak vitochka chizig'i belgilanadi.</li> <li>4. Belgilangan chiziqni ko'krak uchki nuqtasi bilan birlashtiriladi.</li> <li>5. Yelka vitochkasini yon qirqimidagi chiziqqa ko'chiriladi.</li> <li>6. Jaket taqilmasi uchun eng yuqori 1-izma bo'yin aylanasi chizig'idan 1 sm pastda belgilanadi. Izmalar orasidagi oraliq 6 sm olinadi. 6 ta izma o'rni belgilanadi.</li> <li>7. Bort chizig'idan 5-6 sm yelka chizig'idan 4-5 sm belgilanib adip kengligi chiziladi.</li> <li>8. Etak qirqimidan 15 sm yuqorida model chiziq o'tkaziladi.</li> </ol>
---	---------------------------	--	---

## III. Ort bo'lakni modellash

3.1. Ort bo'lak konstruktsiya chizmasiga model chiziqlar o'tkazish	Qalam, qaychi o'chirg'ich		<ol style="list-style-type: none"> <li>Orqa yelka vitochkasi yopilib yeng o'miziga ko'chiriladi.</li> <li>Bel vitochkasi chizma bo'yicha qoladi.</li> <li>Etak qirqimidan 15 sm yuqorida model chiziq o'tkaziladi.</li> </ol>
--	---------------------------	--	---

#### IV. Yengni modellash

4.1. Biriktirma yengni modellash	Qalam, qaychi o'chirg'ich		<ol style="list-style-type: none"> <li>Yeng uzunligi modelga qarab belgilanadi.</li> <li>Etak chizig'idan 15 sm yuqoriga manjet kengligi belgilanadi.</li> <li>Yeng manjeti 15 sm kenglikda olinadi.</li> </ol>
----------------------------------	---------------------------	--	---

#### V. Yoqani chizish

5.1. Jaket yoqanining chizmasini chizish			<p>1-nuqtadan o'nga orqa bo'yin aylanasiga old bo'yin aylanasini qo'shamiz va 2-nuqtani belgilaymiz.</p> <p>2-nuqtadan tepaga 1.5 sm qo'yib 3-nuqtani belgilaymiz.</p>
--	--	--	--

			1 va 3-nuqtalardan tepaga modelga qarab uzunligini 4 va 4 <sup>1</sup> belgilaymiz 2.5-3 sm belgilaymiz.  4-nuqtadan 1 sm li bissektrisa chiqarib yoqa uchini oval chiziq bilan chizib olamiz. 1-nuqtadan orqa bo'yin aylanasini kengligini qo'yib kertim qo'yamiz.
--	--	--	--

### 71. Mavzu; Jaket andazalarini tayyorlash.

Kiyim bo'laklarining chizmasi chok qo'shilmalarisiz chiziladi. Shuning uchun bo'laklar chizmasi konturlariga chok haqqi qo'yiladi. Kiyim bo'laklari andozasining kontur chiziqlari hosil qilinadi.

Chok haqqi berishda, kiyim tikishda qo'llaniladigan tikuv jihozlari va moslama-uskunalarning texnologik tavsifini e'tiborga olish talab etiladi. Beriladigan chok haqqi miqdori chok kengligiga, qirqimiga, mag'iz, hosil qilishga gazlama ipining titilishiga, ishlov berish jarayonida gazlamaning kirishishiga qarab aniqlanadi. Shuningdek, chok haqqi chok konstruktsiyasiga, chokning joylashishiga va undagi qirqimning yo'naliishiga, gazlamaning titilishi va iplarining surilishiga ham bog'liq.

Chok haqqi asosiy standartlar asosida olinadi.

Mag'iz uchun chok haqqi mag'iz chiqarishning talab etiladigan bo'laklari uchun beriladi. Masalan, latskan, bort, yoqa qirqimlarida. Bu chok haqqi 0.2-0.3 sm ga teng.

Gazlama qalinligi uchun qo'shim miqdori qalin gazlamadan tayyorlanadigan kiyimlar uchun beriladi. Uning miqdori 0.1-0.2 sm ga teng bo'ladi.

1-jadval

### Qiz bolalar jaketi bo'laklariga chok haqqi miqdori

#### Bo'laklar spetsifikatsiyasi



Bo'lak nomi	Belgisi	Soni		Simmetriya belgisi
		Andozada	Bichiqda	
Old bo'lak	01	1	2	+
Old bo'lak etak qismi	02	1	2	+

Ort bo'lak	03	1	1	-
Ort bo'lak etak qismi	04	1	1	-
Yeng	05	1	2	+
Manjetning birinchi bo'lagi	06	1	2	+
Manjetning ikkinchi bo'lagi	07	1	2	+
Adip	08	1	2	+
Ort bo'lak mag'izi	09	1	1	-
Ustki yoqa	10	1	1	-
Ostki yoqa	11	1	2	+



**Izoh:** «+»-simmetrik bo'lak,




«-» simmetrik bo'lмаган bo'lak


Texnologiya asosida faoliyat turlari	Tavsiya etiladigan moslama va uskunalar	Chizma	Standart asosida operatsiyani bajarish tartibi
I	II	III	IV
1. Old bo'lak	Kal'ka qog'oz, qalam, chizg'ich, shakldor chizg'ich, o'chirg'ich		<p>Bo'lak qirqimlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- elka qirqimi 1.0 sm;</li> <li>- yoqa o'miz qirqimi 0.7 sm;</li> <li>- bort qirqimi 0.7 sm;</li> <li>- eng o'miz qirqimi 1.0 sm;</li> <li>- yon qirqim 1.0 sm;</li> <li>- etak qismini ulash qirqimi 1.0 sm chok haqqi qoldirib chizib chiqiladi.</li> </ul> <p>Chizilgan chiziqlar bo'ylab andoza kesiladi, andozada 2-jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va 3-jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi. Kiyim bo'laklarining qirqimlarini</p>

			to'g'ri va aniq ulash uchun ko'krak va bel chiziqlarida, yeng o'mizida, yoqani ulash joyidan kertiklar qo'yiladi.
2. Old bo'lak etak qismi	Kal'ka qog'oz, qalam, chizg'ich, shakldor chizg'ich, o'chirg'ich		<p>Bo'lak qirqimlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- old bo'lakka ulash qirqimi 1.0 sm;</li> <li>- yon qirqimi 1.0 sm;</li> <li>- bort qirqimi 0.7 sm;</li> <li>- etak qirqimi 2.0 sm chok haqqi qoldirib chizib chiqiladi.</li> </ul> <p>Chizilgan chiziqlar bo'ylab andoza kesiladi, andozada 2-jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va 3-jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi. Kiyim bo'laklarining qirqimlarini to'g'ri va aniq ulash uchun ko'krak va bel chiziqlarida, yeng o'mizida, yoqani ulash joyidan kertiklar qo'yiladi.</p>
3. Ort bo'lak	Kal'ka qog'oz, qalam, chizg'ich, shakldor chizg'ich, o'chirg'ich		<p>Bo'lak qirqimlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- yoqa o'miz qirqimi 0.7 sm;</li> <li>- elka qirqimi 1.0 sm;</li> <li>- eng o'miz qirqimi 1.0 sm;</li> <li>- yon qirqim 1.0 sm;</li> <li>- etak qirqim 2.0 sm chok haqqi qoldirib chizib chiqiladi.</li> </ul> <p>Chizilgan chiziqlar bo'ylab andoza kesiladi, andozada 2-jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va 3-jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi. Kiyim</p>

			<p>bo'laklarining qirqimlarini to'g'ri va aniq ulash uchun ko'krak va bel chiziqlarida, yeng o'mizida, kertiklar qo'yiladi.</p>
4. Ort bo'lak etak qismi	Kal'ka qog'oz, qalam, chizg'ich, shakldor chizg'ich, o'chirg'ich		<p>Bo'lak qirqimlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Ort bo'lakka ulash qirqimi 1.0 sm;</li> <li>- Yon qirqim 1.0 sm;</li> <li>- Etak qirqimi 1.0 sm chok haqqi qoldirib chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar bo'ylab andoza kesiladi, andozada 2-jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va 3-jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi. Kiyim bo'laklarining qirqimlarini to'g'ri va aniq ulash uchun ko'krak va bel chiziqlarida, yeng o'mizida, kertiklar qo'yiladi.</li> </ul>
5. Yeng	Kal'ka qog'oz, qalam, chizg'ich, shakldor chizg'ich, o'chirg'ich		<p>Bo'lak qirqimlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'miz qirqimi 1.0 sm;</li> <li>- yon qirqimi 1.0 sm;</li> <li>- manjet ulash qirqimi 1.0 sm chok haqqi qoldirib chizib chiqiladi. Chizilgan chiziqlar bo'ylab andoza kesiladi, andozada 2-jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va 3-jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi. Kiyim bo'laklarining qirqimlarini to'g'ri va aniq ulash uchun ko'krak va bel chiziqlarida, yeng</li> </ul>

			o'mizida, kertiklar qo'yiladi.
6. Manjet-ning birinchi bo'lagi.	Kal'ka qog'oz, qalam, chizg'ich, shakldor chizg'ich, o'chirg'ich		<p>Bo'lak qirqimlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- engga ulash qirqimi 1.0 sm;</li> <li>- yon qirqim 1.0 sm;</li> <li>- manjet ikkinchi bo'lagiga ulash qirqimi 1.0 sm;</li> <li>- etak qirqimi 2.0 sm chok haqqi qoldirib chizib chiqiladi.</li> </ul> <p>Chizilgan chiziqlar bo'ylab andoza kesiladi, andozada 2-jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va 3-jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi. Kiyim bo'laklarining qirqimlarini to'g'ri va aniq ulash uchun ko'krak va bel chiziqlarida, yeng o'mizida, kertiklar qo'yiladi.</p>
7. Manjet-ning ikkinchi bo'lagi.	Kal'ka qog'oz, qalam, chizg'ich, shakldor chizg'ich, o'chirg'ich		<p>Bo'lak qirqimlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- engga ulash qirqimi 1.0 sm;</li> <li>- yon qirqim 1.0 sm;</li> <li>- manjet birinchi bo'lagiga ulash qirqimi 1.0 sm;</li> <li>- etak qirqimi 2.0 sm chok haqqi qoldirib chizib chiqiladi.</li> </ul> <p>Chizilgan chiziqlar bo'ylab andoza kesiladi, andozada 2-jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va 3-jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi. Kiyim bo'laklarining qirqimlarini to'g'ri va aniq ulash uchun ko'krak va bel chiziqlarida, yeng o'mizida, kertiklar qo'yiladi.</p>

8. Adip	Kal'ka qog'oz, qalam, chizg'ich, shakldor chizg'ich, o'chirg'ich		<p>Bo'lak qirqimlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- elka qirqimi 1.0 sm;</li> <li>- yoqa o'miz qirqimi 0.7 sm;</li> <li>- bort qirqimi 0.7 sm;</li> <li>- etak qirqimi 2.0 sm chok haqqi qoldirib chizib chiqiladi.</li> </ul> <p>Chizilgan chiziqlar bo'ylab andoza kesiladi, andozada 2-jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va 3-jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi. Kiyim bo'laklarining qirqimlarini to'g'ri va aniq ulash uchun ko'krak va bel chiziqlarida, yeng o'mizida, kertiklar qo'yiladi.</p>
9. Ort bo'lak mag'izi	Kal'ka qog'oz, qalam, chizg'ich, shakldor chizg'ich, o'chirg'ich		<p>Bo'lak qirqimlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- yoqa o'miz qirqimi 0.7 sm;</li> <li>- elka qirqimidan 1.0 sm chok haqqi qoldirib chizib chiqiladi.</li> </ul> <p>Chizilgan chiziqlar bo'ylab andoza kesiladi, andozada 2-jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va 3-jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi. Kiyim bo'laklarining qirqimlarini to'g'ri va aniq ulash uchun ko'krak va bel chiziqlarida, yeng o'mizida, kertiklar qo'yiladi.</p>
10. Ustki yoqa.	Kal'ka qog'oz, qalam, chizg'ich, shakldor chizg'ich, o'chirg'ich		<p>Bo'lak qirqimlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- yoqa o'miziga ulash qirqimi 0.7 sm;</li> <li>- Yuqori qirqim 0.7 sm chok haqqi qoldirib chizib chiqiladi.</li> </ul> <p>Chizilgan chiziqlar bo'ylab andoza kesiladi, andozada 2-jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va 3-jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi. Kiyim bo'laklarining qirqimlarini to'g'ri va aniq ulash uchun ko'krak va bel chiziqlarida, yeng</p>

			o'mizida, kertiklar qo'yiladi.
11. Ostki yoqa	Kal'ka qog'oz, qalam, chizg'ich, shakldor chizg'ich, o'chirg'ich		<p>Bo'lak qirqimlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- yoqa o'miziga ulash qirqimi 0.7 sm;</li> <li>- o'rta qirqim 1.0 sm;</li> <li>- yuqori qirqim 0.7 sm chok haqqi qoldirib chizib chiqiladi.</li> </ul> <p>Chizilgan chiziqlar bo'ylab andoza kesiladi, andozada 2-jadvalga asosan tanda ipi yo'nalishi va 3-jadvalga asosan bo'lak raqami qo'yiladi. Kiyim bo'laklarining qirqimlarini to'g'ri va aniq ulash uchun ko'krak va bel chiziqlarida, yeng o'mizida, kertiklar qo'yiladi.</p>

## 72. Mavzu; Pidjak andazalarini gazlamaga joylash va bichish.





Andozalarni gazlama ustiga qo'yish hamda kiyimning bichish texnik talablariga muvofiq bajarilishi lozim. Tayyor kiyimning sifati bichish vaqtida andozalarning gazlama ustiga texnik talablarga muvofiq, to'g'ri qo'yilishiga ko'p jihatdan bog'liq.



Kiyim bo'laklarini bichganda hamma bo'laklarning chetlarida andozadan ozgina bo'lsa da chetga chiqilishini nazarda tutish kerak. Lekin bu chetga chiqishlar quyida ko'rsatilgan darajadan ziyod bo'lmasligi lozim:

- asosiy materialdan bichilgan bo'laklarning chetlari (elka chizig'i, yeng o'mizi, yeng boshi va hokazo) da  $\pm 1,0-0,15$  sm;
- asosiy material va astarbop gazlamadan bichilgan bo'laklar chetida (bortlar, zihida, old yon chiziqlarda, yengning tirsak to'g'risidagi va oldingi zihlarida, yoqalar va qoplama cho'ntaklarning chetlarida va hokazo)  $\pm 0,15-2$  sm;
- turli oraliq bo'laklar, kiyimning old va orqa etaklari (avrasi va astari) da va hokazolarda  $\pm 0,25-0,3$  sm;
- kertiklarning o'lchamlarida va bir-biriga nisbatan joylashuvida  $\pm 0,2$  sm. Andozani eng ko'pi bilan 0,2 sm chetga chiqishga yo'l qo'yiladigan bo'laklarni bichish vaqtida ularning andozalari oralarida kamida 0,1-0,15 sm qoldirib joylash lozim.

Materialning qiymati tayyor kiyim tannarxining 80-90% ni tashkil etadi, shunga ko'ra kiyim bichishda materialni tejab-tergashning katta ahamiyati bor.

Qirqimlarning ko'p-oz chiqishiga andozalarning joylanish tartibi ko'proq ta'sir etadi. Kiyimning asosiy bo'laklari birin-ketin bo'yiga joylashtirilsa yoki qiya zihlari bo'yicha juftlashtirilsa, andozalar oralig'idan juda oz qiyqim chiqadi.

<b>Texnologiya asosida faoliyat turlari</b>	<b>Tavsiya etiladigan moslama va uskunalar</b>	<b>Chizma</b>	<b>Standart asosida operatsiyani bajarish tartibi</b>
<b>I</b>	<b>II</b>	<b>III</b>	<b>IV</b>
1. Gazlamani namlab dazmollash (dekatirovkalash)	Dazmol		Gazlama namlanib, o'rni ipi yo'nalihsida dazmollanadi.
2. Gazlama nuqsonlarini aniqlash va bo'yisi va enini o'lchash.	Bo'r, sm lenta		Gazlamaning o'ng tomonidan nuqsonlari ya'ni, teshik, ip va bo'yoqlar bir tekisligi va boshqalar) tekshiriladi. Aniqlangan nuqsonlar bo'r bilan belgilab qo'yiladi.
3. Gazlamani bichuv stoli joylashtirish	Gazlama, bichuv stoli		Gazlama bichuv stoli ustiga ikkiga buklab to'shaladi.
4. Gazlamaga jaketning old va ort bo'lak andozalirini joylashtirish.	Bichuv stoli, gazlama, bo'laklar andozasi, to'g'nog'ich.		Jaket ort bo'lagi o'rtaligida qismi gazlamaning buklov chizig'iga va uning yoniga old bo'lagi joylashtiriladi. Bunda tanda ipi yo'nalihsida gazlama tanda ipi yo'nalihsida bilan ustma-ust tushishi kerak. Tanda ipi yo'nalihsidan bo'lakning og'ish kattaligi 62 modulning 2-jadvalida keltirilgan. Bo'laklar andozalarining to'g'ri chiziqli chetlari joylash ramkasining chetiga taqib qo'yiladi, egri chiziqli chetlari esa maydonchaning o'rtasiga to'g'ri keltiriladi. Shuningdek, bo'laklarning simmetrikligiga ahamiyat berish kerak

5. Gazlamaga jaketning adip va yeng andozalarini joylashtirish	Bichuv stoli, gazlama, bo'laklar andozasi, to'g'nog'ich		<p>Jaket old bo'lak adip va yeng andozalarini gazlama ustiga joylashtiriladi. Bunda bo'laklar tanda ipi yo'nalihi gazlama tanda ipi yo'nalihi bilan ustma-ust tushishi kerak. Tanda ipi yo'nalihidan bo'lakning og'ish kattaligi T.58-moduldagi 2-jadvalda keltirilgan.</p> <p>Bo'laklar andozalarining to'g'ri chiziqli chetlari joylash ramkasining chetiga taqib qo'yiladi, egri chiziqli chetlari esa maydonchaning o'rtasiga to'g'ri keltiriladi. Shuningdek, bo'laklarning simmetrikligiga ahamiyat berish kerak.</p>
6. Gazlamaga jaketning mayda bo'laklari andozalarini joylashtirish	Bichuv stoli, gazlama, bo'laklar andozasi, to'nog'ich		<p>Jaket mayda bo'laklar andozalarini gazlama ustiga joylashtiriladi. Bunda bo'laklarning tanda ipi yo'nalihi gazlama tanda ipi yo'nalihi bilan ustma-ust tushishi kerak. Tanda ipi yo'nalihidan bo'lakning og'ish kattaligi T.58-moduldagi 2-jadvalda keltirilgan.</p> <p>Bo'laklar andozalarining to'g'ri chiziqli chetlari joylash ramkasining chetiga taqib qo'yiladi, egri chiziqli chetlari esa maydonchaning o'rtasiga to'g'ri keltiriladi. Shuningdek, bo'laklarning simmetrikligiga ahamiyat berish kerak.</p>

### 73. Mavzu; Ayollar pidjagini tikish texnologiyasi.

Kiyimni bichgandan so'ng bo'laklarni aniqlashtirish kerak bo'ladi. Ularni stolga yoyib, g'ijimlangan joylarini dazmollab tekislanadi, kontrol kertimlar va teskarisida belgilangan chiziqlar aniqlanadi.

Teskarisini ichkariga qilib ikki buklangan enli gazlamalardan yakka buyurtma asosida tikiladigan kiyimlar bo'laklarini bichishda vitochka, taxlama, cho'ntak va boshqa chiziqlari faqat bitta bo'lakning teskarisidan tushiriladi. Bir bo'lakdagi konstruktiv chiziqlarni ikkinchisiga o'tqazish uchun bo'laklar o'ngini ichkariga qaratib qo'yiladi, chetlari tekislanadi va qo'lda yoki


maxsus mashinada to'g'ri nusxalama qaviqlar tikiladi. Bunda och gazlamalarga rangli ip, to'q rangli gazlamalarga oq ip ishlatiladi.

Gazlamaning xili, ishlov berish usuli va mavjud jihozlarning turiga qarab biriktirish choklarining qirqimlari turlicha ishlanishi, ya'ni maxsus mashinada yo'rmalashi, universal mashinada bukib tikilishi, gazlama bo'lagi yoki maxsus tasma bilan mag'iz qo'yilishi, yo bo'lmasa maxsus moslamada shakldor qilib qirqilishi mumkin. Termoplastik materiallar masalan, kapron gazlamalardan bichiladigan bo'laklarning qirqimlarini tilishdan asrash uchun maxsus qurilmali mashinada issiqlik usulida yumshatib qotirish mumkin.

Yorib dazmollanadigan choklarni ishslashda qirqimlarni bo'laklarga biriktirma chok bilan tikkunga qadar yo'rmanadi, qirqimlari keyin bir tomonga yotqizib, dazmollanadigan choklar esa bo'laklar tikilgandan so'ng yo'rmanadi. Kiyimlarni yakka tartibda tikishda maxsus yo'rmarsh mashinasi bo'lмаган hollarda biriktirma choklarni yorib dazmollahda qirqimlarni yo'rmarsh, bo'laklarni biriktirishdan oldin qirqimlarni universal mashina yordamida chokni ochiq qirqimli qilib bukib tikish mumkin.

Birlashtirish choklarini yorib dazmollahda qirqimlarni gazlama bo'lagiga qo'yib, bitta ochiq qirqimli chok bilan tikish yoki jiyak qo'yib tikish mumkin.

Cho'ziluvchan gazlamalardan tikiladigan kiyimlarda uqa yoki qotirma asosiy bo'lakni salqilantirib, cho'zilmaydigan gazlamalardan tikiladigan kiyimlarda esa salqilantirmasdan qo'yiladi. Uqaning tarangligi yoki asosiy bo'lakning salqilik darajasi gazlamaning strukturasiga, kiyimning bichimiga, buyurtmachining gavdasiga bog'liq bo'ladi va modelning texnik bayonida yoki bichiqchi tomonidan ko'rsatiladi. Uqa yoki gazlama bo'lagi shunday qo'yilishi kerakka, u bo'laklarning biriktirish choklariga tushib turadigan bo'lsin.



### **1-rasm. Qiz bolalar jaketining chizmali ko'rinishi**

1-old bo'lak ko'krak vitochkasini tikish; 2-old va ort bel vitochkasini tikish;

3-old bo'lak bezak etak qismini birlashtirib tikish; 4-engni qirqimlarini tikish;

5-shlitsa bo'laklarini ustma-ust qo'yib puxtalash;

6-manjetni yeng uchiga birlashtirib tikish

### **XULOSA**

Respublikamizdagi kichik tikuvchilik korxonalar, qo'shma korxonalar va yakka buyurtma tikish korxonalar iishlab chiqaradigan mahsulotlar aholining kiyimga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida, kasb-hunar kollejlarida, umumta'lim maktablarida, maktabdan tashqari muassasalarda talaba- yoshlarni tikuvchilik korxonalarida xizmat qilishga tayyorlash ishlariga hamda ta'lim muassasalarida olgan mutaxassisligi bo'yicha bilim bera oladigan malakali kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizdagi to'qimachilik va yengil sanoat korxonalarini rivojlanishi uchun o'zimizdagi tabiiy xom ashvo resurslaridan oqilona foydalanish, tayyorlanayotgan mahsulotlardan aholi ehtiyojini qondirish, so'ngra sifatlari va raqobatbardosh buyumlar bilan jahon bozoriga chiqish respublikamiz iqtisodiyotining etakchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda boshqa iste'mol mahsulotlari kabi, kiyimga nisbatan yanada yuqori talablar qo'yilmoqda. Kiyimlarni loyihalash jarayonida iishlab chiqilayotgan kiyimning zamonaviyligi, shakli, detallari, ularning mutanosibligi, bezaklari hamda buyum chizmasini chizishda foydalaniladigan hisoblash formulalari, uning tayyor holda kerakli shaklni ta'minlovchi dettalarining grafik usullari yordamida qurish nazarda tutiladi.

Kiyimlarni loyihalashda texnik-texnologik va badiiy masalalar yechimiga ijodiy tarzda yondoshib hal qilinadigan murakkab jarayonlar e'tiborga olinadi. Shuning uchun ham zamonaviy mutaxassis bir vaqtning o'zida dizayner (rassom-modeler), loyihachi, texnolog, marketolog va o'z mahsulotini muvaffaqiyatli sotuvchi kabi vazifalarini bajarishi kerak.

Mazkur o'quv uslubiy qo'llanma kiyimlarni loyihalash, ularni tayyor buyum holiga keltiruvchi boshqa texnologik bosqichlarda amalga oshiriladigan jarayonlarni ko'rib chiqish masalalariga qaratilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Sh.Is'hoqov «To'qimachilik komyosi», T., O'zbyokiston, 1995 y.
2. Sh.Is'hoqov «To'qimchilik tolalari» T., TITLP-1989 g.
3. M.A.Pankratov, V.P.Gaponova «Tekstilnye volokna», m., Legpromizdat, 1986 g.
4. Ye.P.Malseva. Tikuvchilik materialsh unosligi / Toshkent, - "Ukituvchi", - 1986 y.
5. Xamroev A.L. Kimyoviy tolalarni iishlab chikarish texnologiyasi-T.: Uzbekistan, 1995.
6. Til E. 'Istoriya kostyuma' - Moskva: Legkaya industriya, 1971 - s.104
7. M.Sh.Jabborova Tikuvchilik texnologiyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent, «O'zbekiston», 1994 y.
8. X.H.Komilova, N.K.Hamroeva."Tikuv buyumlarini konstruksiyalash". Darslik. T., "Moliya" 2003 y., 236-263 betlar.
9. Ayollar yengil kiyimini konstruksiyalash va modellash. T., 2003 y., 221-264 betlar.
10. X.H.Komilova, N.K.Hamroeva."Kiyim loyihalash asoslari". Darslik. T., "Ilm-ziyo" 2005 y. 15-25 betlar.
11. Ayollar yengil kiyimini konstruksiyalash va modellash. T., 2003 y., 61-73 betlar.
12. G.V.Skachkova, L.V.Martoplyas. Shkola kroyki i shitya na domu. Minsk. "XELTON" 2000 g.
13. Ye.V.Kireeva. «Istoriya kostyuma». Moskva. "Prosvetenie". 1976 g..
14. Ye.B.Koblyakova. «Osnovy konstruirovaniya odejdy». Moskva. "Legkaya industriya". 1980 g.
15. P.P.Koketkina. «Spravochnik po konstruirovaniyu odejdy». Moskva. "Legkaya i pischevaya promishlennost". 1982 g.
16. A.T.Truxanova. —Tikuvchilik texnologiyasi asoslari. T, 1996 y.

17. M.K.Rasulova. —Tikuv buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasi.T,  
2006 g.

Internet manbalari.

1. <file:///F:/shityo/1R.Yegorova,%20V.Monastirnaya.%20Bichish-tikishni%20o'rganening.pdf>
2. [https://blogremaking.blogspot.com/2016/02/blog-post\\_20.html](https://blogremaking.blogspot.com/2016/02/blog-post_20.html)
3. <http://fashionlib.ru/books/item/f00/s00/z0000010/index.shtml>,
4. <http://www.easyschool.ru/books/imidgelogiya/imidgelogiya-naumova/linii-i-siluet-odejdi>,  
<https://ideal-garderob.ru/ideas/stiln>

JIZZAX SHAHAR “ISHGA MARHAMAT” MONOMARKAZI IJTIMOIY  
TARMOQLARDAGI RASMIY SAHFALAR, TELEFON RAQAM VA MANZIL



		<a href="https://t.me/Jizzaxmonomarkaz">https://t.me/Jizzaxmonomarkaz</a>
		<a href="http://www.facebook.com/groups/846863546175463">www.facebook.com/groups/846863546175463</a>
		<a href="http://instagram.com/jizzaxmonomarkaz/">instagram.com/jizzaxmonomarkaz/</a>
		<a href="http://www.jizzaxmonomarkaz.uz">www.jizzaxmonomarkaz.uz</a>
		<a href="http://www.youtube.com/channel/UC3g7rYnzhOiY81voDVGk0hA">www.youtube.com/channel/UC3g7rYnzhOiY81voDVGk0hA</a>
		72 223-81-42, Жizzax shahar, Ш.Рашидов кўчаси, 44 уй

## Jizzax shahri “Ishga marhamat” monomarkazi kasb yo’nalishlari va til kurslari kesimida mavjud o’quv qo’llanmalar.

Sartaroshlik (Ayollar, Erkaklar sartaroshi)	Neyl stilist	Tikuvchi	Kosmetolog	Uqalovchi
Oshpaz	Qandolatchilik	Kichik mehr shavqat hamshirasi	Yosh bolalar uchun enaga, tarbiyachi yordamchisi	Santexnika
Elektrik	Payvandlovchi	Issiqxona	Web dasturlash	1C buhgalteriya
Komyuter savodhonligi	Rus tili	Ingliz tili	Koreys tili	Yapon tili